

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRALARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH  
BOSH ILMUY - METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRALARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**«XALQARO TIZIMLARDA O'ZBEKISTON MANFAATLAR»**

**MODULI BO'YICHA**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Toshkent 2022**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

Tuzuvchi: O‘zDJTU, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasи dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi dotsent Muitov Davron

Taqrizchilar: S.f.d., professor A. Mo‘minov  
S.f.d., professor I.Ergashev

**O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2021 yil “30” dekabrdagi 5/4-sonli bayonnomaga)**

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	11
III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	14
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	71
V. GLOSSARIY	78
VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI	86

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorlarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarini joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirishi mumkin.

### Modulning maqsadi va vazifalari

**Modulining maqsadi:** Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarni innovatsion

yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiyemetodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarini o‘zlashtirish va amaliyatga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

### **Modulning vazifalari:**

- “Jahon siyosati” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;
- maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;

“Jahon siyosati” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

- jahon siyosiy tizimining tuzilmasini;
- jahon rivojlanishining umumiy tendensiylarini;
- jahon siyosatida shaxsning rolini;
- O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar va prinsiplarni;
- O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan olib borayotgan o‘zaro manfaatli tashqi siyosatining mazmun-mohiyatini;
- MDH mamlakatlari bilan munosabatlarining siyosiy yo‘nalishlarini;
- istiqbolga mo‘ljallangan siyosiy prognozlarning mohiyatini ***bilishi*** kerak.
- globallashuvning zamonaviy jahon siyosiy rivojlanishiga ta’siri masalalarini tahlil etish;
- zamonaviy jahon tartiboti konsepsiylarining mohiyatini tushuntira olish;
- integratsion va zamonaviy geosiyosiy jarayonlarni sharhlash;
- jahon siyosatida hokimiyat uchun kurashning oqibatlarini tadqiq etish;
- jahon siyosati va uning Markaziy Osiyo davlatlariga ta’siri masalasini tahlil etish;
- O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatini o‘rganish;

- siyosiy vaziyatning mohiyatini aniqlash va tahlil qilish borasidagi bilimlarni davomli mustahkamlash;
- jahon siyosatida Xitoyning Osiyo va tinch okeani mintaqasi, Yaqin Sharq davlatlari hamda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining tutgan o‘rnini ilmiy faktlarga asoslangan holda aniqlash;
- jahon siyosatida islom omilining tutgan o‘rinini olib berish;
- O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashidagi faoliyati va istiqbollarini belgilash;
- O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining huquqiy asoslari bilan yaqindan tanishish va ularning amaliy ahamiyatini mustaqamlash kabi ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.
- jahon hamjamiyati va jahon siyosatining uzviyligini anglash;
- zamonaviy geosiyosiy jarayonlar va xalqaro xavfsizlik masalasini ko‘rib chiqishi;
- O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalish va prinsiplarni targ‘ib etish;
- O‘zbekiston Respublikasining rivojlangan davlatlar bilan olib borayotgan tashqi siyosatining amaliy ahamiyati to‘g‘risida o‘quv-video materiallar tayyorlash;
- qo‘shni mamlakatlar bilan siyosiy, ilmiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning rivojlanish tendensiyalarini targ‘ib etish;
- MDH mamlakatlari bilan munosabatlarning siyosiy yo‘nalishlari, siyosiy vaziyatning mohiyatini aniqlash va tahlil qilish;
- milliy va jahon tajribasini hisobga olgan holda davlatning imidjini shakllantirish strategiyasini yaratish borasidagi asosiy namoyondalar qarashlarni va ularning nazariy merosini tahlil etish bo‘yicha ***malakalariga*** ega bo‘lishi lozim.
- jahon siyosatida shaxsning roli, jahon hamjamiyati va jahon siyosati, jahon siyosatida hokimiyat uchun kurash masalalari mohiyatini targ‘ib etish ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

Xorijiy davlatlardagi kredit ta’lim tizimlari: Amerika Qo‘shma Shtatlari kredit tizimi (USCS), Kreditlarning to‘plash va o‘tkazishning Britaniya tizim (SATS), Yevropa kredit tizimi (ECTS), Universitet kreditlarini o‘tkazishning Osiyo - tinch okeani tizimi (UCTS). Kredit tizimi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta’minlashning innovatsion metodlari. Kreditmodul tizimida talabalarning mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish. Kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati. Kredit-modul

tizimida o‘quv jarayonining uslubiy ta’minoti. Sillabus. Ta’lim natijalari (Blum taksonomiyasi asosida). Bilim darajalari. Ta’lim natijalarini baholash usullari.

Ta’lim sohasini boshqarishning huquqiy asoslari. Ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni. Pedagog xodimlarning mehnat munosabatlarini tartibga solish. Ta’lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy asoslari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta’lim tizimiga oid qabul qilgan farmonlari, qarorlari va farmoyishlari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining ta’limtarbiya jarayonini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlari. Davlat ta’lim standartlari, tegishli ta’lim (mutaxassislik) yo‘nalishlari bo‘yicha davlat ta’lim standarti, o‘quv rejalar va fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. O‘quv rejalar va o‘quv fanlari dasturlarini takomillashtirish tamoyillari. O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish metodlari.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Xalqaro tizimlarda O‘zbekiston manfaatlari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Jahon siyosati”, “Siyosiy menejment”, o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida yetim va ota-onha qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish hamda ularning ijtimoiy himoya tizimi haqida bilish va ulardan foydalanish bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida yetim va otaona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi hamda ular bilan ijtimoiy ish olib borish usullaridan foydalanish va amalda qo‘llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

## **MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI**

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi	
		■	jumladan

			Назарий	Амалий машғұрот	Күчма машғұлдот
1.	O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar va prinsiplar. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya	4	2	2	
2.	Afg‘oniston xalqaro munosabatlar tizimida. Janubiy, Markaziy va Janubi - Sharqiy Osiyoda ekspansiyaning zamonaviy jarayonlari. O‘zbekiston Respublikasining Pokiston va Hindiston bilan ikki tomonlama aloqalari. Eron va uning O‘rta Sharq hamda Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy vaziyatga ta’siri	4	2	2	
3	MDH mamlakatlari bilan munosabatlarining siyosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro mintaqaviy tashkilotlar tizimida. Siyosiy vaziyatning mohiyatini aniqlash va tahlil qilish	6	2	4	
4	Yaqin kelajak va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan siyosiy prognozlar. Madaniy rivojlanish tamoyillarini tahlil qilish va ularni ilmiy asosda talqin qilish. Milliy va jahon tajribasini hisobga olgan holda davlat imidjini shakllantirish strategiyasini yaratish borasidagi asosiy namoyandalar qarashlarni va ularning nazariy merosi	6	4	2	
5	O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashidagi faoliyati. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi o‘rnii. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining huquqiy asoslari	6	2	4	
	<b>Jami:</b>	<b>26</b>	<b>12</b>	<b>14</b>	

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### **1-mavzu: O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar va prinsiplar. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya (2 soat).**

Xalqaro tizimlarda O‘zbekiston manfaatlarini anglash: milliy manfaatlar kategoriyasi. Xalkaro tizimlarda geosiyosiy munozara muammosi. XX asrning global geosiyosiy muhiti mazmuni. Axboriy jamiyatda maklonni nazorat qilishning asosiy vositalari. shaxs ustidan ma’naviy-mafkuraviy nazorat. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar va prinsiplar. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Germaniya, Fransiya va Buyuk BritaniY. O‘zbekiston – AQSH munosabatlarining rivoji va istiqbollari. Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo

submintaqasining ustuvor siyosiy paradigmasi. Qo'shni mamlakatlar bilan siyosiy, ilmiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar.

**2-mavzu: Afg'oniston xalqaro munosabatlar tizimida. Janubiy, Markaziy va Janubi - Sharqi Osiyoda ekspansiyaning zamonaviy jarayonlari. O'zbekiston Respublikasining Pokiston va Hindiston bilan ikki tomonlama aloqalari. Eron va uning O'rta Sharq hamda Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy vaziyatga ta'siri (2soat).**

Xalqaro tizimlarda O'zbekiston manfaatlarini ta'minlashda davlat axborot xavfsizligi. Axboriy strategiyada zamonaviylik va tarixiylik. Axborot xavfsizligi, mafkuraviy taxdid, milliy davlat, uning mustaqilligi va erkinligi, an'ana va urf-odatlarga tahdid. Afg'oniston xalqaro munosabatlar tizimida. Janubiy, Markaziy va Janubi - Sharqi Osiyoda ekspansiyaning zamonaviy jarayonlari. O'zbekiston Respublikasining Pokiston va Hindiston bilan ikki tomonlama aloqalari. Eron va uning O'rta Sharq hamda Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy vaziyatga ta'siri.

**3-mavzu: MDH mamlakatlari bilan munosabatlarining siyosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi xalqaro mintaqaviy tashkilotlar tizimida. Siyosiy vaziyatning mohiyatini aniqlash va tahlil qilish (2 soat).**

Axborotlashgan jamiyatning yangi mazmuni. Xalqaro tizimlarda O'zbekiston manfaatlari ta'minlash va jahon rivojlanishi. MDH mamlakatlari bilan munosabatlarining siyosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi xalqaro mintaqaviy tashkilotlar tizimida. Siyosiy vaziyatning mohiyatini aniqlash va tahlil qilish. Yaqin kelajak va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan siyosiy proqnozlar. Juhon siyosatida hokimiyat uchun kurash.

**4-mavzu: Yaqin kelajak va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan siyosiy proqnozlar. Madaniy rivojlanish tamoyillarini tahlil qilish va ularni ilmiy asosda talqin qilish. Milliy va jahon tajribasini hisobga olgan holda davlat imidjini shakllantirish strategiyasini yaratish borasidagi asosiy namoyandalar qarashlarni va ularning nazariy merosi (4 soat)**

Xalqaro tizimlarda raqobatda axborot bilan ishslash omili. Geosiyosiy tadqiqotlar, xalqaro tinchlik, axborot xavfsizligini ta'minlash, global barqarorlikni saqlash. Madaniy rivojlanish tamoyillarini tahlil qilish va ularni ilmiy asosda talqin qilish. Milliy va jahon tajribasini hisobga olgan holda davlat imidjini shakllantirish strategiyasini yaratish borasidagi asosiy namoyandalar qarashlarni va ularning nazariy merosi.

**5-mavzu: O'zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashidagi faoliyati. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi o'rni. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining huquqiy asoslari (2 soat).**

Geosiyosat va jurnalistika. Tashqi siyosat mohiyatini tahlil etish. Milliy va jahon tajribasini hisobga olgan holda davlat imidjini shakllantirish strategiyasini yaratish

borasidagi asosiy namoyandalar qarashlarni va ularning nazariy merosi. O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashidagi faoliyati. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining huquqiy asoslari. Xalqaro tizimlarda O‘zbekiston manfaatlari.

### **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-amaliy mashg‘ulot.** O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar va prinsiplar. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Germaniya, Fransiya va Buyuk BritaniY. (2 soat).

**2-amaliy mashg‘ulot.** Afg‘oniston xalqaro munosabatlar tizimida. Janubiy, Markaziy va Janubi - Sharqiy Osiyoda ekspansiyaning zamonaviy jarayonlari. O‘zbekiston Respublikasining Pokiston va Hindiston bilan ikki tomonlama aloqalari. Eron va uning O‘rtta Sharq hamda Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy (2 soat).

**3-amaliy mashg‘ulot.** MDH mamlakatlari bilan munosabatlarining siyosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro mintaqaviy tashkilotlar tizimida. Siyosiy vaziyatning mohiyatini aniqlash va tahlil qilish. (4 soat).

**4-amaliy mashg‘ulot.** Yaqin kelajak va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan siyosiy prognozlar. Madaniy rivojlanish tamoyillarini tahlil qilish va ularni ilmiy asosda talqin qilish. Milliy va jahon tajribasini hisobga olgan holda davlat imidjini shakllantirish strategiyasini yaratish borasidagi asosiy namoyandalar qarashlarni va ularning nazariy merosi. (2 soat).

**5-amaliy mashg‘ulot.** O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashidagi faoliyati. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining huquqiy asoslari. (4 soat).

### **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi: - ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash); - davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish); - bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI**

### **Xulosalash (Rezyume, Veyer) metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatma materialga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlrl bilan to‘ldiriladi va mavzu vakunlanadi.

#### **Namuna:**

Tahlil turlarining qiyosiy tahlili					
Tizimli tahlil		Syujetli tahlil		Vaziyatli tahlil	
Afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Mummoni kelib chiqish sababli va kechish jarayonini aloqadorligi jihatidan o'rganish imkoniyatiga ega	Alovida tayyorgarlikka ega bo'lishni, ko'p vaqt ajratishni talab etadi	O'z vaqtida munosabat bildirish imkoniyatini beradi	Munosabat boshqa bir syujetga nisbatan qo'llanishga yaroqsiz	Vaziyat ishtirokchilarining (obekt va subekt) vazifalarini belgilab olish imkonini beradi	Dinamik xususiyatni belgilab olish uchun qo'llab bo'lmaydi
<b>Xulosa:</b> Tahlilning barcha turlari ham o'zining afzalligi va kamchiligi bilan bir biridan farqlanadi. Lekin, ular qatoridan pedagogik faoliyat doirasida qaror qabul qilish uchun tizimli tahlildan foydalanish joriy kamchiliklarni bartaraf etishga, mavjud resurslardan maqsadli foydalanishda afzalliklarga egaligi bilan ajralib turadi.					

### “FSMU” metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

□



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

#### **Namuna.**

**Fikr:** “*Tizim atrof muhitdan ajralgan, u bilan yaxlit ta’sirlashuvchi, bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan elementlar majmuasi bo‘lib, tadqiqotlar obekti sanaladi*”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

#### **“Assesment” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin. **Namuna.** Har bir katakdagi to‘g‘ri javobni baholash mumkin.



### Тест

- 1. Тизим қандай сўздан олинган?
- A. modulus
- B. modulis
- C. model



### Қиёсий таҳлил

- Оптнер, Квейд, Янг, SR, Голубков моделларини ўзига хос жиҳатларини ажратинг?



### Тушунча таҳлили

- Механик тизим тушунчасини изоҳланг



### Амалий кўникма

Тизимли таҳллни амалга ошириш учун мавжуд таҳлил моделларида “SR-моделини қўллаш тартибини биласизми?

## III. NAZARIY MASHG’ULOT MATERIALLARI

### 1 MAVZU: O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar va prinsiplar. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya

**Reja:**

1. Mavzuni yoritishda milliy manfaatlar tushunchasi.
2. Mavzuni yoritishda geosiyosat fani funksiyalari va xalkaro tizimlart

*Tayanch so‘zlar: geosiyosiy manfaat, Milliy manfaatlar Milliy manfaat tushunchasi haqida*

Xalqaro tizimlarda O‘zbekiston manfaatlarini anglash va taxlil etish bugungi suveren davlatimiz uchun dolzarb mavzudir. Aygi *Milliy manfaat* geosiyosiy sharhlarda muhim o‘ringa ega. Hozirgi paytda manfaat tushunchasi geosiyosatning asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Xo‘sish, milliy manfaatning geosiyosiy jihatlari amaliyotda qanday namoyon bo‘ladi? So‘nggi paytlarda siyosatchi va jurnalistlarning chiqishlarida “geosiyosiy manfaat”, “geostrategiya”, “geosiyosiy mojaro” kabi atamalar tez-tez tilga olinmoqda. Geosiyosatning urf bo‘lishiga va uning rivojlanishiga globallashuv jarayoni, dunyoning ikki qutblilik tizimining o‘zgarishi va ko‘p qutblilikning shakllanishi, uning oqibatida sayyorada yangi markaziy kuchlarning paydo bo‘lishi kabi omillar tasir qilmoqda.

Bugun jahon hamjamiyati davlatlararo munosabatlarning eng yaxshi shakllaridan biri sifatida dunyoning ko‘p qutblilik tizimini joriy etish yo‘lida

harakat qilmoqda. Ayni shu holat sayyoradagi kuchlar nisbatining o‘zgarganiga qaramay, haqiqiy ko‘p qutblilik falsafasi xalqaro miqyosda qarorlarning bir yoki ikki kuchli davlat tomonidan emas, balki butun dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilinishini talab etadi. Ayni globallashuv jarayoniga bog‘liq bo‘lgan o‘zaro aloqadorlik darajasi yanadaadolatliroq va insonparvar dunyoning shakllanishiga imkon yaratishi kerak. Bu o‘rinda jurnalistika turli global jarayonlarni o‘zaro bog‘lovchi muhim bir qatlam xisoblanadi. Jurnalistlarning faoliyati bevosita xalqaro munosabatlар tizimining ishtirokchilari sifatida, BMTning insonparvarlik va demokratiya tamoyillariga javob beruvchi dunyoning ko‘p qutblilik tizimini targ‘ib qilishda muhim o‘rin egallaydi.

*Geosiyosatning ayni shu islohotlardagi pozitsiyasi OAVning ishtirokisiz sodir bo‘lmaydi. Yuqoridagi faslda biz yangiliklarni tahlil qilish orqali dunyo siyosat maydonidagi dinamikani kuzatish mumkinligini qayd etgan edik.* Geosiyosat va jurnalistikа fani esa talabalarni xalqaro geosiyosatning nazariy asoslarini, murakkab axboriy qarama-qarshi globallashuv sharoitlarida uning rivojlanish tendensiyalari va yo‘nalishlarini, axboriy-mafkuraviy sohani o‘rganishga yo‘naltiradi. Aslida siyosiy nuqtai nazardan olib qaraganda OAVning eng muhim jihatlaridan biri bu axborotni ochiq haqqoniylig asosida, real dunyoning virtual ko‘rinishi sifatida berishdan iboratdir . Zero, global axboriy muhit sharoitida xalqaro jurnalistdan olingan axborot siyosiy qarorlarning turli pozitsiyalarda qabul qilinishiga asos bo‘lmoqda.

XX asr oxirlariga kelib, geosiyosat dunyoning mavjud va shakllanayotgan siyosiy tizimi, uning tuzilishi, institutlari va jarayonlarini o‘rganuvchi mustaqil ilmiy va o‘quv predmeti sifatida tan olinishga erishdi. Unga jurnalistikada geosiyosiy munozara muammosining dolzarblashuvi kuchli ta’sir o‘tkazdi. Ayni “globallashuv”, “global axboriy makon” kabi atamalarning muomalaga kirishi esa zamonaviy dunyoning siyosiy jarayonlari va ularning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganishni jiddiy masalaga aylantirmoqda.

Natijada ular jurnalistlarga global axboriy makonda sodir bo‘layotgan voqealar rivojiga ta’sir o‘tkazuvchi turli xil geosiyosiy omillarni inobatga olgan holda ko‘rish, tahlil qilish va baho berish imkoniyatlarini bermoqda. Jumladan, davlatlar manfaatlari, kuchlar muvozanati, harbiy imkoniyatlar, iqtisodiy va tabiiy resurslar, mamlakatlarning geografik joylashuvi, axborot oqimlari, milliy g‘oya va shu bilan birga davlat tuzilishlari, sivilizatsiya xarakteri, xalqaro konfliktlarning darajasi va boshqa ko‘p jihatlar geosiyosiy munozara uchun muhim mavzularga aylandi.

*Shu tariqa jurnalistika geosiyosiy uslublar bilan boyitilish barobarida geosiyosiy omillardan biriga aylanadi, chunki zamonaviy sharoitlarda geosiyosiy “o‘yin”lar jurnalistlar berayotgan axborot va ular egallagan pozitsiya orqali qaysidir darajada OAVda amalga oshiriladi. OAV geosiyosiy maydon va geosiyosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.* Bugun globallashuv jarayoniga qadam qo‘ygan insoniyat jamiyatga mavjud holatlardagi to‘g‘ri yo‘nalishlarni tanlashda

OAVning faol yordamiga muhtoj. Biroq turli ijtimoiy guruhlar, shuningdek ular tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan OAV ham globallashuv jarayoniga turlicha baho beradilar. Bunday sharoitlarda turli geosiyosiy konsepsiylar doirasida mavjud qarashlar va ularning harakatini o'rganish favqulodda muhim jihatga aylanadi.

Bizningcha geosiyosat fani - biz uchun global miqyosda o'zaro aloqador bo'lgan geografik, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, mafkuraviy omillarni inobatga olgan holda zamonaviy dunyoga yanada tanqidiyroq yondoshish imkonini beruvchi, xalqaro munosabatlar va ijtimoiy reallikning tahlili uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Ayni paytda OAVning zamonaviy hodisalarga geosiyosiy yondashuvi - BMTning asosiy hujjatlarida tarannum etilgan insonparvarlik va demokratik tamoyillar, umuminsoniy qadriyatlar bilan jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning o'zaro bog'liqlik jihatlarini o'rganish va ularga baho berishni talab etadi.

OAV shakl va yo'nalishlariga ko'ra o'ziga xos tarzda voqeа, fakt va hodisalar uzatilib boradi. Bu – tabiiy hol. Lekin faktlar saralanishining o'zi pozitsiy. Shuning uchun OAV faqat ijtimoiy axborotni yetkazib beruvchi kanallar xolos, degan fikrlarga qo'shilish qiyin.

Jumladan, oxirgi vaqtarda qarshi aloqa – ommanning ko'rgan va eshitganlariga berayotgan javob tarziga ko'proq e'tibor qaratila boshlandi. OAVning monopollashuv jarayoni, yirik matbuot konsernlarining hatto o'z xohish irodalarini boshqa nashrlarga ham o'tkazish kuchiga ega bo'lishiga olib keladi. Zamonaviy texnik ta'minot va kuchli intellektual resurslar bilan ular uncha katta bo'limgan yoki o'rtacha nashrlar bilan raqobatda osongina yutib chiqishlari mumkin. Ko'pgina hollarda birgina tahdidning o'zi zaif tomonning raqobatda kuchli tomonga yon berishiga olib kelmoqda. Shu tarzda sog'lom demokratiya uchun ommanning fikri, ongi va hatti-harakatini boshqarish jiddiy xavf tug'diradi. Ommanning dunyoqarashini siyosiy maqsadga yo'naltirish, shakllantirish va boshqarish bugungi kunda real amaliyotda kuzatiladi. Chunki zamonaviy boshqaruv manipulyatorlari jiddiy tarzda oshkora yoki berkitilgan maqsadga yo'naltirilganlik bilan harakat qilish xususiyatiga ega.

Dunyoning zamonaviy holatini aks ettirish bilan birga OAV geosiyosiy maqsadlarga erishish yo'lida muhim rol o'ynamoqda. Gap siyosatchilar, yirik kapital egalari, akademik tadqiqot doiralari, matbuot va keng jamoatchilik o'rtasida bog'lovchi ko'prik vazifasini ham bajarish to'g'risida ketmoqda. Ma'lumki, sovuq urushning yakunlanishi yetakchi davlatlarning xalqaro munosabatlariga doir yangi munozaralarni boshlab bergandi. Hozir sovet imperiyasining tanazzuli tufayli dunyoning dramatik tarzda o'zgarib ketganini ko'rish uchun maktab devorlarida osilib turgan xaritalarga qarashning o'zi kifoyadir. Yangi suveren davlatlar paydo bo'ldi. Bir-birini yo'q qilib yuborishga harakat qilgan eski dushmanlar endi hamkorlik qilish yo'llarini izlamoqdalar. Ularda bozor iqtisodiyoti, demokratik qadriyatlar va erkinlikning afzallik

tomonlaridan foydalanish yo‘liga o‘tilmoqda. Sun’iy yo‘ldoshli televideeniye, ipak tolali optika, kompyuterlar va videoyozuvlар оmmaviy diplomatiyani yangi bosqichga olib chiqdi.

Bugun milliy manfaatning geosiyosiy tus olishi avvalo o‘sha davlatda olib borilayotgan ichki siyosatning tarkibiy qismini tashkil etuvchi asosiy vazifalar va maqsadlarga ko‘p jihatdan bog‘liq:

*Shuningdek, xalqaro mavzudagi materiallarda geosiyosat fanining kategoriyalariga: davlat (davlatning geosiyosiy kuch sifatida shakllanishi), kuch markazlari (davlatning mintaqa miqyosida yoki global ko‘rinishda siyosiy, iqtisodiy va tomonlardan imkoniyatlarining kengligi), geosiyosiy ittifoqlar, geosiyosiy chiziqlar (masalan, jahon siyosiy xaritasidagi «nobarqarorlik yoy»lari, ularning yo‘nalishi), geosiyosiy mintaqa, geostrategik mintaqa va boshqa masalalarga ko‘p e’tibor berilmoqda.*

Mazkur tushuncha o‘zining geografik joylashuvi, turmush tarzi, xarakteri, savdo va madaniy mafkuraviy aloqalari orqali yo‘nalishi bilan xorijiy davlatlar tashqi siyosatida munosabatlar o‘rnatish uchun ustuvor makonni o‘zida ifodalaydi .

Yangi geosiyosiy texnologiyalar ichida “past darajali mojarolar”, “rangli inqiloblar ” kabi kategoriyalar dolzarblashmoqda. Ular geosiyosiy kurashda qarama-qarshilikning yangi darajalarini belgilab berayotir.

Geosiyosatdagi past darajali mojarolar strategik urush bo‘sag‘asidagi harbiy to‘qnashuv sifatida belgilab berilishi mumkin. Bu yerda qaramaqarshi tomonlarning asosiy harbiy kuchlari ishtirok etmaydi. Bunday konfliktlar makon va zamonda ikkala tomonning hududida lokal harbiy operatsiyalari va terroristik aktlar qo‘llanishi bilan ko‘zga tashlanmoqda.

Shuningdek, “Rangli inqilob” makonni bo‘lib olishning yangi geosiyosiy ssenariysi sifatida tilga olinmoqda, bunda saylov texnologiyalari shoubiznes texnologiyalari bilan uyg‘unlashib ketadi, natijada nazorat hududidagi hokimiyat tepasiga to‘liq boshqariladigan yetakchi kelishi kutiladi. Bu haqda keyingi fasllarda kengroq bayon etiladi.

Voqealar rivoji geosiyosat va OAV yo‘nalishida “rangli inqilob”lar mavzusi alohida tadqiqotlarni taqozo qilayotir. Ko‘rinib turibdiki geosiyosat beto‘xtov rivojlanish xususiyati egadir. Shu tariqa u xalqaro maydonda kuchlar nisbatini o‘z kategorial tushunchalarida aks ettirib boradi, bundan xalqaro jurnalistika sohasi ham xabardor bo‘lib turmush axborot makonining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

## **Geosiyosat funksiyalari**

Geosiyosat fan sifatida Uzbekiston manfaatlari mavzusi bilan bevosita bog‘langan. Chunki, geosiyosat real xalqaro hayotdagi voqealari hodisalar va

jarayonlarning o‘zaro aloqadorligini va ularning bir-biriga bog‘liqligini ifodalovchi qonuniyatlarni o‘ziga qamrab, borliqdagi xalqaro munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. Ularga bog‘liqli tarzda jamiyatda muayyan funksiyalarini ham bajaradi. Umuman geosiyosatning:

- *gnoseologik*;
- *prognoz qilish*;
- *boshqaruv*;
- *mafkuraviy kabi asosiy vazifalari mavjud*.

Albatta, qayd qilingan vazifalar boshqa turdagи ijtimoiy siyosiy fanlarga ham xos bo‘lishi mumkin. Biroq mazkur vazifalar geosiyosat fanida o‘ziga xos afzalliklari bilan xalqaro siyosat borasida jurnalistik tahlillarda muhim ahamiyata ega.

**Gnoseologik vazifasi.** Barchamizga ma’lumki, bilish nazariyasi borliqni uning aniq bir holatlari, manbalari va shakllarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Bu jurnalistik tahlillarda gnoseologik funksiyaning davlat va xalqlarning geosiyosiy joylashuvi, turmush tarzi hamda ular hayotining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish bilan bog‘liqlikda aks etishi talab etiladi. Fanning gnoseologik funksiyasi amaliyoti va geosiyosatning davlatlar va xalqlar turmushini o‘rganishda qo‘llaydigan bir qator, jumladan, taqqoslash, empirik (tajriba qilish) singari uslublari muhim o‘rin egallaydi.

**Bashorat qilish vazifasi.** Geosiyosatning bashorat qilish funksiyasi bevosita gnoseologik funksiya asosida shakllanadiki, bu siyosiy jurnalistikada muhim xususiyati hisoblanadi.

Zero jurnalistik tahlilda har bir muammoning kelajagidan bashorat qilish uchun o‘sha muammo birinchi navbatda jiddiy tarixiy-siyosiy jihatdan o‘rganilmog‘i lozim. Geosiyosiy maqolalarning qanchalik chuqur o‘rganilganlik darajasi jurnalist uchun tegishli xulosalarni chiqarish hamda uning kelajakdagi kechmishi haqida ham muayyan bashoratlarni aytish imkonini kuchaytiradi.

Bashorat qilish funksiyasining ahamiyati geosiyosiy tadqiqotlarda quyidagi jihatlarni o‘zida namoyon etsagina, ya’ni:

- muammoga nisbatan bildirilgan fikr-mulohazalarning qanchalik darajada ilmiy tomondan isbotlanganligi bilan;
- bildirilgan sharhlarning xalqlar, davlat va mintaqalarning geosiyosiy turmushiga qanchalik darajada o‘zgarishlarni olib kelishi bilan;
- bashoratlarning yaqin yoki uzoq muddatga mo‘ljallanganligi bilan kuchayadi.

*Bashorat qilish — siyosiy voqealarning rivoji va ko‘rinishlari, ularni amalga oshirishining muqobil yo‘llari va muddatlari haqida ilmiy asoslangan mulohazalarni ishlab chiqish jarayonlari, shuningdek, ularning o‘sha voqeliklar sharoitida amalga oshishi uchun aniq tavsiyalarni berish demakdir.*

Bashorat uning bir qator ilmiy, batartiblik, muvofiqlik, uzlusizlik, muqobililik va rentabellik tamoyillari mavjud. Tabiiyki, ushbu tamoyillar jamiyatning iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-siyosiy, siyosiy-mafkuraviy va harbiy-siyosiy doiralarida, jurnalistik tahlillarda qo‘l kelishi mumkin.

*Bundan tashqari, amaliy jihatdan geosiyosatning bashorat qilish vazifasi quyidagi bosqichlarda jurnalistik faoliyatga ta’sir o’tkazib boradi:*

- *Bashorat qilishdan oldingi holat;*
- *Ma’lumotlarni yig‘ish;*
- *Tayanch andozalarni ishlab chiqish;*
- *Qidiruv modellarini tanlash;*
- *Belgilangan (normativ) modellarini amaliyatga tadbiq etish;*
- *Tahlilning aniqligi va ishonchliliginib baholash; - Tavsiyalarni ishlab chiqish.*

*Boshqaruv funksiyasi.* Ma’lumki, har qanday boshqaruv yangi-yangi axborotlar tizimiga asoslanadi. Chunki boshqaruvchi (o‘z sohasi yoki doirasida) barqaror faoliyat olib borishi uchun ham (o‘ziga tegishli) axborotlarga ehtiyoj sezib boradi. Jumladan geosiyosatning boshqaruv funksiyasi ham shunga asoslangan. Boshqa sohalardan farqli tarzda, geosiyosat boshqaruvga tegishli qarorlar va tavsiyalarni berish uchun doimiy ravishda mavjud axborotlarni (xalqlar, davlatlar va mintaqalar va b.) yig‘ib boradi va tahlil etadi.

*Misol uchun jurnalist har qanday jarayonlarda boshqarishga oid qarorlarni chiqarish uchun muammoli holatni atroflicha tahlil qilmog‘i joiz Demak, muammoga obektiv baho berish uchun turli kuchlar (subektlar) va omillarni hisobga olmoq lozim (siyosiy, iqtisodiy, geografik va b.). Subektlarning voqeaga ta’sir etish darajalarini o‘rganish kerak va b.*

*Zotan, hozirgi kunda makon uchun olib borilayotgan axborot urushlarining asosiyligi – geosiyosiy raqiblarga oldindan rejalashtirilgan va dasturlashtirilgan dunyoning axboriy qiyofasini majburan singdirish, shu tufayli uning boshqaruv tizimini butunlay boshqarishga harakatlar – jaxon siyosati yo‘nalishidagi tadqiqotlarni tubdan yangilab borishni talab etmoqda.*

Qolaversa jahon siyosatida sovuq urush davridan beri yangi geosiyosiy e’tiqod “Raqibning dunyoqarashini anglash va bilish obektiv reallikdan muhimroqdir” degan g‘oya tinimsiz oldinga surilib kelindi. Har holda yaqin o‘tmishda geosiyosat uchun yer makoni (borliqning) kartografiyasi muhim omil bo‘lgan bo‘lsa, endi geosiyosatning asosiy diqqat markazini inson qalbi muammosi egallay boshladi.

Qizig‘i va muhimi, axborot inqilobi globallashuv jarayonlari taraqqiyoti barobarida yuz bermoqda. Bu, albatta, turli mintaqa va mamlakatlar o‘rtasidagi an‘anaviy to‘sqliarning muayyan darajada sidirilib, yuvilib ketishiga sabab bo‘layotir. Har holda uchinchi ming yillikda xalqaro xavfsizlikning barcha asosiy

parametrlari o‘zgarmoqda. Agar xavfsizlik ilgari harbiy kuchlar muvozanati, konfliktlar darajasi va jahon urushi tahdidiga, jumladan qurollanish poygasini to‘xtatish kabi omillarga bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, endilikda “noan’anaviy” tahdidlar bilan kurashish biringchi o‘ringa chiqdi<sup>1</sup>. Agar o‘tmishda strategik jihatdan joylarda razvedka va kontrrazvedka ustuvorlik qilgan bo‘lsa, endilikda ularning o‘rnini axborot oqimlarini tahlil qilish omili egalladi. Ular orasidan agressiv - buzg‘unchi axborot yo‘nalishlarini belgilab olib olish, o‘z vaqtida fosh qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

*Jurnalistika olamidagi yangi voqeliklar geosiyosatchilar oldida yangi noan’anaviy muammoni ko‘ndalang qo‘ya boshladi: bu axboriy xurujning geosiyosiy darajadagi masalalarni hal qilishdagi rolini tahlil qilish muammosidir.* Binobarin bugungi kunga kelib ayni axboriy ta’sir va tazyiq o‘tkazish davlatning eng asosiy geosiyosiy potensiali – milliy mentalitet, milliy madaniyat, odamlarning ahloqiy-ma’naviy qiyofasini o‘zgartirib tashlash qudratiga ega bo‘lmoqda.

Ikkinchidan, milliy psixologiya va tafakkur qiyofasining o‘zga kuchlar tomonidan o‘zgartirilishi global tahdid darajasiga yetdi. Shunday qilib, axborot makonidagi ma’naviy-madaniy muammolar abstrakt nazariy emas, balki geosiyosiy mohiyat kasb etmoqda. Tajovuzkor g‘oyalarning hududiy chegaradan chetlab o‘tib, ommani boshqara oladigan axborot texnologiyalarining vujudga kelishi harbiy harakatlar teatrini turli tamaddunlarning milliy-tarixiy, ruhiy-madaniy olamiga tahdid qilishi bilan ko‘zga tashlanmoqda.

Inson-sivilizatsiya-madaniyat tushunchalari doirasidagi o‘zlikdan voz kechish istagi yetakchi davlatlar murakkab axborot tizimlarining majburiy elementi sifatida kiritilmoqda. Maqsadli axborot ta’siri orqali milliy o‘zlikdan voz kechtirish mexanizmini ishga tushirish yo‘liga o‘tildi, bunda maxfiy dasturlarning singdirilishidan ustalik bilan foydalanilmoqda.

*Bugun internet, ommaviy axborot kommunikatsiyalari, reklamadan iborat bo‘lgan zamonaviy axborot makoni – bu axborot orqali boshqariladigan yaxlit bir dunyoga aylandi.*

*XXI asrda “ko‘zga ko‘rinmas” axboriy ta’sir qilish geosiyosiy qarashlarni qay darajada o‘zgartirishi mumkin?*

Hozirgi paytda boshqa davlat va kuchlarga ta’sir o‘tkazishning barcha instrumentlaridan foydalanish asosiy maqsad sifatida yetakchi davlatlar tomonidan oldinga surilmoqda. Global liderlikka intilish yoki ular tomonidan belgilanayotgan qadriyatlarni qabul qilish, “demokratiya eksporti” – g‘arbona demokratik ideal va qadriyatlarni singdira borish, liberal demokratiyani tarqatish tufayli g‘arbona qadriyatlarni quvvatining oshirish kabi tushunchalar jurnalistik tahlillarning diqqat markazidan o‘rin egalladi. YA’ni, dunyo jurnalistikasi geosiyosiy kurashning

---

<sup>1</sup> Халқаро тероризм, трансмиллий жиноятчилик, ноқонуний миграция, ахборий диверсиялар шулар жумласига киритилмоқда.

virtual maydoniga aylanib ulgurdi. U bir ko‘rinishda beozordek tuyulasa-da, aslida shafqatsiz va ayovsiz fenomen tusini oldi. Bugun ommaviy axborot vositalarida “Yovuzlik o‘qi” deb singdirilgan qator-qator davlatlar beqarorlik, yovuzlik, kambag‘allik, nochorlik o‘chog‘iga aylanayotganligi – taassufki, navbatdagi “antiterror gumanitar operatsiyalarni natijalaridan ravshanlashib bormoqda.

Uchinchidan, axborot makonidagi geosiyosiy g‘oya va qarashlarning tahlili odadagi siyosiy tahlillarga nisbatan o‘ziga xos dinamik yondoshuvlarni talab etishi sezilmoxda. Bunda axborot makonida haqiqatni yolg‘ondan farqlay olish uchun geosiyosiy g‘oyalarning to‘qnashuvi bo‘ladigan “kuch maydonlari”ni doimiy ravishda kuzatish talab qilinadi. Ularning kutilmagan vaziyatlarda bir-biriga qarshi bosimini anglash ko‘p jihatdan geosiyosiy bashoratlarimizda asqotadi. Jumladan, bu yerda jahon axborot makonida kuchlar nisbatini bilib borish muhim ahamiyatga ega. Virtual kurash natijalari ko‘pincha shu nisbatga bog‘liq bo‘lib qolayotir.

*Bugun geosiyosatning axborot konsepsiyalari shuni anglatmoqdaki, davlatlar o‘rtasidagi makoniy munosabatlar endilikda virtual makondagi axborot ustunligi bilan belgilanib boradi. Ayni shu ma’noda geosiyosiy strategiyani ishlab chiqish axboriy-mafkuraviy ustunlikka asoslangan operativ konsepsiyanı yaratish bilan namoyon bo‘ladi..*

Shu tariqa xalqaro siyosatda mustaqil davlatlarning kuch-qudratini axborot texnologiyalari yordamida o‘stirish, bu borada barcha imkoniyatlardan samarali foydalanish amaliyoti haqida bahs-munozaralar ko‘paydi. Albatta bu holat kurashning real makondan virtual makonga o‘tishini qizg‘in bosqichga olib kelmoqda. Aslida bu XXI asr siyosat olamidagi o‘ziga xos geosiyosiy inqilob edi. Bugun esa uni geosiyosat va jurnalistika fanlari uyg‘unligida anglash va bilish, tafakkur qilish vaqtini yetib keldi. Jahon geosiyosiy sahnalaridagi raqobat shuni talab etadi. Birinchi navbatda tabiiy energiya resurslari uchun bo‘layotgan kurash uning axboriy ta’midotida yangidan-yangi ssenariylarni oldinga surishi aniqlandi: gohida zimdan, gohida oshkora ochiq oydin oldinga surilayotgan geosiyosiy maqsadlarning mag‘zi buni tasdiqlab turibdi. Demak dunyoga kim ustunlik qiladi degan masala ayni yetakchi davlatlar axborot siyosatining ustuvor vazifasiga aylanib ulgurdi. Dunyoga hukmronlik qilishning eng samarali va arzon vositasi yana bir bor axborot institutlariga borib taqalishi isbot talab qilmaydigan siyosiy aksiomaga aylandi.

Albatta, bunday qarashlar mustaqillik, milliy va davlat manfaatlari borasidagi qizg‘in, bahstalab konsepsiyalarni rivojlantirishga, geosiyosat va jurnalistika haqidagi ilmiy nazariy tasavvurlarimizni kengaytirib borishga chorlashi joiz.

### **Ommaviy axborot vositalari yangi geosiyosiy aktor.**

Geosiyosiy konfliktlar tarixidan geosiyosiy manfaatlар to‘qnashuvida jurnalistika instituti hech qachon to‘liq mustaqil bo‘la olmasligini tasdiqladi. Ularning qaramlik darajasi esa nazorat qiluvchi muayyan xalqaro korporatsiya, sanoat va moliya guruhlari, jumladan , turli davlatlar, siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlarning siyosiy jihatdan nazoratiga bog‘lik holda o‘z yechimini topmoqda.

Yana bir tomoni, bunday paytda OAVdan ko‘proq foyda olish ayni yetakchi davlatlardi matbuot erkinligining darajasiga ham bog‘liq bo‘lib qolayotir. Kundan-kunga zamonaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi bilan ularning faoliyatini nazorat qilish qiyinlashib boraveradi. Shuningdek bugun rivojlangan davlatlarning har qanday fuqarosi tele-radio kanallar, internet tarmog‘i va boshqa axborot manbalaridan turli xil axborotni olish huquqi va imkoniyatiga ega. *Hozir OAVning geosiyosiy manfaatlarni oldinga surilishdagi rolini oydinlashtirish masalasi jiddiy tus olgan davr. U mazkur masalada ham geosiyosiy tahlillarning zaruriyatini tasdiqlaydi.*

Bugun ommaviy axborot vositalaridan u yoki bu mamlakatda olib borilayotgan siyosatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilish imkoniyatidan foydalanish yo‘liga o‘tilgan. Albatta shunday paytda u siyosatning muhim bir elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinci tomondan OAV u yoki bu davlatlar xaqida hududi tasavvurlarni rivojlantirishi, kayfiyatlarni o‘zgartirib turishi, aholining keng qatlamida tarqala olish imkoniyatiga egaligi bilan geosiyosiy tasavvurlarimiz ham o‘zgarib borishi mumkin.

*OAVning bu imkoniyati ijtimoiy fikrning shakllantirishda juda qo‘l keladi. Shu jihatdan olib qaraganda, u geosiyosiy o‘yinchilarining o‘yinchog‘iga aylanishi hech gap emas. Bu jarayonda transmilliy korporatsiyalar, diniy tashkilotlar kabi boshqa turli aktorlarning teng ishtirok etishga intilishi sezilmoqda. Shu tariqa, hozir turfa xil mafkuralarni tarqatish OAVning birinchi darajali vazifalari jumlasiga kiradi. Natijada, tarqatilgan axborot gazeta-jurnal, radio-televide niye, audio-video kassetalar va internet tarmog‘i orqali belgilangan geosiyosiy vazifalarni bajara boshlaydi.*

Istiqbolda shu tariqa OAV uzoq vaqt turli xil geosiyosiy maqsadlarni ilgari surishda muhim ishtirokchi bo‘lishi kutilmoqda. Bu zamonaviy geosiyosiy maktablar oldida ma’rifatli jamiyatga mos keluvchi geosiyosatning yangi mezonlarini ishlab chiqish vazifasini ham dolzarblashtiradi. Bu holatda ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa televide niyening geosiyosiy jarayonlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir o‘tkazishini e’tiborga olish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

*Televide niye bugungi zamonaviy jamiyatda siyosiy madadni ta’minalash uchun asosiy va qudratli vosita vazifasini o‘tamoqda, ular siyosiy kompaniyalarni tashkil qiluvchi quyidagi sifatlarga ega, ya’ni<sup>2</sup>:*

- siyosiy ma’lumotlarni zudlik bilan cheklanmagan hajmda yetkaza olish qobiliyati;
- siyosiy ma’lumotni har qanday insonga mos ravishda, uning uyiga hech qanday maxsus va ko‘zlangan sarf harajatlarsiz o‘zlashtirishni talab qilmaydigan tezkor shakliga ega.

---

<sup>2</sup> Қаранг. А.И.Демидов, А.А.Федосеев. Основы политологии. Москва, «Высшая школа», 1995, 229-бет.

Bugungi siyosiy jarayonning asosiy ishtirokchilari siyosiy ongining shakllanishida televideniyening yetakchi roli – audivizion xarakterga ega bo‘luvchi zamonaviy inson madaniyatining xususiyatlari bilan belgilanadi. Televide niye ma’lumotlarning asosiy qismini audivizuul funksiyasi orqali qabul qilishi bilan jamiyat siyosiy dunyoqarashida yetakchi rol o‘ynamoqda.

*Geosiyosatga oid materiallarning journal va gazetalarda e’lon qilina boshlanishi esa axboriy jamiyatga taalluqli bo‘lgan yangi mezonlarni geosiyosatga kiritishga sabab bo‘ldi.* Bularning barchasi axboriy tizimlar o‘rtasida geopolitik jarayonlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatuvchi vositalar ichidagi ommaviy axborot vositalaridan televideniyening ahamiyatini alohida kuchayib borishini tasdiqlaydi.

Qolaversa, zamonaviy siyosiy psixologiya zamonaviy jamiyatda ratsional yondoshuvlar emas, balki "obraz" ("imidj") yorqinligi asosiy rol o‘ynashini isbotladi. Bugun jamiyat aksariyat qismining siyosiy, mafkuraviy va geosiyosiy qarashlarining telekommunikatsiya yordamida shakllantirishga zo‘r berilayotganligi bejiz emas. Har holda media "obraz" etnik, madaniy, mafkuraviy, siyosiy yondoshuvlar asosidagi sintez mahsuli deya e’tirof etilmoqda. O‘z navbatida, jamiyatdagi ma’lumotlarning turfa xilligi ham ularning siyosiy hayotga singib ketishiga ta’sir qiluvchi shartsharoitlarning mavjudligi bilan chambarchas bog‘langan. Bunday paytda xaqqoniylilikka mos keluvchi hamda turfa xil ma’lumotlar shaxsning siyosiy munosabatlar sohasidagi faoliyatining faollahuviga kuchli ta’sir o‘tkazadi, odamlarning mustaqillik darajasini o‘stiradi. Shu bilan birga, zamonaviy journalistikada texnikaning mukammallahib borishi ma’lumot tarqatishning tezligini mutlaq oshirdi, qisqa muddatda odamlarning yirik ommasini qamrab olish qobiliyatini kuchaytirdi<sup>3</sup>.

*Shu tariqa, axborot inqilobi yangi axboriy paradigmalarni geosiyosatda shakllantira boshladi. Uning markazidagi axborot g‘oyasiga zamonaviy geosiyosat dinamikasining asosiy omili sifatida qarala boshlandi.*

Bugun axborot texnologiyalari bosimi ostida geosiyosiy hukmronlikning metodlari, siyosiy makon va zamonning dinamikasi ham o‘zgara boshladi. Ayniqsa bunday mahalda geosiyosatning yangi o‘lchovi bo‘lmish virtual axboriy makon katta rol o‘ynay boshladiki, bunda axboriy texnologiyalar yordamida geosiyosiy kurashning yangi shakllari avjga chiqdi. Bularning barchasi, geosiyosatdagi zamonaviy axboriy paradigmalar yordamida quyidagilarni bilishni ko‘zda tutadi:

- dunyodagi geosiyosiy transformatsiyani shunday ta’riflashni tashkil qilish kerakki, uning istiqbolini aniq tasavvur qila olinsin ;
- global geosiyosiy evrilishlarning sabablarini tushuntirib bera olish, kelajakning voqealiklari qachon, qayerda va qanday shaklda bo‘lishini bashorat qilishga imkoniyat yaratilsin .

<sup>3</sup> А.И.Демидов, А.А.Федосеев. Основы политологии. Москва, «Высшая школа», 1995, 149-бет.

Bugungi kunning geosiyosiy manzarasi o‘zining murakkabligi, global jarayonlarning virtualligi bilan belgilanayotganligini aytib o‘tdik. Bu holat geosiyosiy boshboshdoqlik kategoriyasidan geosiyosatchilarga jahon siyosatining murakkabliklariga baho berishda qo‘l kelmoqda. Geosiyosat va jurnalistika fanini chuqur o‘zlashtirish esa geosiyosatdagi axboriy paradigmalar doirasida makon ustidan nazorat o‘rnatishning ko‘pgina muammolariga doir mustaqil ilmiy pozitsiyani kuchaytirishga olib kelishi mumkin. Bu so‘zsiz axborot inqilobidagi siyosiy makon va zamon tushunchasining klassik ta’rifiga jiddiy o‘zgartirishlar olib kirishdan boshlanadi. Shu tarzda bir qator geosiyosiy muammolar jurnalistik tahlillarda o‘z aksini topadi. O‘ta murakkab zamonaviy muammolar qatoriga siyosiy makonning sifati va tuzilmasidagi o‘zgarishlarni anglash muammosi kirib keldi.

Shunday qilib axborot to‘lqinlarini boshqarish postklassik geosiyosatdagi hokimiyatning asosiy dastagiga aylanadi. U borgan sayin virtual shaklga ega bo‘lmoqda. Axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi o‘tmishda geosiyosatni nazorat qilib borgan eski xalqaro institatlarning parchalanishiga olib kelmoqda, yangidan-yangi majaro va qarama-qarshiliklarning avj olishiga o‘z ta’sirini o‘tkazib bormoqda. Siyosiy vaqtning tezligi degan tushuncha paydo bo‘ldi. Virtual dunyoni o‘zlashtirish ayni siyosiy vaqtning tezligidan kelib chiqadi.

Bugun kompyuter monitorlari va televizor ekranlaridagi axborot maydonlaridagi buyuk o‘zgarishlar klassik geosiyosatdagi makon tushunchasiga qayta ishlov berishi bilan baravar kudratga egadir. Geosiyosat va OAVning o‘zaro munosabatlari yangi ming yillikda davlatlar o‘rtasidagi makoniy munosabatlarning virtual makonda axboriy ustunlikni ta’minlay olishi bilan belgilanmoqda. Alal oqibat axborot makonida madaniyatning strategik geosiyosiy ahamiyatga ega bo‘lishiga olib keladi. Ijtimoiymadaniy omillar avvalo inson faolligi hisobiga belgilanishi aniqlandi. Shu sababli geosiyosat va jurnalistika fani ayni inson dunyoqarashini nishonga olishi bilan e’tiborli.

*Bugun geosiyosat va jurnalistikaning markaziy muammosi – axboriy jamiyatdagi insonning siyosiy mentalitetini o‘zgartirishga ta’sir o‘tkazish.*

Aslida eng asosiy axborot inqilobi ommaviy axborot vositalaridan tashqarida yuz berdi. Bugun u axboriy-psixologik quroqning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, odamlarning ruhiyati va ma’naviy qiyofasiga samarali ta’sir qilishga qodir. U hozirgi Ukraina, Afg‘on va Yaqin Sharq dunyosidagi harbiy-geosiyosiy mojarolarning jurnalistik tahlillarida aniqroq ko‘zga tashlanmoqda.

Bularning barchasi tahlillar orqali geosiyosiy makonni nazorat qilishga doir mexanizmlarni tadqiq etish – geosiyosatning asosiy vazifalari ekanligini tasdiqlaydi. Geosiyosat va jurnalistika sohasining zarurati ayni shu holatlar bilan ifodalanadi.

### *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. . “Ko‘zga ko‘rinmas” axboriy ta’sir qilish geosiyosiy qarashlarni qay darajada o‘zgartirishi mumkin?
2. Axboriy paradigmalar yordamida bugungi kunning geosiyosiy manzarasi qanday ta’riflanadi?
3. OAV orqali geomafkuraviy maqsadlarni oldinga surishning mohiyatini tushuntirib bering.

**2-MAVZU: Afg‘oniston xalqaro munosabatlar tizimida. Janubiy, Markaziy va Janubi - Sharqi Osiyoda ekspansiyaning zamonaviy jarayonlari. O‘zbekiston Respublikasining Pokiston va Hindiston bilan ikki tomonlama aloqalari. Eron va uning O‘rta Sharq hamda Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy vaziyatga ta’siri**

**Reja:**

1. Mavzuni yoritishda davlat axborot xavfsizligi: axboriy strategiyada zamonaviylik va tarixiylik
2. Mavzuni yoritishda geosiyosiy munozara muammozi

*Tayanch so‘zlar: axborot xavfsizligi, mafkuraviy taxdid, axborot makonidagi geosiyosiy raqobat, harbiy hamda mamlakatning milliy manfaatlariga zid keladigan axboriy tahdidlar.*

**1.DAVLAT AXBOROT XAVFSIZLIGI: AXBORIY STRATEGIYADA ZAMONAVIYLIK VA TARIXIYLIK**

Biror xalqni o‘ziga tobe qilish uchun qo‘lga qurol olib jang olib borish emas, balki bundan ham osonroq yo‘llar orqali erishish geomafkuraviy vositalarda kuchli namoyon bo‘lganini ta’kidladik. Zero har bir suveren davlat o‘zining iqtisodiy, siyosiy, harbiy va axborot makonidagi xavfsizligini mustahkam ta’minlashi davlat mustaqilligining muhim tayanchi hisoblanadi.

Bugun axborot makonidagi geosiyosiy raqobat axborot xavfsizligini ta’minlashni juda dolzarblashtirib yubormoqda.

Aslida, davlat axborot xavfsizligi esa barcha axborotlar tizimlarining himoyalanganlik darajasiga bog‘liq jarayondir. Bunda asosiy va zaruriy iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, fan-texnika, ta’lim-tarbiya, harbiy hamda mamlakatning milliy manfaatlariga zid keladigan axboriy tahidlarning oldini olish, axborotlarni noqonuniy yo‘llar bilan olishni barataraf etishning qat’iy chora va tadbirlar ko‘rilishi maqsad qilib belgilanadi. Axborot xavfsizligi ayni axboriy tahidlarning

oldini olish va bartaraf qilish yo‘lidagi davlat tadbirlarining yaxlit tizimini tashkil qilib bormoqda.

Bugun axborot xavfsizligi orqali "o‘z erkinligi" niqobi ostida jamiyatimizning madaniyat, ta’lim, ma’naviy qadriyatlar tizimiga chetdan yot g‘oyalar tarzida axboriy oqimlarning kirib kelishi, davlat manfaatiga hamda suverinetetligiga putur yetkazishning oldini olish mexanizm zarurati haqida tadqiqotlarimizda o‘ziga xos jonlanish yuzaga kelgan.

Aytish joizki, axboriy xavfsizlik xarbiy xavfsizlikning komponenti sifatida ham ishlatalib, harbiy sohadagi axboriy resurslar, kanallar, bilimlar va ma’lumotlar bazasining mavjudligi, ularning asosida axborotlarni qayta ishlanishi, saqlanishi va qo‘llanilishidagi xavfsizlikni anglatmoqda.

Shundan kelib chiqib tahlillar bugungi axborot siyosatining usul va shakllarida umumiyl tamoyillardan foydalanishning samarasi to‘g‘risida ko‘proq bosh qotirish davri kelganligini qayd qilishmoqda. Bunday sharoitda davlat axborot xavfsizligini ta’minalashning xususiyatlarini, asosiy omillarini, ayniqsa, axborot xavfsizligini ta’minalashning davlat boshqaruvi metodlari va shakllari haqida umumiyl bilimga ega bo‘lish, axborot xavfsizligini ta’minalashning axboriy-mafkuraviy jihatlaridan yetarli foydalanish bo‘yicha tajriba va malakaga ega bo‘lish yoshlari tafakkuriga singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalaning yana bir tomoni bugun O‘zbekistonda turli axborot xurujiga qarshi tura oladigan davlatning samarali tizimini yanada takomillashtirish yo‘liga o‘tildi. Zero, shunday munosabat orqaligina jamiyatni salbiy axboriy- mafkuraviy xurujdan ishonchli saqlash, qat’iy himoya qilish mehanizmini yaratish hissi fazilat sifatida yoshlarda shakllana boshlaydi. Ma’lumki, mafkuraviy ta’sir jamiyat uchun yangidan yangi taxidlarni keltirib chiqarishi mumkin. Demak, mafkuraviy taxdid qancha ko‘p bo‘lsa, jamiyatda qo‘rquv, hadik va ishonchsizlik shuncha ko‘p bo‘ladi. Ana shunday ma’naviy, ruhiy, ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib, jamiyat kayfiyatini muvofiqlashtirib, yo‘naltirib, boshqarib turish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy sivilizatsiya sharoitida axborotning globallashuvi, axborot globallashuvi tendensiyalari va mohiyatini tahlil qilish zaruriyati, xususan axborot xurujlarining vujudga kelishi va mamlakat xavfsizligini ta’minalash muammolarining jiddiy tus olishi - O‘zbekiston Respublikasi axborot xavfsizligi milliy xavfsizlikni ta’minalashning muhim komponenti ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Voqealar rivoji jurnalistlar qatlami uchun davlat axborot siyosatida shaxs xavfsizligini ta’minalash, O‘zbekiston axborot infrastrukturasini to‘laqonli rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratib berish, O‘zbekiston davlatining axborot xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha davlat ichki va tashqi siyosatining strategik vazifalarini tushuntirib borish, yosh jurnalistlarning axborot olish va

undan foydalanishida jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini, ilmiy va madaniy salohiyatini mustahkamlash naqadar muhim jarayon ekanligini isbotladi.

Keyingi paytlarda jurnalistika olami geosiyosiy tahlillarida axborot quroli to‘g‘risidagi munozaralarining ko‘payganligini qayd qilmoqda. Ko‘pchilik ekspertlar esa axborot qurolini axborotni o‘g‘irlash, yo‘q qilish, axborotni o‘zgartirish vositasi sifatida belgilamoqda. Shuningdek, muayyan foydalanuvchilarni xatti harakatlarini chegaralovchi, texnik ya’ni kompyuter tizimlarini qayta o‘zgartiruvchi vositalariga ham axborot quroli sifatida qaralmoqda.

Ma’lumki ikkinchi jahon urushi yakun topgach, jahon siyosati ikkita buyuk davlatning ta’sirida qola boshladi. Asosan SSSR boshchiligidagi sotsialistik yo‘nalishdagi (Varshava shartnomasiga a’zo mamlakatlar) va AQSH yetakchiligidagi bozor iqtisodiyoti rivojlanishidagi yoki (Shimoliy Atlantika ittifoqiga (NATO)) a’zo mamlakatlardan iborat bloklar vujudga kelgan edi.

SSSR va AQSH bu raqobatda qurollanish poygasiga shunday zo‘r berishdiki, natijada ular yaratgan ommaviy qirg‘in qurollari zahirasi sayyoramizni bir necha barobar yo‘q qilishga yetadigan miqdorda ishlab chiqarildi. Bu ziddiyatli va keskinliklarga boy davr tarixga "sovnuq urush" (XX asrning asosan 50-90 yillar) nomi bilan kiritildi. Ikkala mamlakat siyosiy elitasi, bunday aslahalar bilan yangidan dunyoni bo‘lib olish siyosatini amalga oshirish uchun biri-biri bilan bevosita xarbiy to‘qnashuvlar butun insoniyatning yo‘q bo‘lib ketishiga olib borishini tushundilar. Ular o‘zlarining ta’sir doirasi kengaytirish uchun, bir-birlarining chegaralariga yaqin joydagي mintaqalarda hamda geosiyosiy nuktai nazardan muhim bo‘lgan hududlarda uchinchi kuchlar orkali bellasha boshladilar. Shu bilan birga Yevroosiyoda yakka hukmronlikka to‘skinlik qilishi mumkin bo‘lgan, eski raqiblarini butunlay parchalab, mayda bo‘laklarga bo‘linib ketishi uchun barcha maxfiy va oshkora choralarini ko‘rib borildi. Zero: Kim Sharqiy Yevropani boshqarsa, u zamin Yuragi egasidir, Kim zamin Yuragini boshqarsa, Dunyo Orolining egasidir, Kim Dunyo Orolini boshqarsa, jahon egasidir, degan Xalfred Makkinderning mashhur "fanning o‘zagi" nomli iborasi bu geosiyosatning asosini tashkil qilardi.

Bunday geosiyosiy kombinatsiyalarni amalga oshirishning eng oson yo‘li axborot urushlari tufayli qidirila boshlandi.

Ayniqsa davlat axborot xavfsizligi turli "inqiloblar"ni mohiyatini tushunish va ko‘ra olish, jamiyat negizidagi pishib yetilgan kelishmovchilik, ziddiyatlargagina emas, balki uning madaniyati, mafkurasi va omma ongi sohasi bo‘lmish jamiyatning aniq maqsadli va sodir bo‘layotgan asabiylashish holatini hosil qilish jarayonlarini ham axborot oqimida hisobga olish zarur.

Demak, geosiyosiy xavf-xatarlarga jiddiy razm soladigan bo‘lsak, mustamlakachilik siyosati, birovlarini qaram qilish siyosati yangi asrda yo‘qolmaganini, balki o‘zining shaklu shamoyilini o‘zgartirganini tushunib yetmoqdamiz.

Zamonaviy axboriy urushlarda o‘z turmush tarzini ko‘z-ko‘z qilish asosiy yo‘nalish sifatida qolayotganligigi xisobga oladigan bo‘lsak, axborot qurolini bunday qisqa tushunish uning barcha axboriy vositalarini tasavvur qilishga imkoniyatni kamaytiradi. Shuning uchun axboriy qurolni qisqacha qilib raqibning mentaliteti va axboriy tizimiga vayronakor ta’sir qiluvchi axborot va axborot texnologiyalaridan foydalanish tizimiga doir tushunchalar qamrab oladi.

Axborot orqali qo‘qqisdan zarba berish samarasi yetakchi davlatlar global axboriy liderlik konsepsiyasining mazmunini tashkil qilayapti, bunga o‘xshash strategiya o‘tgan asr 90 yillarining boshida yuzaga keldi. Ko‘proq qator davlatlarning xatti harakatlari yetakchi davlat rahbarlari tomonidan ilgari surilgan formatga yo‘naltirilmoqda.

Axborot urushining asosiy tamoyillaridan biri shuki, u tajovuzkor to‘xtovsiz tarzda axborot makonini nazorat qilishga intiladi, u shakllangan qoida va ahloqiy normalardan aylanib, ongli ravishda barcha ijtimoiy cheklovlar va ahloqiy qarashlarni chilparchinga aylantirdi. Yana bunday OAV faqat bir tomonlama faktlarga diqqat e’tiborni qaratmoqda, taniqli siyosatchilarga tegishli tajovuzkor ma’lumotlarni tarqata boshlab, janjalli, shov-shuv surishtiruvlar o‘tkazadi, ongli ravishda axborotni soxtalashtira boshlaydi.

Maqsad bunday harakatlar tufayli inson ongingin faollashtirish, olomon psixologiyasini boshqaruvchi asos yaratish, odamlarning hissiyotini manipulyatsiya qiluvchi mexanizmni ishga solishdir.

Ayni paytda axborot urushning strategiyasi raqibning axboriy harakatlariga qarshilik o‘rnatishni tashkil qilish, jumladan alternativ axborot tarqatishni qat’iy ta’qiqlashni ko‘zda tutadi. Davlat axborot xavfsizligini ta’minlashda o‘z turmush tarzini tashviqot qilish raqibning qadriyatlar tizimini obro‘sizlantirish, milliy o‘zlikni badnom qilish mexanizmini sezdirmasdan va oson yo‘lga qo‘yish xususiyatini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Zotan, axboriy strategiya quyidagi shaklida namoyon bo‘lmoqda:

- ijtimoiy tuzumning barcha asosiy atributlarini obro‘sizlantirish – uni boshqaruv tizimini ishlab chiqarish;
- iqtisodiy tanazzulga olib keluvchi mexanizmlarni ishga solish – xalqaro institutlar va “yordam” shaklidagi moliyaviy dasturlar orqali iqtisodiy boshqaruv tizimini yaratish;
- OAV orqali bosim tashviqotlar tufayli yangi qadriyatlar tizimini aholi turmush tarziga olib kirish;
- har qanday muxolifotni qo‘llab quvvatlash, siyosiy elitani o‘z tomoniga ag‘darish, aholini bir-biriga adovatda bo‘lgan guruhlarga bo‘lib yuborish, boshboshdoqli va fuqarolar urushi ahvoliga olib kelish; - aggressor obrazini “mamlakatni totalitar hayot shakli asoratlarini qutqaruvchi” sifatida xaspo‘shlash.

Tabiiyki bu o‘rinda axboriy urushda g‘olib bo‘lish mumkinmi degan savol tug‘iladi? Bunday urushda ko‘pgina tadqiqotchilarining ta’kidlashicha qaysi dastur

kuchli bo'lsa shu tomon g'olib bo'lishi kerak. Ammo axborot urushida avvalambor odamlarning ongi va qalbi uchun kurash olib boriladi.

Butun insonlarning aql-zakovatini nazorat qilish tufayli global nazorat - bu axborot urushining asosiy maqsadiga aylandi. Axborot urushida kimki bosimni kuchaytirib, beto'xtov hujumda bo'lsa g'alabaga kelishi mumkin degan qarashlar axborot xavfizligini ta'minlovchi muhim geosiyosiy xulosalardan biriga aylandi.

Tarixdan ma'lumki, SSSR davrida eng qudratli kommunistik tashviqot tizimi yaratilib, u har qaysi odamga monopol ta'sir qila olish qudratiga ega edi. Ammo mazkur ommaviy lashgan tashviqot jamiyatning kommunistik shiorlarga nisbatan xalq askiyalarida o'ziga xos qarshilikka uchragan. Boshqacha so'z bilan aytganda tizim "qizib ketdi", o'ziga qarshi ishlay boshladi, ichidan yemirilish boshlandi. Tajovuzkor, totalitar mafkuralarning izi o'zi qayerdan? Milllat ruhiyatini o'tmishda asir olish nimani anglatadi?

Biz bugungi kunni his qilishda, o'zbek fe'l-atvoriga navqironlik baxsh eta oladigan milliy g'oya to'g'risida bekorga jon kuydirayotganimz yo'q. Aslida u yo'naltiruvchi kuch sifatida hech birimizni tark etmasligi va davr bilan hamohang bo'lishini ta'minlashda milliy jurnalistikaning hissasi katta.. ...Chunki har qanday jamiyat, millat, xalqning ravnaq topishida u yashagan davr, makon va zamonda yuzaga kelgan turli holatlar asosiy rol o'ynaydi. Ularni tarixiy-siyosiy jihatdan tadqiq etish davlat axborot xavfsizligining ma'naviy negizlarini tashkil qiladi.

Axborot asri o'zbeklarning tafakkur tarzi, millat xarakterini isloh qilish kabi masalalarni hisobga olish lozimligini yana bir bor ko'rsatmokda. Ushbu konsepsiyaning ijobiy mazmunini aniqlash imkoniyatini beradigan obektiv, tarixiy mezonlari mavjud. Ular ijtimoiy ilmiy texnik taraqqiyotiga xizmat qilishi yoki, aksincha to'siq bo'lishi jihatiga ko'ra ilmiy yoki g'ayri ilmiy bo'lishi mumkinligiga ishonch hosil qilyapmiz.

Bunday paytda ilmiy yondoshuv totalitar tuzumlar va ularning mafkurasi mohiyatini tushunishni, tarix qanday sodir etilgan bo'lsa, xuddi shunday ilmiy o'rganishni va undan kelajak uchun to'g'ri xulosa chiqarishni talab qiladi. XX asr da bo'lib o'tgan urushlar harbiy konfliktlar, mahalliy nizolarlar, jumladan ikkinchi jahon urushi g'alabasidan keyin bo'lib o'tgan 1945-1946 yillardagi Nyurnberg protsessining tahlili asosiy aybdorlar ustidan bo'lgan ushbu sud jarayonidagi ba'zi fikrlar, ayblov larga qayta murojaat qilish, bugungi kun o'zbek xalqi mentalitetiga xos ma'naviyatni shakllantiruvchi muqaddas xotira xususida tushunchamizni imkon qadar to'ldiradi.

...1946 yilning 28-29 avgustida Nyurnbergda Buyuk Britaniyaning bosh ayblov chisi muovini Devid Maksuel Fayfning ma'ruzasi shu gaplar bilan boshlangan edi: "Biz endi natsional sotsializm nemis xalqiga qanday rahbariyat in'om etganiga amin bo'ldik. Biz endi qay tarzda va qay maqsadlar uchun natsistlar partiyasi olmon xalqini dunyoda urushlar va qotilliklar evaziga safarbar qila oldi, butun Germaniyaning natsizmga to'liq taslim bo'ldi. Natsistlar partiyasi va xukumati tomonidan amalga oshirilgan choratadbirlari tufayli butun bir xalqni ma'naviy va

jismoniy taslim bo‘lishiga olib kelguvchi, harbiy tajovuzga tayyor bo‘lgan, fanatic mirshablik davlatini shakllantirishni maqsad qilib qo‘ygan edilar.

Boshqaruvning tezligi, chakuv sistemasining mamlakatdagi fikr va so‘z erkinligini bo‘g‘ishga tayyor va o‘rgatilgan kuchlardan xorijda foydalanish kabi o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan uslublarsiz, tiraniya rivojlanishi mumkin emas. Yana takrorlashim mumkin, biz butun nemis xalqini jinoyatlarda ayplash maqsadimiz yo‘q. Bizning maqsad xalqni himoya qilish va dunyo oldida o‘zini anglab, o‘z do‘satlari xurmatiga sazovor bo‘lishga imkoniyat yaratishdir. Gitlerga sodiq bo‘lgan germaniyaliklar orasida o‘z qo‘llari bilan ko‘plab odamlarni shahid qilgan minglab ayollar va erkaklar bor edi. O‘z fyurerlari da’vat qilgan yomonlik va shafqatsizlikka asoslangan e’tiqodga yuz minglab, yo‘q, millionlab odamlar ko‘rko‘rona inongan edilar”.

Bizning ajdodlarimiz yashagan qizil saltanatda bunday bo‘lmadi deysizmi? Tarixchilarning ta’kidlashicha, o‘sha sharmandali Ribbentrop-Molotov paktining imzolanishidan so‘ng, darhol Stalin Gitlerni hatto “o‘rtoq Gitler” deb ta’kidlagan edi. Bu tarixiy hujjatda ikkita diktator o‘zaro kelishib, taktik hiyla-nayranglar orqali dunyoga hukmdorlik qilishga intilganlar. Qizil imperiya asoratida bo‘lgan O‘zbekiston shu maqsad yo‘lida o‘zining yuzming dan ziyod asl yigit-qizlaridan ayrıldi. Qizil saltanatning dunyoga xukmdor bo‘lishga intilishi, o‘zbek diyoridan olib ketilgan, behisob oltin, paxta kabi boyliklar hisobidan amalga oshishi lozim edi. Ular kuchli tarixiy ildizga ega bo‘lgan xalqimizni Sovet mashinasи orqali yanchib tashlashga zo‘r berishdi. Bu bahaybat arkon zudlik bilan turli dekretlar, qonunlar chiqarish orqali KPSSning respublikalardagi qo‘g‘irchoq hukumatlarni yarata oldi. OGPU va NKVD tizimi orqali har qanday fikr erkinligiga barham berildi. Gitler Germaniyasidagi singari chaquv tizimining vujudga kelishi, turli xil “troyka” va “Osoboye soveshaniye” orqali repressiv tizimlar Lenin-Stalin boshchiligidagi Kommunistik partiyaning asosiy quroliga aylandi. Taassufki, elimizning ilg‘or ziyoli qismi jumladan, mingdan ziyod mo‘tabar ruhoniylari qizil salanatning qurbaniga ayladi. Beriyaning konslagerlarida shahid bo‘ldilar. Hokimiyatning Kompartiya yakkahokimligi qo‘liga o‘tishi natijasida faqat bu partiyaga mos keluvchi qonunlar joriy qilindi.

Tahlillar biz yashayotgan davrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ham shu bo‘lsa kerakki, faqat g‘alabalar ustida ayyuhannos solish emas, balki atrofga, o‘tmishimizga jiddiy nazar solib, chukur mushohada qilish zarurati haqida gapirishni boshladi. Tarixning kuch-qudrati uni faqat raqamlarda ko‘rsatibgina qolmasdan, uning mantig‘i, falsafasini tushunib yetishga intilishda his qilinishi lozim.

Lekin so‘nggi yillarda hokimiyatga intiluvchi fundamentalizm namoyandalari, avvalambor, insonning erkinligini bo‘g‘ib ko‘yuvchi, jamiyat ustidan mutlaq nazorat o‘tkazuvchi bir fikrlik urug‘ini sochishga boshqa shaklda sezildi.

Ammo ajdodlarimiz siyosatining an'anaviy qiyofasi hamisha adolatga, halollikka, istiqlolga intilishi bilan xarakterlanib kelgan. Uning mahalliy xususiyatida bu holat ko'proq bosqinchilardan o'zini himoya qilishda, mahalliy nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishda namoyon bo'lib keldi. Albatta, islomiy qadriyatlarning tariximizga yagona ma'naviy va g'oyaviy kuch o'zbek yerining tili, yozuvi, moddiy va ma'naviy madaniyatini saqlovchi kuch sifatida ijobiy xizmat qilganligini ta'kidlash zarur.

Aslida, islom fundamentalizmini keltirib chiqarayotgan, rag'batlantirayotgan sabablardan biri "Mustamlakachilik" va yangi mustamlakachilik, buyuk davlatchilik shovinizmi va xalqaro munosabatlarda musulmonlarga qarshi zo'ravonlik, "parchalab tashla va xukmronlik qil" qabilidagi siyosatdir. Bunga qo'shimcha o'laroq, iqtisodiy kamsitishni, kalondimog'likni va boshqa madaniyatning, boshqa sivilizatsiyaning, xususan, ko'p asrlik ildizlarga ega, Sharq falsafasining bir qismi bo'lgan islom sivilizatsiyasining fazilatlarini chukur tushunishni istamaslik kayfiyatini ham ko'rsatib o'tish lozim" ta'kidlaydi . Bizlarni tashvishga solayotgan holatlardan asosiysi, insonni kommunistik manqurtlar shaklida uzoq yillar mobaynida o'z iskanjasida tutib kelgan totalitar ma'muriy buyruqbozlik tizimi yemirligandan so'ng, sho'ro mafkurasining salbiy tajribasi va ma'naviy qashshoqligi tufayli zaxm yegan zamondoshlarimizning dunyoqarashi, ruhiyati, siyosiy ongidagi kemtik vakumni to'ldirishga yot g'oyalarning muttasil kiritilishiga zo'r berildi. Yana bir tomoni, kosmik asr bo'lmish o'tgan yuz yillikda beto'xtov mudhish qon to'kilishlarga, vayronlikka olib keluvchi fanatik g'oyalar, qurollangan natsistik bolshevistik totalitar tuzumlar asoratida diniy fundamentalizmning avj olishi yuz berdi. Millat ravnaqi g'oyasiga umuman yot bo'lgan mafkurani tiqishtirish, millat ruhiyatini asir qilishga harakati qalqib chiqdi.

Aslida, madaniy degradatsiya, elitaning madaniy gedonizmi, ma'naviy ruhiy barkamollikni ta'minlay olmaslik kabi salbiy holatlar har qanday davlat axborot tizimi tagiga suv quya boshlaydi. Natijada turli madaniyaxboriy texnologiyalar makon ustidan nazorat o'rnatishda eng qulay va arzon vosita sifatida millatni ma'naviy singdirish, ahloqiy buzish o'z sivilizatsiyasiga nisbatan sovuqqonlik, loqaydlikni kuchaytirishda asosiy rol o'ynashi yaqqollashdi.

Axborot xavfsizligi tushunchasi nafaqat davlatniig axboriy resurslarini, balki fuqarolarining huquqlari va jamiyatning barcha strukturalarini axborot makonidagi himoyasini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasiniig axborot xavfsizligi deganda shaxs, jamiyat va davlatning o'zaro muvozanatlashgan umummilliy manfaatlarni axborot xafvsizligining himoyalanishiga aytimoqda.

Bugun biror davlatning ravnaqi, tinchligi, farovonligi jamiyatning tayanch mexanizmlari bo'lmish iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa jarayonlar taqdiri axborot xavfsizlikni ta'minlashga bevosita bog'liqdir. Axborot milliy strategik resurslaridan biri — mamlakatning boyliklaridan biri hisoblanmokda. Jamiyatning barcha sohalarini axborotlashtirish, shu sohaning yanada taraqqiy etishiga katta

zamin yaratmokda. Lekin shu bilan bir qatorda axborot ijtimoiy sohalardagi jarayonlarning samarali, ko‘zlangan maqsadga yetib borishi uchun axboriy tahdidlar ochiqdan-ochik to‘sqinlik qilmokda.

Zero, aynan axborot orqali biror siyosiy guruhlar, partiyalar, diniy oqimlar, umuman muxolif kuchlar hukumatga nisbatan munosabatni keltirib chiqarishi mumkin. Shaxs televide niye, radio, gazeta, jurnallar, internetdan juda ko‘p ma’lumot oladi va ushbu ma’lumotlar uning ong va ruhiyatiga ta’sir qilmay ko‘ymaydi. Keyinchalik shaxs ongida to‘plangan ma’lumotlar amaliyot sifatida yuzaga chiqa boshlaydi.

Geosiyosiy jihatdan axboriy xavfsizlikka tizimli yondoshuv, uning subekti, obekti, ta’milot qilish muammolari, xavf-xatarlarning manbasi va axborot oqimlarning qaysi tomonga qarab ketayotganligini aniqlashni talab qiladi.

Chunki, axboriy xavf barcha davlatlar milliy xavfsizligiga daxl qilish jarayonlari kuzatilmogda. Ayniqsa so‘nggi yillarda Yevropa ommaviy axborot vositalarida chop etilgan diniy mavzudagi "Karikatura"lar islom olamida musulmon dunyosida antisimetizm, millatchilik, diniy xurofot, xalqaro iqtisodiy, siyosiy munosabatlarni izdan chiqaruvchi juda katta to‘lqinni vujudga keltirdi. Millatlararo totuvlik va tinchlik o‘rnatalishiga to‘sqinlik qilishini islom dunyosi bilan bog‘liq reportajlardan amin bo‘ldik.

Ikkinchidan, axborot urushi biror davlatning ichki, tashqi ishlariga aralashuvi natijasida mamlakatning barcha soxalarida beqarorlikni vujudga keltirib, ko‘p millatli xalqlar o‘rtasida nizo, mojarolarni keltirib chiqardi. Bunday holatlarni sobiq Yugoslaviya va Iroq davlatlari misolida ko‘p kuzatildi.

Geosiyosiy amaliyotda axboriy quronga egalik qilish va undan siyosiy maqsadlarda foydalanish, harbiy strategiyalarni ham tubdan o‘zgartirib yuborish qudratiga ega. Biror davlatga nisbatan siyosiy bosim o‘tkazish uchun avvalo shu davlatga nisbatan axboriy hujum uyushtirish taktikaning o‘ziga xos ifodasi sifatida o‘zini namoyon qilmoqda.

Axboriy qurollar orqali siyosiy shantaj amaliyotiga zo‘r berilmoqda. Natijada, davlat axboriy xuruj uyushtiruvchilarga siyosiy-iqtisodiy tomondan qaram bo‘lib koladi. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy salohiyati jihatidan turli darajada rivojlangan jahon - xalqlari va davlatlari o‘rtasidagi raqobatda geosiyosiy va axboriy omillar muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Mazkur qarashlar ommaviy axborot vositalarining jamiyatning siyosiy jarayonlariga, hokimiyatning faoliyat ko‘rsatish mexanizmi va boshqa sohalarni yoritib borish vazifalariga e’tibor kuchaytirishni taqozo qiladi. Jamiyatda doimiy ravishda yangidan yangi axborot texnologiyalari, vositalar, strukturalarga bo‘lgan intilish kuchayib bormokda.

Bugungi kunda barcha rivojlangan davlatlarning milliy xavfsizligiga tahdid solayotgan "kiberterrorizm" axboriy qurollar ta’sir doirasi kengaytirib yubordi. Kiberterrorizmni amalga oshiruvchilar xakkerlar, troyanlar, viruslar xisoblansa, axboriy kurollarga esa, kishilik jamiyatida davlat tuzumi, siyosati, boshqaruvi va

boshqa jarayonlarga chetdan salbiy ta'sir ko'rsatib, fuqarolarda davlatga, jamiyatga va umuman barcha jarayonlarga norozilik kayfiyati, hatto agressiyani keltirib chiqarish xususiyati bilan namoyon bo'lmoqda.

Bugun axboriy qurollar biror xalq, millatning mentaliteti, madaniyati, ma'naviyati, dini va davlatning axborot-texnologik, xarbiy infro tuzilmalariga destruktiv tarzda salbiy ta'sir ko'rsatadigan maxsus dezinformatsion texnologik vositalarning muayyan tizimidir.

Axborot qurolining ustunlik tomonlarini bu tarzda bayon qilinishi bejiz emas. Masalan, bir ma'lumotni resurslarining ko'pligi, ta'sir kiluvchi manbaga tez sur'atda aks ta'sir ko'rsatishi, ma'lumotlardan tez nusxa olish, manbalarni izlab topish, kayta ishslash, juda muhimligi, katta tezlikda uzoq masofaga uzatish, axborot tashuvchilarni ko'pligi bilan axboriy qurol ulkan ustunlikka ega bo'ladi.

Bundan tashqari axborot vositalarning insonlar, jamiyat va davlatning barcha jarayonlari va strukturalariga, umuman sotsiumga intensiv davomiy tarzda ta'siri kuzatilmokda. Turli mafkura, madaniyat, e'tikodga ega bo'lgan G'arb va Sharq madaniy qatlamlari o'rtasida mojarolarning kelib chiqishi, xalqlar va davlatlar o'rtasida antagonizmning kuchayishi - axboriy raqobatning beto'xtov jarayon bo'lishini ta'minlaydi.

Qayd etish kerakki, dunyoning ma'lum bir "qaynoq nuqtasi" dan reportaj tayyorlayotgan jurnalist qisqa vaqt ichida hududning geografik, tarixiy, diniy, iqtisodiy, madaniy, etnik jihatlarini ko'satib berishi, buning ustiga g'arb siyosiy qarashlariga mos keladigan ohangini berish yo'liga o'tildi. Shunday qilib, jurnalist ayniqsa, telejurnalist kasbi geosiyosatchi kasbi bilan yaqinlashib qoldi. Ommaviy axborot vositalari millatlar taqdiriga ta'sir ko'rsatishga qodir mustaqil geosiyosiy omilga aylandi.

Shu tariqa XX asrda axborot deb atalmish noan'anaviy qurol geosiyosatning muhim aktoriga aylandi.

Axborot bu kuch. Axborot orqali xalqning ongi, madaniyati, mentalitetiga, hukumatning axboriy, siyosiy infrastukturasiga desktruktiv ta'sir o'tkazish mumkin. Axboriy xuruj bu haqiqiy qurolli urushga qo'yilgan birinchi qadamdir. Axborot xavfsizligini ta'minlashning bugungi kundagi dolzarbli shu holat bilan belgilanadi. Insoniyat "axboriy jamiyat" deb atalmish yangi bir davrga qadam qo'yayotgan ekan, axborot xavfsizligini ta'minlash har doimgidan ham zarurdir.

Axborot xavfsizligi tinimsiz axborot xavfsizligining ta'minlanishi uning huquqiy tartib darajasi yuqori saviyada tashkil etilishini talab etadi. Axborot xavfsizligini ta'minlash qay yo'sinda olib boriladi? Yuqorida qayd qinganimizdek, OAVlarida «axborot quroli» va «yangi axborotlar» atamalari tez-tez uchraydigan davrda yashayotirmiz. Axborot quroli «zamonaviy dunyoga egalik qilishning hal qiluvchi omili», «yangi axborot» va «axborot quroli» tushunchalari zamonaviy geosiyosatning muhim tadqiqot mavzuiga aylanmoqda.

Chunki yangiliklar ko'paygani sari mafkuraviy xurujlar xam avj oladi. Bunda geosiyosat televideniye, radio, matbuot, internet asosiy vositaga aylanishini ko'p

ta'kidladik. Ayni, axborotni maqsadli yo'1 bilan buzish yoki umuman yo'qqa chiqarish orqali foyda topish yoki biror narsaning oldini olib qolish imkoniyati kuchaymoqda. Ko'pincha operatorlarning "xatolari", dasturchilarning "yanglishishi", tizimning ishdan chiqishi kabi tushunchalar, axborot qurolini o'zida mujassam qilmoqda. Buzilgan axborot esa asl qiymatini yo'qotishi haqiqatga aylandi.

Davlat axborot xavfsizligini ta'minlashning yana bir jihat - radioelektron tipidagi qurol, dushmanning axborot imkoniyatlarini yo'q qilish uchun yaratilgan dasturli-axborot vositalar kompleksidan iborat.

Hozir davlatlararo munosabatlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan dezinformatsiyalarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Dezinformatsiyalarning maxsus xizmatlarni amalga oshirishda ishlataladigan qurol sifatida qabul qiladigan bo'lsak, sof axborot xavfsizligi qanday tahdid ustida turganligini tasavvur qilish qiyin emas. Axborot quroli bu — axborot massivlarini yo'q qilish, buzish yoki o'g'irlash vositasi, tarmoq tizimini buzib kirish orqali kerakli ma'lumotlarni bilib olish, ularga qonuniy foydalanuvchilarining kirishini ta'qiqlash yoki cheklash, texnik vositalarining ishlarini buzish, telekommunikatsion tarmoqlarni ishdan chiqarish, kompyuter tizimlarini, jamiyatning texnologik extiyojlarini qondirishdagi jarayon va davlat faoliyatining barcha bo'g'inlarini ishdan chiqarishdir.

Zararli g'oyaviy axborotlardan voz kechish uchun g'oyaviy immunitet kuchli bo'lishi kerak. Axborotlashtirish yagona axborot muxitini yaratishga olib keladi, uning doirasida ma'lumotlardan foydalanish, o'rganish, o'zgartirish, saqlash va eng asosiysi — muxit subektlari, odamlar, tashkilotlar, davlatlar o'rtasida ma'lumotlar almashish amalga oshiriladi. Zamonaviy geosiyosiy taxlillarda axborot quroli — xarbiy tizim va fuqarolarning kibernetik tizimlariga ta'sir ko'rsatish uchun axborotlar va axborot texnologiyalardan foydalanish ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Hozirgi paytda bir mamlakatdan ikkinchisiga geosiyosiy maqsadda uzatilgan axborotlar aynan axborot tajovuzkorligi tariqasida ko'rilmoxda. Xususan

Xujum qilish imkoniyatiga ega bo'lgan axborot qurollariga quyidagilar:

- kompyuter viruslari;
- mantiqiy bombalar (dasturli to'siqlar);
- telekommunikatsion tarmoqlarda axborot almashish vositalarini yo'q qilish, davlat va harbiy boshqaruv kanallarida axborotlarni qalbakilashtirish;
- test dasturlarini buzish, ishdan chiqarish;
- obektni dasturli ta'minlashga atayin kiritiladigan turli xil xatolar kiritilmoqda.

Axborot qurolning eng asosiy ustunliklaridan biri — uning boshqa qurollarga nisbatan kam xarjligida deb ko'p ta'kidladik. Axborot urushlariga faqatgina 90-

yillar oxirlarida zo‘r berildi. Axborot urushi deb «Milliy strategiya manfaatlarida axborot ustunlikka erishish uchun amalga oshirilgan va dushmanning axborot tizimlariga ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan amalga oshiriladigan ayni paytda o‘zining axborotlarini himoya qilish xarakatlariga aytilmoqda.

...So‘zsiz bugun internetning ulkan axborot makoniga aylanganiga hech qanday shubha qolmadi. Internet demokratlashtirishning innovatsion omiliga aylanayotir. Internet xizmatlarini rivojlantirish, zamonaviylashtirish, ularni jaxon standartlariga olib chiqish asnosida jamiyatni axborotlashtirish islohatlari avjiga chiqdi. Joylarda hokimiyat organlari faoliyati to‘g‘risida aholi uchun interfaol axborot xizmatlari joriy etilmoqda. Endilikda elektron xukumat loyihasi doirasida axolining hukumat bilan samarali muloqoti tizimini yaratishga o‘tildi. Elektron xukumat tushunchasi bilan birgalikda, elektron tijorat, elektron raqamli imzo, elektron raqamli hujjat kabi tushunchalar intelekt asrining ijobjiy xususiyatlarini namoyon etmoqda, internetning sharofati bilan odamlarda uydan, ishxonalardan chiqmasdan turib turli shartnomalarni tuzish imkoniyati tug‘ildi.

Har bir davlat o‘z Internet tarmog‘ini rivojlanishi infrastrukturasi va kompyuterlashtirishni rivojlantirish yo‘lida qayg‘urishni boshladi. Bu ma’noda AQSH oldingi o‘rinlarda boradi, hozir bu davlatda 12 yashardan yuqori aholining 70 foizi Internetda ishlash imkoniyatiga ega. 2012 yildayoq Yevropa davlatlarida aholining 65 foizi Internetda ishlash imkoniyatiga ega. Internet foydalanuvchilarning soni bo‘yicha Angliyada 27 foiz (6,4 mln.oila), Germaniya 20,7 foiz (7,1 mln oila) Fransiya 12,1 foiz (3 mln oilani) tashkil qiladi. Osiyo davlatlarida ham internetdan foydalanuvchilarning soni oshib bormoqda. Yaponiyada 75 mln. aholi, 78 foiz yapon korxonalari Internetga ulangan. Gongkong, Xitoy, Hindistonda, Isroil kabi davlatlarda internet ja’dal sur’atlar bilan rivojlanyapti. .

Jumladan Internet do‘konlarida bo‘layotgan savdo-sotiq darajasi iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari qatorida qayd qilinmoqda. Undan tashqari uning uzoq masofali o‘qitish, turli telekonferensiylar o‘tqazish, tele tibbiyot, reklama, pochta xizmatini ko‘rsatish kabi istiqbolli xizmat turlari insoniyatga ma’qul kelmoqda. Tabiiyki jamiyat bu tarzda axborot olish vaqtining tejalishi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni mammuniyat bilan qabul qilaboshladi. Ayniqsa axboriy jamiyat qurish bo‘yicha davlat dasturlarining zudlik bilan joriy etilishi axborot olish darajasini, unga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirdi. Chunki yaqin o‘tmishimizda axoliga axborot uzatishni faqat rasmiy tashkilotlar, ijtimoiy-siyosiy institutlar, maxalliy va markaziy xukumatlar tashkillashtirib, boshqarib kelgandi.

Internet esa mazkur an’anani o‘zgartirib yubordi. Bugun internetda har qanday individ axborotni yaratib boshqarish imkoniyatiga ega. Interfaol elektron medialar turkumida portallar, saytlar, bloglar va ijtimoiy tarmoqlar faoliyati tezlashib ketdi. Ayniqsa yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga qiziqish darajasi kundan kunga oshib bormoqda.

Aslida internetning ommaviylashuvini to‘qsoninchi yillarga, ayni OQ Uy saytining ochilgan davriga bog‘lashadi. Onlayn, yani real vaqt rejimida muloqot qila olish imkoniyati millionlab kishilarni sotsial tarmoqlar tomon yetakladi. Dunyoning hohlagan nuqtasidan bir zumda aloqa qila olish imkoniyati ko‘pchilikka mo‘jizaday tuyuldi. Ular katta tezlikda Insonni axborot almashinuv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib qo‘ydi. Bunda sotsial tarmoqlar bamisolli boshpana “sevimli uchrashuv makoni” rolini o‘tay boshladi. Stastistik ma’lumotlarga qaraganda eng katta sotsial tarmoq “Feysbuk” tarmog‘i bo‘lib, hozirda bir milliarddan oshiq faol foydalanuvchiga ega ekan . (2012 yilgi ma’lumotdan) Bu albatta jurnalist, psixolog, jamiyatshunoslar orasida Internetga tobelik xaqida bahs munozaralarining boshlanib ketishiga turtki berdi. Zero Internetning hech qanday chegara bilmas , ko‘zga ko‘rinmas axborotlar oqimi o‘z kuchini ko‘rsata boshladi. Natijada internetga olamiga bunday daxldorlik turli kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, turli ma’no mazmundagi mafkuraviy kuchlarning doimiy ta’sirini sezib yashash ehtiyojini tug‘dirdi. Axborot makonining bunday global tusda tarmoqlashuvi infoetika masalasiga (X.Do‘stmuxammad) yangicha yondoshuvlarni talab qila boshladi. Biz bugun internetning ijobiy va salbiy tomonlariga to‘la tekis baho bera olamizmi? Butun jahon o‘rgimchak to‘ri fenomeni borasidagi bahs munozaralar qachondan boshlandi o‘zi? Aslida yakuniy xulosaga keladigan davr yaqinmi? Ilmiy jamoatchilikda savollarning bu tarzda qo‘yilishi bejiz emas. Zotan yuqoridagi ilmiy ma’lumotlar uni bugun - kundan kunga jamiyat xayotiga yanada ko‘proq ta’sir ko‘rsata olishi qudratiga ega bo‘lgan axborot manbai aylanganini tasdiqlamoqda.

Bunday paytda Butunjahon o‘rgimchak to‘ridan ishonchli va sifatli axborot tanlash muammosi qalqib chiqadi. Internetdan noto‘g‘ri foydalanishning zararli illatlari haqida munozarali izlanishlar, tadqiqotlar boshlandi, maqolalar yozilmoqda. Ularda jamiyatning psixologik xolatiga salbiy tasir etuvchi, ijtimoiy, milliy, diniy-etnik kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi, zo‘ravonlik va maishiy buzuqlik, shaxslar mavqeiga, obro‘siga va sha’niga salbiy ta’sir etuvchi axborotlarni chegaralashning ma’naviyruhiy meyorlari xaqida tahlillar muntazam berila boshlandi .

Bu borada jahon siyosatida gegemonlikka intilish bilan ochiq jamiyat qurish g‘oyalarning birbirini qo‘llab quvvatlab boruvchi zamonaviy tendensiyalari (aslida birbirini inkor etishi kerak) internetning axboriy ta’sirdagi qudratini aniqroq ifodalab bersa kerak. Bugun masalan internetda terroristik xuruj metodlari xaqidagi maxsus texnikaviy axborotlarga duch kelish mumkin. Aslida bu tarzdagi axborot qo‘lbola sharoitidagi oddiy portlovchi moddalarni tayyorlashga imkoniyat yaratib berayotir. Shuningdek Markaziy Afrika, Yaqin Sharq mamlakatlari, Rossiyaning Shimoliy Kavkaz respublikalaridan berilayotgan terrorchi to‘da raxbarlarining bayonotlari keng auditoriyaga aynan internet tizimi orqali yetkazilmoqda. Shu tariqa Internet terrorchilarining aholiga kuchli psixologik ta’sir o‘tqazuvchi vositasiga aylanayotir.

Albatta kambag‘al dunyo, ocharchilik, inson huquqlarining qo‘pol tarzda buzilishi bilan bog‘liq noteng vaziyat olovga yog‘ sepish samarasini berayotganligini ta’kidlashimiz kerak. Endilikda ekstremistlar inson psixologiyasida xozirgi mazkur notenglikdan kelib chiqadigan hasadli, g‘azabli- agressiv tuyg‘ularidan unumli foydalanish yo‘liga o‘tib olishdi. Jiddiy razm soladigan bo‘lsak, o‘ziga to‘q G‘arb dunyosida ham kambag‘al rivojlanish yo‘lidagi ayrim osiyo-afrika mamlakatlarida ham parallel biri biriga o‘xhash axboriy tendensiyalar namoyon bo‘lmoqda. Ayni Yevronyusning telexabarlariga qaraganda hatto skandinav davlatlarida ksenofobiya- radikalizm bilan bog‘liq yoshlar xarakati jonlanib qolgan .

Demak Internet boshqa ommaviy kommunikatsiyalar qatorida mintaqaviy majorolar bo‘yicha ijtimoiy-siyosiy rezonansni kuchaytirib yuborishi mumkin. U zo‘rovonlikning yangi shakllarini nomoyon qilishni boshladi. Ayni paytda anonim kiber xujumlar rivojlangan davlatlar hayotida xaos, boshboshdoqlik, vahimaga tushirishni maqsad qilib qo‘ymoqda. Kompyuter tarmoqlariga, aloqa tizimlariga, avia liniyalar kabi davlatning muhim tuzulmalariga xakerlarning xuruj qilishi bir zumda jamiyatda sarosimalikni keltirib chiqaradi. Yangi axborot texnologiyalarining taraqqiyoti ana shu holatga olib keldi.

Bugun internet tarmog‘ida o‘z joniga qasd qilishning oson yo‘llarini targ‘ib qiluvchi 9 mingta, erotik mazmundagi 4 mingtadan ziyod saytlar mavjudligi ko‘pchilikni tashvishga solmoqda. Kompyuter o‘yinlarining deyarli yarmiga yaqini zo‘ravonlik va yovuzlikni targ‘ib qilayotir, 42 foiz bolalar va o‘smirlar onlayn tizimi orqali tarqatiladigan pornografiya ta’siriga butunlay qaram bo‘lib qolgan. Xalqaro ekspertlar dunyo miqyosida 38 foiz bola millatchilik tusidagi veb sahifalarini muntazam kuzatib borishini aniqlashgan. Yoshlarda odamovi, okultizm, sadizm, suidsidlikka berilish odatiy voqealikka aylanib kolganligi aytishimiz kerak. Internetga tobelik- jahon yoshlari psixologiyasida oddiy oilaviy, ota-on- farzand munosabatlari, kitob mutola qilish madaniyati, diniy-milliy kadriyatlarga munosabatlar sovuqlashib, begonalashish tendensiyalari kuchaytirib yubordi. Demak Internet olami bilan bog‘liq bunday noxush voqeliklar barqaror axboriy jamiyat to‘g‘risida mutloqo yangi qarashlarni ishlab chiqishimizni talab etadi. Axborot xavfsizligini ta’minalash esa vaqtি kelib mazkur ilmiy konsepsiylar geosiyosiy darajadagi masalalarni hal qilishdagi roli bilan aniq ifodalanadi. Binobarin Internet orqali mafkuraviy ta’sir va taziyiq o‘tkazish davlatning eng asosiy geosiyosiy potensiali bo‘lmish – milliy mentalitet, madaniyat, odamlarning ahloqiy etiqodi, mustaqil pozitsiyasini o‘zgartirib tashlash qudratiga egadir.

Buni arab dunyosi bilan bog‘lik yoshlarning vayronkor, tajovuzkor hatti-harakatlari borasida berilgan axborotlardan ko‘p amin bo‘ldik. Mazkur noxush axborotlar ommaviy muloqot fenomeniga munosabatimizni o‘zgartirib yubordi. Chunki dastavval norozilik bilan chiqqan yoshlar “Tvitter” va “feysbuk” vositasida uncha katta bo‘limgan tayanchga ega edilar. Lekin ayni tashqi manfaatdor kuchlar tomonidan tilga olingan tarmoqlarda maxsus “arab bahori” uchun targ‘ibot

saytlarning yaratilishi bilan siyosiy ahvol beqarorlik va notinchlik sari yo‘l oldi, vaziyat butunlay o‘zgarib ketdi. Bu bilan «Feysbuk, tvitter yoshlari davri» yoshlarning dunyoqarashida o‘ziga xos chalkashliklar va murakkabliklar davrini boshlab berdi. Shu tariqa Internet orqali barqaror axboriy vaziyatga salbiy ta’sir o‘tqazish, uning shiddatli taraqqiyoti esa inson ongini manipulitsiyalashga jiddiy daxl qilish masalasini dolzarblashtirishni kun tartibidan o‘rin olmoqda. Zotan, millatning istiqboli – bu ayni globallashuv shiddati talablarini tushuna olgan va anglagan yoshlarning dunyoqarashida aks etadi deb ta’kidladik. Internet orqali shakllanayotgan ijtimoiy-ilmiy muhit ham mazkur jarayonlarning bevosita ta’sirida bo‘lishi kutiladi. Ana shundagina axboriy barqaror jamiyat qadriyati o‘z qudratini namoyon qiladi. U har qanday davlatning axborot xavfsizligini ta’minlashda ustuvor yo‘nalish vazifasini o‘tash kerak bo‘ladi.

## 2 GEOSIYOSIY MUNOZARA MUAMMOSI

So‘nggi paytlarda siyosatchi va jurnalistlarning chiqishlarida “geosiyosiy manfaat”, “geostrategiya”, “geosiyosiy mojaro” kabi atamalar teztez tilga olinmoqda. Geosiyosatning urf bo‘lishiga va uning rivojlanishiga globallashuv jarayoni, dunyoning ikki qutblilik tizimining o‘zgarishi va ko‘p qutblilikning shakllanishi, uning oqibatida sayyorada yangi markaziy kuchlarning paydo bo‘lishi kabi omillar tasir qilmoqda.

Bugun jahon hamjamiyati davlatlararo munosabatlarning eng yaxshi shakllaridan biri sifatida dunyoning ko‘p qutblilik tizimini joriy etish yo‘lida harakat qilmoqda. Ayni shu holat sayyoradagi kuchlar nisbatining o‘zgorganiga qaramay, haqiqiy ko‘p qutblilik falsafasi xalqaro miqyosda qarorlarning bir yoki ikki kuchli davlat tomonidan emas, balki butun dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilinishini talab etadi. Ayni globallashuv jarayoniga bog‘liq bo‘lgan o‘zaro aloqadorlik darajasi yanadaadolatliroq va insonparvar dunyoning shakllanishiga imkon yaratishi kerak. Bu o‘rinda jurnalistika turli global jarayonlarni o‘zaro bog‘lovchi muhim bir qatlam xisoblanadi. Jurnalistlarning faoliyati bevosita xalqaro munosabatlar tizimining ishtirokchilari sifatida, BMTning insonparvarlik va demokratiya tamoyillariga javob beruvchi dunyoning ko‘p qutblilik tizimini targ‘ib qilishda muhim o‘rin egallaydi.

*Geosiyosatning ayni shu islohotlardagi pozitsiyasi OAVning ishtirokisiz sodir bo‘lmaydi. Yuqoridaagi faslda biz yangiliklarni tahlil qilish orqali dunyo siyosat maydonidagi dinamikani kuzatish mumkinligini qayd etgan edik.* Geosiyosat va jurnalistika fani esa talabalarni xalqaro geosiyosatning nazariy asoslarini, murakkab axboriy qarama-qarshi globallashuv sharoitlarida uning rivojlanish tendensiyalari va yo‘nalishlarini, axboriy-mafkuraviy sohani o‘rganishga yo‘naltiradi. Aslida siyosiy nuqtai nazardan olib qaraganda OAVning eng muhim jihatlaridan biri bu axborotni ochiq haqqoniylig asosida, real dunyoning virtual ko‘rinishi sifatida berishdan iborat. Zero, global axboriy muhit sharoitida xalqaro

jurnalistdan olingan axborot siyosiy qarorlarning turli pozitsiyalarda qabul qilinishiga asos bo‘lmoqda.

XX asr oxirlariga kelib, geosiyosat dunyoning mavjud va shakllanayotgan siyosiy tizimi, uning tuzilishi, institatlari va jarayonlarini o‘rganuvchi mustaqil ilmiy va o‘quv predmeti sifatida tan olinishga erishdi. Unga jurnalistikada geosiyosiy munozara muammosining dolzarblashuvi kuchli ta’sir o‘tkazdi. “*Globallashuv*”, “*global axboriy makon*” kabi atamalarning muomalaga kirishi esa zamonaviy dunyoning siyosiy jarayonlari va ularning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish avvalgidek uzoq va tushunarsiz emas, balki muhim masalaga aylantirdi.

Geosiyosiy jarayonlarning turli davlat va xalqlarning strategik kelajagi uchun ahamiyatliligi va o‘zaro aloqadorligi nuqtai nazaridan o‘rganish muhim jihatlari bilan xarakterlanadi. Natijada u jurnalistlarga global axboriy makonda sodir bo‘layotgan voqealar rivojiga ta’sir o‘tkazuvchi turli xil geosiyosiy omillarni inobatga olgan holda ko‘rish, tahlil qilish va baho berish imkoniyatlarini bermoqda. Jumladan, davlatlar manfaatlari, kuchlar muvozanat, harbiy imkoniyatlar, iqtisodiy va tabiiy resurslar, mamlakatlarning geografik joylashuvi, axborot oqimlari, milliy g‘oya va shu bilan birga davlat tuzilishlari, sivilizatsiya xarakteri, xalqaro konfliktlarning darajasi, o‘ziga xosliklari va boshqa ko‘p jihatlar geosiyosiy munozara uchun muhim mavzularga aylandi.

Shu tariqa *jurnalistika geosiyosiy uslublar bilan boyitilish barobarida geosiyosiy omillardan biriga aylanadi, chunki zamonaviy sharoitlarda geosiyosiy “o‘yin”lar jurnalistlar berayotgan axborot va ular egallagan pozitsiya orqali qaysidir darajada OAVda amalga oshiriladi.* OAV geosiyosiy maydon va geosiyosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bugun globallashuv jarayoniga qadam qo‘ygan insoniyat jamiyatga mavjud holatlardagi to‘g‘ri yo‘nalishlarni tanlashda OAVning faol yordamiga muhtoj. Biroq turli ijtimoiy guruhlar, shuningdek ular tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan OAV ham globallashuv jarayoniga turlicha baho beradilar. Bunday sharoitlarda turli geosiyosiy konsepsiylar doirasida mavjud qarashlar va ularning harakatini o‘rganish favqulodda muhim jihatga aylanadi.

Bizningcha geosiyosat - jurnalist uchun global miqyosda o‘zaro aloqador bo‘lgan geografik, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, mafkuraviy omillarni inobatga olgan holda zamonaviy dunyoga yanada tanqidiroq yondoshish imkonini beruvchi, xalqaro munosabatlar va ijtimoiy reallikning tahlili uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Ayni paytda OAVning zamonaviy hodisalarga geosiyosiy yondoshuvi - BMTning asosiy hujjalarda tarannum etilgan insonparvarlik va demokratik tamoyillar, umuminsoniy qadriyatlar bilan jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning o‘zaro bog‘liqlik jihatlarini o‘rganish va ularga baho berishni talab etadi.

*OAVda geosiyosiy obrazlarning o‘rganilishi XX asr oxirlariga kelib boshlandi. Ta’kidlash joizki, bu borada izlanishlarning ko‘p qismi geosiyosiy konsepsiyalarga emas, balki OAVda mavjud geosiyosiy obrazlarga bag‘ishlangan.*

OAV shakl va yo‘nalishlariga ko‘ra o‘ziga xos tarzda voqea, fakt va hodisalar uzatilib boradi. Bu tabiiy hol. Lekin faktlar saralanishining o‘zi pozitsiy. Shuning uchun OAV ijtimoiy axborotni yetkazib beruvchi kanallar xolos, degan fikr to‘g‘ri bo‘lmaydi. Zamonaviy murakkab, qaramaqarshi va turli qarashlar mavjud bo‘lgan bugungi jamiyatda o‘zaro aloqalar kompleksi bu – ijtimoiy muloqot, ijtimoiy kommunikatsiya jarayonidir. Ijtimoiy omillar va jamoaviy psixologiya rolining ortishi ommaviy kommunikatsion jarayonlarni inobatga olishni taqozo etadi. Oxirgi yillarda ijtimoiy axborotning nazariy mazmuni tobora chuqur va komplekslashib bordi, shunga qaramay, tadqiqotchilar uning asosiy ijtimoiy boshqaruvdagi roliga urg‘u berdilar. Ammo ijtimoiy axborot atamasi axborotning tarqatilish jarayoni ya’ni axborotlashuvni qamrab olmaydi. Ijtimoiy axborot – ijtimoiy kommunikatsiyaning tarkibiy jihatni hisoblanadi. Kommunikatsiya jarayoniga jalb etilgan ijtimoiy axborot - axborotlarning yig‘ish vositalari va kanallarini qayta ishslash, tarqatish va saqlashga bevosita bog‘liq bo‘ladi va o‘zaro ta’sirga kirishadi.

Oxirgi vaqtarda qarshi aloqa – ommanning ko‘rgan va eshitganlariga berayotgan javob tarziga ko‘proq e’tibor qaratila boshlandi. OAVning monopolashuv jarayoni, yirik matbuot konsernlarining hatto o‘z hoxish irodalarini boshqa nashrlarga ham o‘tkazish kuchiga ega bo‘lishiga olib keladi. Zamonaviy texnik ta’midot va kuchli ma’naviy resurslar bilan ular uncha katta bo‘lмаган yoki o‘rtacha nashrlar bilan raqobatda osongina yutib chiqishlari mumkin. Ko‘pgina hollarda birgina tahdidning o‘zi zaif tomonning raqobatda kuchli tomonga yon berishiga olib kelmoqda. Shu tarzda sog‘lom demokratiya uchun ommanning fikri, ongi va hatti-harakatini boshqarish jiddiy xavf tug‘diradi. Ommanning dunyoqarashini siyosiy maqsadga yo‘naltirish, shakllantirish va boshqarish bugungi kunda real amaliyotda kuzatiladi. Chunki zamonaviy boshqaru manipulyatorlari jiddiy tarzda oshkora yoki berkitilgan maqsadga yo‘naltirilganlik bilan harakat qilin xususiyatiga ega.

*Manipulyatsiyaning eng samarali vositalari bu bosma va elektron OAV, ya’ni gazeta va jurnallar, radio, televideniye hisoblanadi. Bu vositalar tadqiqotchilarning qayd etishicha “odamlarning siyosatga munosabatini boshqarish- ularni shu tizimga bo‘ysunishga majbur qilish, hech bo‘lмаганда uni qo‘llab-quvvatlash maqsadida bo‘ladi, bu odamlar kim bo‘lishidan qat’iy nazar – shu davlatning fuqarolarimi yoki chet elliklarmi, shu bilan birga boshqa davlatlar rahbarlarini ham” boshqarish uchun qurol vositasini o‘taydi.*

Dunyoning zamonaviy holatini aks ettirish bilan birga OAV geosiyosiy maqsadlarga erishish yo‘lida muhim rol o‘ynamoqda. Gap siyosatchilar, yirik kapital egalari, akademik tadqiqot doiralari, matbuot va keng jamoatchilik

o‘rtasida bog‘lovchi ko‘prik vazifasini ham bajarish to‘g‘risida ketmoqda. Ma’lumki, sovuq urushning yakunlanishi yetakchi davlatlarning xalqaro munosabatlariga doir yangi munozaralarni boshlab bergandi. Hozir Sovet imperiyasining tanazzuli tufayli dunyoning dramatik tarzda o‘zgarib ketganini ko‘rish uchun boshlang‘ich maktab devorlarida osilib turgan xaritalarga qarashning o‘zi kifoY. Yangi suveren davlatlar paydo bo‘ldi. Bir-birini yo‘q qilib yuborishga harakat qilgan eski dushmanlar endi hamkorlik qilish yo‘llarini izlamoqdalar. Ularda bozor iqtisodiyoti, demokratik qadriyatlar va erkinlikning afzallik tomonlaridan foydalanish yo‘liga o‘tilmoqda. Sun‘iy yo‘ldoshli televideniye, ipak tolali optika, kompyuterlar va videoyozuvlар ommaviy diplomatiyani yangi bosqichga olib chiqdi.

Tadqiqotlarda sotsialistik tartibotning parchalanishida asosiy rolni o‘ynagan “Amerika ovozi”, “Ozod Yevropa” radiosи va “Uorldnet” televideniyesи kabi institutlarining haqiqat, ozodlik, tinchlikka intensiv chorlovlari tufayli totalitar tuzumlar barbod bo‘lganligi xususida uzil kesil xulosalarga kelindi. Bugun esa “Yevronyus.”, “Al- Jazira”, TRT turk, RTR, ORT kabi telekanallar shiddatli tarzda axborotning raqobatlashuvini ta’minlamoqda. Internet jurnalistikasi ham o‘ziga xos axborot globallahuviga ta’sir o‘tkazmoqda.

Ma’lumki siyosiy ekstremizm hali hech qachon barqaror, ijobjiy natijalarni bermagan. Inson huquqlariga rioya qilingan va xalq farovon hayot kechiradigan davlatda separatizmning paydo bo‘lishi mumkin emasdek tuyuladi. Siyosiy amaliyot tajribasi uning tahdidi mavjudligini tasdiqlamoqda , bunday holatlar ma’lum geosiyosiy maqsadlarlarga erishishga imkon yaratmoqda. Oldin yirik davlat bo‘lgan mamlakatlar qancha mayda bo‘laklarga bo‘linib barpo etilgan bo‘lsa, dunyoni boshqarish shuncha oson bo‘ladi. “Bo‘lib tashla va xukmronlik qil” – mustamlakachilikning ushbu shiori yana qo‘lga olinib, g‘arbning yetakchi davlatlar tomonidan nazorat qilinuvchi OAVning bugungi amaliyotlarida qo‘llanilmoqda. OAVdan geosiyosiy manfaatlarda foydalanish OAVning o‘zida etnik, milliy va diniy murosasizlikning paydo bo‘lishiga olib keladi. Shunday tarzda tolibonlar Afg‘onistonda umuman TV, kino, gazetalarni ta’qiqlab qo‘ygan edilar, “Tolibon” harakati nazoratida faqat radio qolgan edi xolos.

Zamonaviy siyosatshunoslar millatchilikni siyosiy tamoyil sifatida keltirib, uning mazmuni siyosiy va iqtisodiy birliklarning bir-biriga mos kelishida ekanligini aytishmoqda. Boshqacha qilib aytganda, millatchilik tamoyili etnik guruhlarning ham o‘z hukmronliklariga ega bo‘lishlarini talab etadi. Shu bilan qatorda ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyalardan ko‘pgina chet mamlakatlarda manipulyativ tashviqot uslublaridan ham foydalaniladi.

*Shu tariqa, so‘nggi yillarda, OAVining geosiyosiy roli yaqqol ko‘zga tashlanmoqda, ayniqsa jurnalistikaning turli "rangli inqiloblar"da ishtiroki jiddiy sezilib qoldi. Avvalroq bu , Vengriya, Chexoslovakiya, Boltiq bo‘yi, Shimoliy Afrika singari mamlakatlardagi jarayonlarda sezilarli rol o‘ynagandi. Natijada*

*geosiyosiy nazorat siyosiy jurnalistikada demokratiyani chiqurlashtirish g‘oyasi bilan oldinga qadam tashlay boshladi.*

Bunday sharoitda OAV institutlari orqali demokratiyani ilgarilatish niqobidagi tahdidlar halqaro maydondagi turli siyosiy kuchlar tomonidan ongli ravishda, uzoqni ko‘zlab amalga oshirilayotganini ta’kidlash lozim. Yangi axborot asrida erkinlik, demokratiya, inson huquqlari kabi jozibali g‘oyalarni niqob qilib olgan bu siyosiy kuchlar shu asosda dunyodagi xohlagan mustaqil davlatning ichki ishlariga aralashib, geosiyosiy nazoratni kuchaytirishga erishmoqchi bo‘ladi. Shuning uchun ham bunday tahdidlardan ko‘zlangan maqsad ayrim qudratli davlatlar tomonidan muayyan mamlakatlarni iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan tobe qilishi, endigina rivojlanib kelayotgan milliy davlat va hududlarning yer osti hamda yer usti boyliklarini egallab olish, dunyoning ba’zi mintaqalardagi tinch hayotini izdan chiqarib, bu yerlarda aynan qudratli davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarni hokimiyat tepasiga keltirish kabi salbiy jarayonlarni yuzaga keltirishdan iborat ekanligini anglash va unga nisbatan g‘oyaviy qalqon tizimini ishlab chikish milliy jurnalistikamizning dolzarb mavzusiga aylandi.

Ikkinchidan, demokratiya niqobidagi axboriy-mafkuraviy tahdid mustaqil davlatni o‘zga bir davlatga qaram qilishga qaratilgan xavfxatardir. Bunday davlat suverenitetiga ko‘plab tahdidlarni misollar keltirish mumkin. Demokratik jamiyat qurish bahonasida Iraq, Suriya, Liviya kabi mamlakatlarda hamon urush alangasi o‘chgani yo‘q.

*Ayniqsa, bunday paytda, chetdan bo‘ladigan "mehribonchilik"larni hamma vaqt ham beg‘araz deb bo‘lmaydi. Erkinlik va demokratiya niqobi ostidagi intilishlarni ham, OAV orqali zo‘r berib oldinga surish holatlari sezilmoqda, ularning zararli mohiyatini darhol anglab olish qiyin bo‘lmoqda.* Tadqiqotlar OAVlarda “geosiyosiy mehribonchilik” ko‘pincha quyidagi usullar qo‘llanilganligi to‘g‘risida ko‘p qayd qilinmoqda:

- ya’ni birinchi navbatda - muayyan geosiyosiy nishondagi davlat uzliksiz va izchil ravishda halqaro miqyosda yillab tanqid qilib boriladi, natijada — mustaqil davlatning rahbariyatni demokratiyani xush ko‘rmaslikda ayplash jarayoni boshlanadi;

- ushbu mustaqil davlat fuqarolari orasida manfaatparast, soxta demokratiya g‘oyalariga, aldanishga moyil odamlar guruhi shakllantiriladi;

- boylikka o‘ch hokimiyatparast ayrim kimsalar bilib-bilmay bunday g‘arazli siyosiy kuchlarga xizmat qila boshlaydi, ular arzimas muammolarni ham yirik muammo sifatida ko‘rsatib, ayuhannos solishadi;

- vaqt o‘tib, ma’lum bir sharoitlar yetilgach, "rangli inqilob" qilinib, hokimiyat tepasiga betayin xalq, Vatan manfaatlaridan begona, aksincha yot

*manfaatlarga xizmat qiladigan siyosiy kuchlardan ko‘tarilishi ta’minlanganligini so ‘nggi kuzatuvlar tasdiqladi.*

Bularning barchasi tadrijiy ravishda, shov-shuv ko‘tarilmasdan zimdan bamisoli tabiiy rivojlanish zarurati shuni taqozo etayotgandek amalga oshirilmoqda. Qizig‘i shundaki, bu g‘arazli siyosiy o‘yinga manfaatdor geosiyosiy markazlar qani, nima bo‘lar ekan, voqealar rivoji bizning foydamizga ishlasa ko‘shilamiz, bo‘lmasa, tinch turganimiz ma’qul, degan qoidaga amal kilib, shunchaki tomoshabin bo‘lib turish holatlari kuzatildi. Turli grantlar vositasida o‘z harakatchilarini moliyaviy ta’minalash, zaruratga qarab, ularning faoliyati zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlab borildi. Bunday siyosiy kuchlarning ommaviy axborot vositalari istalgan vaqtida dunyoning har qanday davlatiga yetib bora oladi. Zero mazkur yunalishda xizmat kilayotgan jurnalistika uchun muayyan mablag‘, sharoit va imkon - barcha-barchasi muhayyo qilinmoqda.

Ayni siyosiy yunalishdagi ommaviy axborot vositalarida oldinga surilgan xatti-harakatlar, g‘oyaviy, moliyaviy, tashkiliy-seminar omillarning birgalikdagi qudratli kuchi orqali real hayotga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan soxta g‘oyalar ham sodda va ishonuvchan, mafkuraviy immuniteti to‘la shakllanmagan insonlar nazarida bamisoli haqiqatga o‘xshab ko‘rina boshlaydi. Natijada bunday salbiy holatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun OAV lari doimiy hushyorlik va ogohlik, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni ilmiy asosda dunyodagi real holatlardan, mafkuraviy kurash talablaridan kelib chiqqan holda olib borish zarurati seziladi.

Xullas OAV orqali mo‘ljalga olinadigan demokratiya niqobidagi geosiyosiy tahdidlarning mudhish oqibatlari keng ko‘lamdagи hech narsa bilan o‘rnini qoplab bo‘lmaydigan ma’naviy-ruhiy zarar bilan dahshatlidir. Bunday geosiyosiy taktikaning asosiy ko‘rinishlari haqida gapirganda, kuyidagilarga alohida to‘xtalish o‘rinli bo‘ladi.

1. Muayayn geosiyosiy maqsadlarni ko‘zlaydigan kuchlar erkin turmush tarzi, iqtisodiy ma’murlik va farovon hayot vada qiladi. Bunday jozibali va’dalar har qanday sodda kishini o‘ziga jalb kiladi. Ayniqla, rivojlanayotgan va o‘tish davridagi davlatlarning fuqarolari bunga tez ishonib qoladi. Shu ma’noda, demokratiya niqobidagi tahdidning birinchi zarari mustaqil davlatning fuqarolari ongini yolg‘on va’dalar bilan chalg‘itishdir.

2. Aksariyat holatlarda OAV da demokratiya niqobi bilan geosiyosiy manfaatlarni oldinga surish dunyoqarashi hali to‘liq shakllanmagan odamlar, avvalo yoshlarni ma’naviy jihatdan majruh qiladi. Chunki yolg‘on va’dalarga ishongan odamda o‘z Vatani, xalqi va jamiyatiga nisbatan ishonchsizlik paydo bo‘ladi. Ularda fidoyilik, tashabbuskorlik va mehnatsevarlik ishtiyoqi asta-sekin so‘nib boradi. Eng yomoni - shaxsda o‘z jamiyatida o‘zini yolg‘iz sezish ruhi paydo bo‘ladi. Bu esa jamiyatda parokandalikka sabab bo‘lib, birlik va birdamlikka putur yetkazadi.

Demak OAVning geosiyosiy manfaatlarni oldinga surishi "Erkinlik va demokratiyani olg‘a siljitish" degan doktrina asosida sobiq sho‘ro hududida

g‘oyaviy-axboriy tahdidlar avj olgan paytda ko‘zga tashlandi. Bugun, oradan ancha vaqt o‘tgach, OAVning geosiyosiy maqsadlari uchun oldinga surilgan ana shu inqiloblar mazkur mamlakatlar aholisi uchun yangi-yangi muammo va tashvishlardan boshqa hech narsa bermadi. Buni o‘sha mamlakatlarda kuzatilgan quyidagi mavhum siyosiy jarayonlar ham tasdiqlab turibdi. Biz bu haqda keyingi fasllarda “rangli texnologiyalar” mavzusini yoritganda bat afsil gaplashamiz.

Shunday qilib, OAV institutlari orqali demokratiya niqobidagi g‘oyaviy ta’sir o‘tkazishning zararli oqibatlari shu qadar dahshatliki, ular milliy mentalitetni, o‘zlikni va Vatan taqdirini og‘ir ahvolga solib qo‘yish mumkin. Bularning barchasi milliy jurnalistika oldiga "yana va yana bir bor halqimizning ma’naviy olamini bunday tahdidlardan asrash, hozirgi o‘ta murakkab bir zamonda halqaro maydonda sodir bo‘layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga yetib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo‘lish butungi kunning eng dolzarb vazifasi"ni o‘ta dolzarblashtiradi.

YA’ni, jurnalistikada geosiyosat bilan bog‘liq so‘z erkinligi va siyosiy barqarorlik, suverenitet, suveren demokratiya kabi tushunchalarning dolzarblashuvi;

*-Katta siyosiy o‘yinlarda yetakchi davlatlar tomonidan OAV orqali siyosiy manipulyatsiya qilishning yangi usullarini joriy etila boshlanishi;*

*-Geosiyosiy da’volar ta’sirida OAV orkali muayyan milliy-hududiy auditoriyaning ijtimoiy ongini mo‘jalga olish;*

*- Yetakchi telekanallar va yangi mustaqil davlatlardagi ijtimoiysiyyosiy vaziyatning taranglashuvi, OAV orqali axborotni manipulyashtirish yohud boshqarish, axborotni sohtalashtirish, uni haqqoniy axborot sifatida bir yoqlama yetkazish, o‘z manfaatlarini singdirgan holda axborotni tahrir qilish;*

*-Manipulyatorga foydali tomonini hisobga olgan holda axborotni taqdim etish, tashviqotda “aqlni yuvish” degan ta’sir o‘tkazish texnologiyasining yuzaga kelishi, stereotiplardan foydalanish;*

*-Harbiy senzura va g‘arbdagi demokratiya muammolari, matbuot bilan ishlashning xorijiy uslub va shakllari, Iroq, Shimoliy Kavkaz, Panama, Vietnam, Afg‘on mojarolari kabi xalqaro konfliktlarda jamaot tashkilotlarining harbiylar faoliyati ustidan nazarat etish muammolari, qonuniylik, tanqid va oshkoraliq tamoyillari, ikkilamchi standartlar, demokratiyani olg‘a surish da’volari va milliy, mintaqaviy barqarorlikni ta’minalash muammolari;*

*-Ayrim mintaqalarda ekologiya muammolarni OAVda tarafkashlikka yo‘l qo‘yilib yoritilishi, uning oqibatlari, katta siyosat va mintaqaviy ekologik muammolarni OAVda yoritishning zamonaviy tendensiyalari, sog‘lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, davlatlararo munosabatlarda do‘sона, erkin, o‘zaro ishonchga asoslangan demokratik qadriyatlarni hurmat qiladigan muhitni shakllantirish;*

*-Yetakchi davlatlarning jahon siyosatida liderlikni qo‘ldan boy bermaslikka harakati, mazkur jarayonlarni OAV orqali o‘z madaniyatini ko‘z-ko‘z qilish tamoyili bilan oqlashga urinishi kabilar geosiyosiy tendensiyalar bilan namoyon qilish boshlangan.*

Xulosa kilib aytganda, OAV orqali geomafkuraviy maqsadlarni oldinga surish, axboriy makonda geosiyosiy raqobatning ustuvor yo‘nalishlari, axboriy qarama-qarshilik, axborot assimmetriyasi, axboriy ustunlik, axboriy qarama-qarshlikning obektlari, axboriy qaramaqarshilikning subektlari, davlatlar, ittifoqchilar va koalitsiyalar, halqaro tashkilotlar, nodavlat noqonuniy harbiy birlashmalar, terroristik, ekstremistik, diniy radikal, siyosiy radikal yo‘nalishdagi tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar, virtual ijtimoiy jamiyatlardan kelayotgan axborot tahdidlarini anglash va ularga munosabat bildirish geosiyosat va jurnalistikaning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga aylantiradi.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Geosiyosat va jurnalistika yo‘nalishidagi tadqiqotlarni tubdan yangilash falsafasini qanday tushundingiz?
2. Zamonaviy axborot makonining geosiyosat bilan bog‘liq ta’rifini bering.

**3-MAVZU. MDH mamlakatlari bilan munosabatlarining siyosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro mintaqaviy tashkilotlar tizimida. Siyosiy vaziyatning mohiyatini aniqlash va tahlil qilish.**

Reja:

1. Mavzuni yoritishda axborotlashgan jamiyat va radikalizmning yangi qiyofasi

*Tayanch so‘zlar: radikalizm, axborotlashgan jamiyat, erkinlik,*

## **1. AXBOROTLASHGAN JAMIYAT VA RADIKALIZMNING YANGI QIYOFASI**

OAV instituti siyosiy jarayonlarga qanday va qay tartibda ta’sir o‘tkazadi? tartibidagi savollar yangi axboriy jamiyatning muhim mavzusidir.

Aslida axboriy jamiyatning yutuqlari haqida gap so‘zlar bugungi kunda yangilik emas. U haqda dastlabki tasavvurlarni bergan kunchiqar mamlakat olimining (Y. Xayashi) axborot jamiyati istilohini kiritganiga ham yarim asrdan oshibdi. Bugun fanga, jamiyatga xizmat qiluvchi axborotning qudratini o‘z vaqtida ilmiy ilg‘agan yaponlar butun bo‘y basti bilan dunyoni lol qoldirishda davom etmoqda. Harqalay axborot jamiyatiga bo‘lgan bunday munosabat yapon mo‘jizasining ma’naviy asosi tariqasida e’tirof etilmoqda.

**Aslida axboriy jamiyat-** axborotni yuksak qadriyat sifatida baholaydigan, rivojlangan axborot texnologiyalariga ega bo‘lgan, axborot olish borasida teng imkoniyatlar yaratilgan jamiyatdir. Mazkur qarashlar ilmiy jamoatchilikda “yuksak axboriy madaniyatli”, “tig‘iz axborotlashgan jamiyat”, “axborot jamiyati” tushunchalari bilan ham keng targ‘ib qilinadi. Xullas jahon hamjamiatida har qanday jamiyatning rivojlanish sur’ati va yo‘nalishini belgilab beruvchi axborotni barcha ne’matlardan ustun deb tan olish yo‘liga o‘tildi. Harqalay OAVni erkinlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlar jamoatchilik nazoratining jamiyatdagi qonunsizlik vaadolatsizlikka barham berishiga katta turki beradi. Mazkur vazifani bajarishda OAVning jamiyatga haqqoniy ma’lumotlar yetkazib berish imkoniyati esa to‘laqonli jamoatchilik fikrining oshkoraliq va xabardorlikka talabining oshib borayotganidan kelib chikadi. OAVning siyosiy hokimiyatni amalga oshirish mexanizmida jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatish omili ko‘p jihatdan OAVda vaziyatni xolis baholash, islohotlarga keng ommani jalb qila olish tendensiyalarida aks etmoqda.

*Shu bilan bir qatorda demokratlashtirishning samarali natijalari bir necha o‘n yilliklardagi jiddiy sinovlarni boshidan o‘tkazishi halqning, millatning milliy siyosiy mentaliteti, jumladan shu jamiyatda mavjud bo‘lgan OAV institutlarining*

*ijtimoiy-siyosiy mavqeい, intelektual salohiyatiga hamda professional mahoratiga bevosita bog'liq jarayondir.*

Ayniqsa axborot kommunikatsiya inqilobi kishilar o'rtasidagi munosabatlarda axborot omilining yetakchilik qilishiga, uni hal qiluvchi kuchga aylanishiga ta'sirini o'tkazdi. Axboriy jamiyatda milliy qiymatga ega bo'lgan, ayni fanga, binobarin, jamiyatga yangilikni ochishga xizmat qiladigan axborotgina qadr topadi, yalpi iqtisodiy tizimda axborotkommunikatsiya sohasining ulushi salmoqli bo'ladi, siyosiy tizimda esa axborotning demokratik tamoyillar ustuvorligini ta'minlashi kutiladi. Axboriy jamiyatda erkin axborot oqimi tamoyili amal qiladi; davlat chegaralaridan qat'iy nazar, axborotning global tarzda to'siqlarsiz tarqalishiga erishiladi.

Shu tobda zamonaviy geosiyosiy raqobat axboriy jamiyatning global xususiyatini o'zgacha ifodalab beradigan hodisa ekanligini qayta aytmoqchi edik. Holbuki bugun rivojlanayotgan davlatlarga kelayotgan axborot oqimi ularning mafkuraviy ta'siri ostida qolish xavfini o'ta keskinlashtirdi. Bu kelgusida axboriy jamiyatning qiyofasi qanday ko'rinishga ega bo'lishi kutiladi? Bunday jamiyat taraqqiyotida radikal g'oyalarning imkoniyatlari darajasi qanday bo'ladi? Xalqaro siyosatda Sovuq urushi davridan keyin misqollab yig'ilgan o'zaro hurmat, o'zaro ishonch xamjihatlik g'oyalaring kelajagi qanday bo'ladi ? degan savollarni oldimizga qo'yadi .

### ***Erkinlik erkinlikka qarshimi?***

*Bular albatta dunyoning mafkuraviy manzarasi atrofidagi munozaralarning yana bir bor dolzarblashganligini ko'rsatadi. Chunki axborotlarda shaxmat partiyasida kabi geosiyosiy o'yinlarda kim g'olib kim mag'lub yo'sinidagi savollar keng tahlil qilinyapti. Demak masalaga eng zamonaviy tarixiy jarayonlar nuqtai nazaridan qarashga harakat qilamiz.*

...O'z o'rnida aytish joizki axborot erkinligi hamda bunday axborotdan erkin, mustaqil bo'lishlik haqida bizning mutaxassislarimiz ham bosh qotira boshlashgan. Jumladan ular qatorida jurnalistikani haddan tashqari boshqarishning samarasi past bo'ladi, u baribir o'ziga o'z stixiyasiga qaytadi (prof.F.Mo'minov) degan qarashlarni ham uchratmoqdamiz. Ammo keyingi davrdagi axborotning ba'zi geostrategik bahslar doirasida o'ta tarang, radikal qarama-qarshilikda yetkazilishi bizlarni sergaklikka chorlab turishi lozim.

Zotan oddiy fuqoronning afsuski boyagi geosiyosiy ma'nodagi shaxmat donalarining harakatini tushunishi chigallashib ketdi. Bitta masala doirasidagi axborotlarning qarama-qarshi tendensiyalarga boyligi odatiy voqelikka aylandi. O'z navbatida bular xam axboriy jamiyatning bugungi geosiyosiy, axboriy-mafkuraviy, radikal-agressiv jizzaki qiyofasini tushuntirishlarning jonlanishiga olib kelishi kerak.

.... Bugungi kunda yetakchi geosiyosiy kuch markazlari bir qator \*tanlangan\* davlatlarda inson huquqlari, demokratik tamoyillarga amal

qilinmayotganligi borasida bir tomonlama o‘ta tanqidiy yondoshuvlar oqimini vujudga keltirishda ancha ustamonga aylanishdi. Ustiga ustak yangi suveren davlat manfaatlarining xalqaro maydonda o‘ziga xos tarzda rad etish shaklida namoyon bo‘la boshladi. Ayniqsa hozir ba’zi o‘tkir masalalar doirasida bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga yunaltirilgan moliyaviy-iqtisodiy yordam miqdorining cheklanganligi sezilmoqda. Natijada bunday “yordam” asta-sekin siyosiy shartlar ko‘rinishidagi bayonotlarning yuzaga chiqishiga imkoniyatini kuchaytirib bermoqda.

Harqalay suveren davlatlarning ulkan sarhadlarida tartibsizlik tomon harakatlar avjiga chiqqan davrni boshdan o‘tkazmoqdamiz. Ana shunday paytda axborotga egalik qilish – gegemonlikni xalqaro sahnada kuchaytirishning birdan-bir yo‘li sifatida ko‘rilmoxda. Xususan Ukrainianada davlat boshqaruvi ana shu o‘yinlarning girdobida qolib ketdi. Taras Shevchenko vatanida bu safar qon ko‘p to‘kildi . Hattoki qon to‘kilmasdan hokimiyatni inqilobiq qo‘lga kiritish tariqasida tan olingan rangli texnologiya tamoyillari qo‘pol buzilib ketdi. Davlat hokimiyati jilovi noaniq kuchlar qo‘liga o‘tib ketish xavfi o‘ta kuchaydi. Millatchilik, ayirmachilik, antisemitizm, imperiyaparastlik, sho‘roparastlik, yevrotsentrizm g‘oyalari ukrainlar siyosiy hayotini quyushqondan chiqarib yubordi, siyosat va axloq muvozanati buzilib ketdi. Taras Shevchenko vatanida ayirmachilik va millatchilik tajovuzkorlik falsafasi bilan babbaravar bosh ko‘tardi. Ta’lim- tarbiya sohasidagi davlat siyosatining boshboshdoqligi shu tarzda o‘z “karomatini” dunyo hamjamiyatiga namoyish qildi.

Ukrainada davlat hokimiyati ma’lum muddat o‘z zaifligini nomoyon qila boshladi. Hokimiyatga bir hovuch turli noma’lum shaxslar bilan birgalikda muxolif kuchlar shiddat bilan kirib keldi. Axborotlarni muntazam kuzatar ekanmiz siyosiy madaniyat, oriyat, ma’naviyat, siyosat, axloq borasidagi tasavvurlarimiz ostin ustun bo‘lib ketdi. Aslida Ukraine siyosiy elitasining qaymog‘i bo‘lmish Radada uzoq davrdan beri davom etib kelayotgan parlamentning to‘pori bezori qiyofasi harqanday demokratiya maktablari uchun tashvishli signal bo‘lmog‘i kerak edi. Albatta mamlakat parlamentdagi bu kabi ur surlar ko‘plab telereportajlar uchun qiziqarli syujet vazifasini o‘tashi mumkin . Xalq ichidan tanlangan, saralangan xalq noiblari- deputatlarning o‘zlarini bunday besaranjom, beodob tutishlari intizomli Yevropa uchun xam , chegaradosh Rossiya uchun ham yangilik emas edi. Qa’lani ichidan olish degani ayni shunday beboslik va erkinlik hisobiga amalga oshish mumkinligi ko‘pchilik siyosatchilarga kundai ravshan edi.

...Har bir eryigit bolaligi, o‘smirlilik davrida beixtiyor turli tortishuv yoqalashlarga duch kelgan bo‘lsa kerak. Bunday qiziqqonlik maksimalizm davrida o‘smir bolakaylar fe’l atvorida ko‘chama–ko‘chaga, maxalla- maxallaga bo‘linish hissi haddan kuchli namoyon bo‘ladi. Aslida yoshlikning maksimalizmi o‘z so‘zini shu tarzda aytsa kerak. Bu kunlar har kishining xotirasida o‘ziga xos iz qoldirishiga shubha yo‘q. Inson hayotining bu jo‘shqin davri yillar o‘tishi bilan

yoshlik beboshligi sifatida inson xotirasida qaytalanib turadi. Harholda ko‘p xatoliklarimizni yoshlikning beg‘ubor beboshligiga yo‘yishni asosli deb bilamiz (qarilik donishmandlik deganlari shu bo‘lsa kerak). Ayni mushtga sig‘inish psixologiyasi, undan kelib chiqadigan tajovuzkorlik falsafasi qandaydir ichki instinkt (bezorilik, to‘porilik instinkti) bilan boshqarilgan betartibliklar aksariyat hollarda mahalla ko‘y ulug‘lari yoxud qarindosh- urug‘, tarbiyachi-murabbiylar tomonidan bosti bosti qilinardi. Aslida bunday mayda to‘qnashuvlar o‘zbekona oriyat va madaniyat bilan murosa ruhida yakun topardi. Hozir biz hech ikkilanmasdan buni ayni bag‘rikeng xalqimizning insoniylik, tinchliksevarlik fazilatlaridan bog‘liq hodisa deb o‘rganishimizni davr toqozo qiladi. Shu tariqa bu holat xalq ma’naviy fidoiyligining namunasi bilan bog‘liq fenomen sifatida anglanib boriladi.

Ammo kimsan “ona Yevropa” ning qoq biqinidagi bu davlat parlamentida po‘rtanaliklar, dahanaki tortishuvlar, mushtlashuvlarga chek qo‘yishga, to‘xtatishga siyosiy iroda yetishmadi. Parlamentdagi beboshlik, ishonchszizlik, o‘zaro tushunish falsafasining cheklanganligi odamlarni davlatning bu muhim institutiga munosabatini bezdirib qo‘ydi. Parlamentlarning bunday o‘zini tutishi har qanday siyosiy madaniyat tamoyillarining qo‘pol buzilishi edi. ( bunday “bezori” parlamentlar Gruziya, Tayvan va Lotin amerikasining bazi davlatlarda xam uchraydi ) Natijada uning bu qiyofasi faqat mamlakatda tarafkashlik siyosatiga xizmat qila boshladi, xalq xokimiyatining deputatlik minbari faqat jangari filmlar uchun o‘tkir syujet vazifasini o‘tashi mumkin bo‘lib qoldi xolos. *Boshqariladigan xaos tushunchasi va hatto uning nazariyasi paydo bo‘ldi.* Qonun ijodkorligi, parlament nazorati tamoyillari o‘zining kuchini deyarli yo‘qotdi. Populizmga berilish, siyosiy safsata natijasida siyosiy radikalizmga keng yo‘l ochilib ketdi. Konsensusga kelish deyarli yo‘qqa chiqarildi.

....Masalaning yana bir tomoni hozir turli geosiyosiy markazlar o‘z ustunligini saqlab qolish uchun turli siyosiy mafkuraviy yo‘llaridan unumli foydalananishga harakat qilmoqda. Tahlillar ayniqsa axboriy mafkuraviy bosim orqali ulkan sarhadlarda o‘z nazoratini o‘rnatish mavzusi zamonaviy geosiyosiy o‘yinlarda ustuvorlik ahamiyat kasb etishi tasdiqladi.

Bunday ishlarga birgina "xayriya" tashkilotlarigina emas, balki sayyoradagi eng qudratli siyosiy, iqtisodiy, intelektual, tashviqot, diplomatik va nihoyat harbiy resurslarga ega bo‘lgan davlatlarning kuchlari tashlanmoqda. Hozir dunyodagi har qanday mamlakat hukumatini, nisbatan ko‘p bo‘lmagan mablag‘ sarflab, mahalliy "norozilik resurslaridan" uncha katta bo‘lmagan, lekin yaxshi tayyorlangan muxolif guruhlar tuzib (tashkil qilib, moliyalashtirib, tayyorlab), "tinch kuch ishlatmaslik" uslubida qulatish yangi texnologiyalari amalda .

Insoniyat tarixida aslida siyosiy radikalizm hali hech qachon barqaror , ijobjiy natijalarni bermagan. Inson xuquqlariga rioya qilingan va xalq farovon hayot kechiradigan davlatda seperatizmning paydo bo‘lishi mumkin emasdek tuyuladi. Siyosiy amaliyot tajribasi esa uning tahdidi mavjudligini tasdiqlamoqda, bunday

holatlar muayyaan siyosiy maqsadlarga erishishga ikoniyat yaratmoqda. (Ispaniyada “Kataloniya”, Italiyada “Venetsiya”, Kanadada “Kvebek”, Moldovoda “Dnestrbo‘yi” kabi mintaqalarda seperatizm bilan bog‘liq siyosiy radikalizm sharpasi kezmoqda degan fikrlar bor)

Oldin yirik bo‘lgan mamlakatlar qancha mayda bo‘laklarga bo‘linib barpo etilgan bo‘lsa, dunyoni boshqarish shuncha oson bo‘ldi. Bugun “bo‘lib tashla va hukmronlik qil” shiori yangi axboriy jamiyatning tan olishni istamaydigan, ammo OAVning bugungi amaliyotlarida shiddat bilan qo‘llaniladigan g‘oyasiga aylandi. Natijada bu holat OAV ning o‘zida etnik, milliy, diniy radikalizmning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Bunday jarayonlarning keskinlashida internet jurnalistikasi xam alohida e’tiborni talab etadi. *Axborotlashgan jamiyatda xavfsiz internet muammosi alohida tadqiq etilishi kerak. Buni avvalgi fasllarda ham aytgan edik. Zero bugun Internet ulkan axborot makoni sifatida axboriy jamiyatning eng zamonaviy shakli*. Internet zamonaviy demokratlashtirishning innovatsion omili. Ikkinchidan jamiyat internet orqali axborot olish vaqtining tejalishi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni mammuniyat bilan qabul qila boshladi. Ayniqsa axboriy jamiyat qurish bo‘yicha davlat dasturlarining zudlik bilan joriy etilishi axborot olish darajasini, unga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirdi. Chunki yaqin o‘tmishimizda axoliga axborot uzatishni faqat rasmiy tashkilotlar, ijtimoiy-siyosiy institutlar, mahalliy va markaziy xukumatlar tashkillashtirib, boshqarib kelgandi.

Bugungi davr Internet orqali mafkuraviy ta’sir va taziyiq o‘tkazish davriga ham aylanib ketdi. U bugun davlatning eng asosiy geosiyosiy potensiali bo‘lmish – milliy mentalitet, madaniyat, odamlarning ahloqiy etiqodi, mustaqil pozitsiyasini o‘zgartirib tashlash qudratiga ega. Aytmoqchi so‘nggi kuzatishlar Turkiyada “Twitter” tarmog‘ini ta’qilaganini tasdiqlamoqda. Turkiya rasmiy doiralarining ta’kidlashicha davlat siri darajasidagi ma’lumotlar mazkur tarmoq orqali keng jamoatchilikka yetib borgan. Shuningdek millat liderining shaniga doir kompromat ruhidagi soxtalashtirilgan ma’lumotlar berilishi “Twitter”ning saytlarida o‘z strategiyasiga ega bo‘lgan. Muxolifat kuchlar turk rahbariyatining bu siyosatini Turkiyaning imidjiga xalqaro hamjamiyatda salbiy ta’sir qiladi deb jar solishni boshladi. Suriya masalasida esa turkiya siyosiy pozitsiyasidan ko‘pchilik xabardor. Bu axboriy jamiyatning mazkur xususiyatlarida bumeranglashuv tendensiyalari haqida fikrlaydigan ham davr kelganligidan bizni ogoh etishi kerak.

Buni arab dunyosi bilan bog‘liq yoshlarning vayronkor, tajovuzkor hattiharakatlari borasida berilgan axborotlardan ko‘p amin bo‘ldik. Mazkur noxush axborotlar ommaviy muloqot fenomeniga munosabatimizni o‘zgartirib yubordi. Chunki dastavval norozilik bilan chiqqan yoshlar

“Twitter” va “feysbuk” vositasida uncha katta bo‘limgan tayanchga ega edilar. Lekin ayni tashqi manfaatdor kuchlar tomonidan tilga olingan tarmoqlarda maxsus “arab bahori” uchun targ‘ibot saytlarning yaratilishi bilan siyosiy ahvol beqarorlik va notinchlik sari yo‘l oldi, vaziyat butunlay o‘zgarib ketdi. Bu bilan

«Feysbuk, tvitter yoshlari davri» yoshlarning dunyoqarashida o‘ziga xos chalkashliklar va murakkabliklar davrini boshlab berdi. Shu tariqa Internet orqali barqaror axboriy vaziyatga salbiy ta’sir o‘tqazish, uning shiddatli taraqqiyoti esa inson

ongini manipulyatsiyalashga jiddiy daxl qilish masalasini dolzarblashtirish kun tartibidan o‘rin olmoqda. Internet vositasida hali hamon yoshlarni rivojlangan g‘arb davlatlaridan jihod uchun Suriyaga otlanmoqda . Ayni fransuz, gollandiyalik yoshlarning diniy radikal tashkilotlar qarmog‘iga tushib qolayotganligi, ular orasida Suriyada jangari to‘dalarga kirib ketganlar ko‘pchilikni tashkil qilayotganligi yevronyus ma’lumotlarida tashvish bilan aytilmoqda.

Ammo taassufki, bugun Suriyaliklar bolalarning qariyb yarmidan ko‘pi ta’lim olishga imkoniyati umuman yo‘q, YUNISEF ning qayd etishicha o‘n mingdan ziyod yosh bola uch yillik urushning qurbaniga aylangan. Bugun afsonaviy Damashq sarhadlari sunna va shia mazhabi vakillarining ayovsiz qonli to‘qnashuv maydoniga aylanib ketdi. (Majoro davrida 146 mingdan ortiq odam xalok bo‘lgan, chegaradosh Livan 750 ming, Turkiya 600 ming, Iordaniya 175 ming qochoqni qabul qilgan. Yevropa hududida ham o‘nminglab suriyalik arablar darbadar hayot kechirishga majbur.)

Afsuski “Arab bahori” ning “natijalari” ana shunday namoyon bo‘ldi. Ayni internetdagagi tashkil qilingan maxsus akkauntlarning bu borada “xizmatlari” katta bo‘ldi. Buni axborotlashgan dunyoni tahlil qilayotganimizda unutishga mutloq ma’naviy xaqqimiz yo‘q.

Tahlillar biron mamlakat xududida "Rangli inqilob"ga odatda uzoq vaqt davomida moddiy va ma’naviy tayyorgarlik ko‘rilishini tasdiqlamoqda. Masalan, “Ukrainada bunday tayyorgarlik 1995 yildan boshlangan edi” va faqatgina 2004 yilga kelib inqilob birinchi marotaba, 2014 yilning boshida ikinci marotaba amalga oshdi. Har safar “korrupsiyalashgan davlatni yo‘qotdik, haqiqiy erkinlikka endi yetib keldik”- qabilidagi yana yangi va’dalar davri qaytalanadi. Ammo bunday “erkinlikning” dastlabki mevasini axboriy jamiyatning o‘zi birinchilar qatorida baham ko‘rdi. 2014 yilning 19 mart kuni berilgan yevronyus reportajlarining birida ultra o‘ng neonatsistik ukrain “Svoboda”partiyasidan deputat bo‘lgan vakili milliy telekompaniya rahbarini sotqinlikda ayblab , do‘pposlاب ketadi. Mazkur telelavha ko‘pchilikni shoshirib qo‘ydi. Bunga hatto o‘scha davrdagi

Ukraina bosh vaziri bo‘lgan Yatsenyukning o‘zi ham e’tiroz bildirishgacha borib yetdi. Aslida bunga o‘xhash holatlar Vengriyadagi ultra o‘ng, antisemit “Yaxshi Vengriya Uchun”, Gretsiyadagi “Oltin Ufq”partiyalarida ham kuchli.

*Gollandiyada ham yangi ultranatsistlarning “Ozodlik” partiyasi faollashib qoldi, uning yetakchisi Gert Vildras Gollandiya hududini marokashlik migrantlardan butunlay tozalashni o‘z safdoshlariga ochiq bildirdi. (yevronyus*

*ma'lumotlari 21 mart 2014) Fransiyada esa Mariin Lyopen xonimning partiyasi yevroparlamentda ular bilan o'nglar alyansini tashkil qilmoqchi.*

...Aytmoqchimizki, ukrain telekompaniyasi rahbarligi xaqoratiga bag'ishlangan reportajda radikal millatchilik va neonatsizmning bu zo'rovonligi zudlik bilan ayblanganday tuyuldi. Aslida "Yevronyus" maydan to'ntarishi yili ikki oy davomida svobodachilarni "yevromaydan" qaxramonlari, muxolifatchi tinch namoyishchilar qatoriga kiritib rosa "miyani yuvish texnologiyasiga" o'z hissasini qo'shgan edi. Aslida bu manaman degan g'arb jurnalistikasi tarmoqlarining ham ukraina inqirozi davrida boshqarilib turilganining isboti edi. Ammo jurnalistikani haddan tashqari boshqarib bo'lmaydi. Vaqt kelib u baribir o'z asliga, sitixiyasiga qaytishini yana bir marta mazkur misol tariqasida amin bo'ldik. Bunday paytda jurnalistikani medalning ikki tomoniga qiyoslasak xato bo'lmash.

Ma'lumki, zamonaviy nemislar jamiyatni millatchilikning har qanday ko'rinishiga kuchli urg'u berib kelmoqda. Tarixiy xotira shuni talab qilmoqda. Bu borada nemis dasturchi mutaxassislari pank, rok, xevimetal yo'naliqidagi yoshlar uchun yo'naltirilgan ommaviy qo'shiqlarning milliy, harbiy oxangini oldingan aniqlaydigan dastur ishlab chiqibdi. Aytishlariga qaraganda bunday maxsus qo'shiqlar millatchi kuchlarni(Ayniqsa yoshlar orasida) tez birlashtirishga, joylarda kam sonli millat vakillarini qo'rquv, sarosimaga solishga xizmat qilishi mumkin ekan. Moskva ko'chalarida ham asrimizning birinchi o'n yillik davrida bo'lib o'tgan "Russkiy marsh" yurishi bunga misol bo'ladi.Umuman aytganda Moskva, Sankt- Peterburg kabi Rossiyaning markaziy shaharlarida xam turli neonatsist yoshlar xarakatlari mavjud.

2014 yilning so'ngi pallasiga kelib Ukrainianing Dnepropetrovsk o'lkasiga "Jevis nyus 1" telekanalining xo'jayni bo'lmish Igor Koylomolskiy ismli biznesmen gubernator qilib tayinlandi. Endi bu yog'iga tilga olingan telekanal qanday axborotni qay tarzda taqdim qilishi mumkinligini anglash qiyin emas. Yaqinda ushbu telekanal xabarlarida o'ng millatchi Dmitriy Yaroshning intervyusi yoritildi(24 mart 2014 y) U kishi o'zini o'zga millat qahramonlari Sharl De Goll, Garibaldi kabi mustaqillik uchun kurashganlar qatoriga tenglashtirishga harakat qildi . Xususan u intervyuda bizning natsizm, antisemitizm bilan hech qanday aloqamiz yo'q. Biz faqat rus imperiyasiga qarshi kurashadigan milliy ozodlik harakatimiz, Ukrainada har qanday yahudiy ukrainalik bilan yonma yon bemalol yashashi mumkin deb aytib o'tadi.

Ammo rusiyabon axboriy kanallar o'n yillar mobaynida D.Yaroshning chechenistonlik terrorchi guruhlari bilan yaqin aloqada bo'lganligini ta'kidlashmoqda. Ikkinchidan, Murzichko ismli "Praviy sektor" (Yaroshning safdoshlaridan biri) bog'liqlikdagi voqealarni sharhi axboriy jamiyatning tamoyillarini qarama qarshi qilib qo'ymoqda. "Mavr keldi, mavr o'z ishini bajarib ketdi". Kalashnikov avtomati bilan butun dunyoga tahdid qilib jar solgan

Murzichko aslida “yevromaydanning faol qaxramonlaridan” biri edi. Hozir qanday rus kommuinizmini, yahudiychilikni, besoqolbozchilikning dodini beraman degan chaqiriqlar bilan ma’lum muddatga mashxur bo‘lib turgan bu shaxs ukrain maxsus xizmatlari tomonidan jismoniy yo‘q qilingan. Ammo shu zamon prokuratura xodimining galstukidan tortib, uni haqoratlab do‘pposlab ketgan bezori banditni vaqtida to‘xtata oladigan kuch topilmadi. Chunki bunday inqilob alangalagan davrda Odil sud tizimi va uning falsafasi sarobga aylanadi. Olomon psixologiyasini manipuliyatsiya qilishning qulay sharoiti deb shuni misol qilsa bo‘ladi. Aslida bezori Murzichkoning xatosi yangi xokimiyatga kelgan xokimiyat boyligidan o‘z ulushini talab qila boshlagan. Shu sababli Murzichko IIV kuchlari tomonidan to‘satdan bartaraf etildi. Ammo shu bilan birga ushbu “ yangi milliy qaxramon” Kiyevda katta tantana bilan dafn qilindi.(29 mart 2014) Ortiqcha izohga xojat yo‘q. Bu xuddi vaqtida Markaziy Osiyoda faollahgan diniy ekstremistik kuchlar rahbarlarining ba’zi axborot makonlarida “ ozodlik uchun kurashchilar” qatoriga kiritilgan davrlarni eslatadi. Ammo oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi. Axborot makonining tinchlik va barqaror taraqqiyot bilan bog‘liq mezonlari ekstremizmning har qanday ko‘rinishlariga ayovsiz munosabat bildiradigan siyosiy muhitni toqozo etmoqda.

Voqealar rivoji afsuski, bunday paytda "axboriy nazoratni egallash uchun kurashning barcha usullari yaxshi" degan aqidaga amal qilinishini tasdiqlamoqda. Tahlillarga qaraganda, Qirg‘iziston, Gruziya va Ukrainada "rangli inqiloblar" mualliflari va tashkilotchilari , noanaviy siyosiy texnologiyalardan keng foydalanishgan. Bunday texnologiyalar qo‘llash esa o‘z navbatida katta sarf harajatlarni va oldindan rejalashtirilgan, uyushgan harakatlarni talab etadi.

Muntazam ishlab turuvchi axborot kanallar turli televide niye dasturlarida va internet sahifalarda "demokratiyani himoyalashni haddan tashqari hoh Pus Rayt rok guruhi “oyimcha –qizchilari” bo‘ladimi ,yoki yarim yalong‘och feminist xonim va qizlar bo‘ladimi, bir jinslilarning ulug‘lash xisobiga bo‘ladimi –farqi yo‘q" bu kabi namaqbul usullardan foydalanish muhim o‘rin tutilmoqda.

Ommaviy axborot vositalarida faqat bir tomonning manfaatlarini ko‘zlab axborot tarqatishi kuchayib ketmoqda. Boyagi aytganimizdek, misol “tvitter saytlarida” (saylovlар oldida 2014yilning mart oylari ) Rejab Tayip Erdogan hukumatiga qarshi bu kurash avjiga chiqib ketdi.

Hozirgi paytda tvitter Turkiyada blokirovka qilingan. Jumladan ularda turk xalq tomonidan saylangan Bosh vazir shaniga yana hujum qilinsa “feysbukni” ham yopamiz degan qarashlar ham paydo bo‘ldi.

**Ayniqsa tvitter bloglarida** qarama-qarshi tomonni faqat salbiy tomon dan namoyish qilish, ommani psixologik jihatdan ma’lum darajada muxolifat tomonni qo‘llab-quvvatlashga qaratilmoqda. Shu bilan birga raqibni obro‘sizlashtirish uchun qora PR-texnologiyalardan unumli foydalанишга xarakatlar bor.. Masalan Misrda “arab bahori” kunlarida aholining turli tabaqalari uchun tushunish qulay bo‘lgan usullarda mos filmlar, qiziqchilarning chiqishlari tashkil etildi.. Odatda

bunday chiqishlarda raqibni oshkora masxaralashga va shu yo‘l bilan aholi ko‘zi oldida biror siyosiy yetakchi obro‘sizlantirilishga mo‘ljallanadi.

Shimoliy Afrika mintaqasidagi "inqilob" vositasida hukumat tepasiga kelgan siyosiy "liderlar" endi o‘z xorijiy homiylariga xizmat qila boshlashi kerak edi. Ammo Misr sharoitada “musulmon birodarlar” partiyasining xokimiyat tepasiga kelishi mazkur masalada aks natijani bera boshladi. Siyosatda diniy fundamentalizmning ohangi kuchayib ketdi, mamlakatda ijtimoiy siyosiy axvol o‘nglanmadni, diniy qarama qarshilik (Misrda o‘nmillion atrofida nasroniy arablar yashaydi) xavfi oydinlashdi. Umuman "inqiloblar" natijasida hokimiyat tepasiga kelgan muholifat davlat tashqi siyosatini butunlay o‘zgartirishga harakat qiladi. Harholda inqilobni amalga oshirishda ko‘maklashgan tashqi kuchlarning ta’siriga tushib qolish xavfi kuchli bo‘ladi. Yangi hukumat tomonidan "o‘z homiylarining" siyosiy maqsadlarini amalga oshirishga zo‘r berib kirishish boshlanadi . Tashqi kuchlar tahdidi muhim omil sifatida o‘zini namoyon qiladi.

Shu tariqa zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida OAV bosma matbuot, radio, televideniye, kino, ovoz yozish, internet tarmoqlari orqali siyosiy jarayonlarga kuchli ta’sir o‘tkazmoqda. So‘nggi o‘n yillikdagi kommunikatsiya vositalari turining jiddiy o‘zgarishi orqali jamoatchilik siyosiy ongiga ommaviy tarzda bosim o‘tkazib turibdi.

Bu saylov kompaniyalari davrida siyosiy partiyalarning OAV orqali jamoatchilik fikrini shakllantirish, saylov kompaniyalarining axborotpsixologik xavfsizligini ta’minalash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aytish joizki, demokratik qadriyatlar tartiboti OAV mustaqilligini ta’minalash muammolariga bevosita bog‘liq jarayondir.

Zotan ayni OAV instituti odamlarga siyosiy axborotni qay darajada yetkaza olishi orqali o‘zining jamiyatdagi mavqeiga ega bo‘ladi. Ommaviylik, oshkoraliq uni iste’mol qiluvchilar doirasining kattaligi, axborotni yetkizish bo‘yicha maxsus texnik qurilma va vositalarning mavjudligi, kommunikatsion partnyorlar bilan vaqt va makonda xamkorlikning chegaralanganligi mazkur fikrlarning tasdig‘idir. O‘zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish muammolari aynan OAVning yuqorida ta’kidlangan hususiyatlari bilan belgilanmoqda. Bugungi kunda turli siyosiy partiyalar, nodavlat, nohukumat tashkilotlarning o‘z matbuot organlari orqali jamoatchilik fikrini shakllantirishga ta’sir o‘tkazish masalasi yuqorida qayd qilingan tendensiyalardan kelib chiqadi.

Siyosatning aniq maqsadga yo‘naltirilgan jamoaviy tabiat OAV institutlari, ya’ni, bosma matbuot, radio, televideniye, kino, ovoz yozish, video yozish orqali shakllanadi. So‘ngi o‘n yillikda kommunikatsiya vositalarining jiddiy o‘zgarishi natijasida sun’iy aloqa, kabel televideniyesi, radio va boshqa elektron kommunikatsiya tizimlari ham siyosiy ongga ta’sir qila boshladi. Jamoatchilik fikrini siyosiy kompaniyalar davrida siyosiy partiyalarning matbuot nashrlari orqali shakllantirish odatiy tusga aylandi. Ammo shu bilan bir qatorda siyosiy

kompaniyalarining informatsion psixologik xavfsizligini ta'minlash muammosi dolzARB mavzuga aylandi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning samarasi ko'p jihatdan mamlakatdagi media-bozorning hozirgi holatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. JAHON amaliyotidagi media bozori taraqqiyotining asosiy tendensiyalari buni tasdiqlaydi. Ko'pgina mamlakatlardagi siyosiy saylovlarda OAVning asosiy qismini media imperiyalar ta'sirida bir hovuch oligarx biznesmenlar va siyosatchilar qo'lida qolib ketayotganligi OAV uchun kurashni siyosiy hokimiyat uchun kurash darajasiga olib chiqmoqda.

Milliy manfaatlarimizni himoya qilish uchun OAVning siyosiy funksiyalaridan qanday foydalanish kerak?

O'zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish OAV orqali siyosiy institutlar faoliyatida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan bevosita bog'liq. Aynan, OAV orqali demokratik tamoyillar jamiyatda qadriyatga aylana boradi. Qonunlarni barcha uchun barobar xizmat qilishga olib kelishi esa jamiyatning siyosiy tizimi va hokimiyat faoliyatining barcha tarmoqlarini demokratlashtirishga olib keladi. Bu o'z navbatida ijro hokimiyati vakolatlarini amalga oshirish jarayonlarining vakillik hokimiyati organlari tomonidan nazorat qilinishini kuchaytiradi. OAV sturkturalari faoliyatida fuqarolarning demokratik jarayonlarga jalb qilishning o'ziga xos psixologik modelini yaratish mazkur jarayonlarda ustuvor masala ekanligi, jumladan OAVda egalik tuyg'usi, ijtimoiy tashabbuskorlik masalalariga e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Fuqarolarning jamiyat va davlat hayotiga oid siyosiy axborotlarni yetarli darajada olishi davlat organlari faoliyatida oshkorlik, siyosiy saylovlarda sog'lom siyosiy kuchlar raqobati, fikrlar xilma-xilligida sog'lom munosabatni shakllantirish OAV oldida turgan muhim vazifadir.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Daavlat axborot xavfsizligini ta'minlashning mohiyatini qanday tushuntirasiz?
2. Axborot urushining asosiy maqsadi nima?
3. Geosiyosiy jihatdan axboriy xavfsizlikka tizimli yondoshuvni sharhlab bering.
4. "Rangli inqilob" tashkilotlari qanday texnologiyalarga ko'p e''tibor berishadi?

**4-MAVZU: Yaqin kelajak va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan siyosiy prognozlar. Madaniy rivojlanish tamoyillarini tahlil qilish va ularni ilmiy asosda talqin qilish. Milliy va jahon tajribasini hisobga olgan holda davlat imidjini shakllantirish strategiyasini yaratish borasidagi asosiy namoyandalar qarashlarni va ularning**

**nazariy merosi Reja:**

1. Mavzuni yoritishda raqobatda axborot bilan ishlash omilining o‘ziga hosligi

*Tayanch so‘zlar: Geosiyosiy tadqiqotlar, xalqaro tinchlik, axborot xavfsizligini ta’minlash, global barqarorlikni saqlash*

#### **1. RAQOBATDA AXBOROT BILAN ISHLASH OMILINING O‘ZIGA HOSLIGI**

Bugungi kunda sivilizatsiyalar, mafkuraviy, milliy manfaatlar to‘qnashuvi muammoga aylanayotgan bir paytda O‘zbekistonda xalqaro jurnalistlarni tayyorlash, ularning global muammolarni yoritishdagi samarali ishtirokini ta’minlash katta ahamiyatga egadir. Zero geosiyosat asri axboriy-mafkuraviy targ‘ibot texnologiyalarini OAV kommunikatsiyalari taraqqiyotiga hamohang ravishda qabul qilishi bilan namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa internet va telemedianing yangi shakl- tamoyillari munozarali axborotni xaqqoniy axborot darajasida yetkazish texnologiyalarini amaliyatga shiddatli ravishda tadbiq etish davrini boshlab yubordi. Bu o‘z-o‘zidan axborotni haqqoniy yetkazish masalasini yanada dolzarblashtiradi. U ko‘p jihatdan axboriy- mafkuraviy kurashchanlikning zamonaviy tamoyillariga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib qolishini tasdiqlamoqda.

*Geosiyosiy tadqiqotlarning OAV orqali muntazam berilishi esa mavjud muammolar va yutuqlarni aniqlab olish jarayonini tezlashtirishga imkoniyatni kuchaytirib boradi.*

...Jahon siyosatidagi yuz berayotgan so‘nggi jarayonlarga sinchiklab qaraganimizda bir-birini to‘ldiruvchi hamda shu bilan bir qatorda birbirini rad etuvchi qudratli axborot to‘lqini yuzaga kelganiga amin bo‘layapmiz. Hatto yangiliklardagi axborot to‘lqini tufayli g‘arbdagi birbiriga o‘ta yaqin strategik hamkorlik an’analariga putur yetkazilishiga bir bahya qoldi. YA’ni, geosiyosat asrida umum xavfsizlik bilan axborot xavfsizligini ta’minlash doirasida jiddiy munozarali vaziyat yuzaga kelganidan voqif bo‘ldik. Chunki okean ortidagi qudratli davlatning Yevropa Ittifoqi yetakchi davlatlari liderlari ortidan zimdan qo‘yilgan axborot nazorati ayni shu masala bo‘yicha ehtiroslarni yanada junbushga keltirdi. Bunday noxush faktlar tufayli YEI mintaqasi bilan bog‘liq

xalkaro munosabatlardagi o‘zaro ishonch va hamkorlik rishtalariga rahna solinganday bo‘ldi. Jumladan xalqaro tinchlikni ta’minlashga bel bog‘lagan xalqaro koalitsiya yetakchilari bunday xavfsizlikni ta’minlash yo‘lidagi say-harakatlar mamlakatlar o‘rtasida munosabatlarning sovuqlashishiga olib kelishi mumkinligi to‘g‘risida bayonotlarni ehtiyojkorlik bilan bildirishdi. Hozir bиргина shu mojarot tufayli 60 millionga yaqin Ispaniyada, Italiyada 42 millionga yaqin axborot daxlsizligi tamoyili qo‘pol buzilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. Mazkur vaziyatga ayni terrorizmga qarshi kurash va o‘z davlatining iqtisodiy manfaatlari samarasini ta’minlash bilan bog‘liq bahonai sabablar ro‘kach qilindi, xolos. Stretegik sherik davlatlarning munosabatlarida ahvol shunday bo‘lsa, xalqaro hamjamiyat uchun buyog‘i qanday kechadi? Kelajakda global barqarorlikni saqlash, davlat suverineteti daxlsizligini ta’minlashda axborotning o‘rni masalasi qanday kesimda bo‘ladi? mazmunidagi savollarni dolzarblashtiradi.

Aslida bizlar tomon kelayotgan axborot oqimining mohiyatini aql – idrok, tafakkur ko‘zgusiga solib to‘g‘ri tushunib olishga o‘rgatish va axborotlarni filtrlash qobiliyatini shakllantirish ayni shunday hodisalardan saboq chiqarishdan boshlanishi kerak. Chunki ko‘z o‘ngimizdagi demokratiya, xalkaro xamkorlikning etaloni sifatida tanilgan davlatlarning o‘zaro axborot xavfsizlikni ta’minlash yo‘lidagi kelishmovchiliklari bizlarni hushyorlikka yana bir bor da’vat etmog‘i joiz. Bu har qanday yangi mustaqil davlat yosh jurnalistlari oldida katta siyosiy hushyorlik, siyosiy savodxonlik va axborot dunyosi o‘zgarishlarini kuzatish yo‘lida ulkan ilmiy izlanishlarni taqozo qiladi.

Qolaversa yosh jurnalistlar avlodи bilan bog‘liq axborot xavfsizligini ta’minlash siyosati – bu bevosita siyosiy mojarolarning oldini olish, eng avvalo insonning o‘zini o‘zi tushunishi va fuqarolararo munosabatlarni yuksak ma’naviy-ma’rifiy mezonlar asosida shakllantirishni talab etadi. Xalqaro jurnalistlarimiz oldida ijodkorlik ruhini, yaratuvchilik qobiliyatini, buniyodkorlik imkoniyatlarini shakllantirishni taqozo qiluvchi bilimlarni egallashni shart qilib qo‘yadi.

Jurnalist tafakkurida axborot olish kafolati bu bevosita shaxsiy manfaatdan ustun turadigan, umummilliy manfaatga daxldor bo‘lgan qadriyatga aylanib bormog‘i lozim deb ko‘p ta’kidladik. Aytmoqchimizki, raqobat asrida axborot fenomeniga kompleks yondoshuv tufayligina jurnalistlarda davlat axborot siyosatini amalga oshirish va boshqarish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar shakllanib boradi, ularda axborot huruji davrida tajovuzkor tahdidlarga qarshi fidoiylik, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya bilan javob berish ko‘nikmasi shakllanadi, mafkuraviy va ma’naviy tahdidlarga qarshi kurasha olish instinctini kuchaytirish dolzarbligicha qoladi.

Yuqorida tilga olingan Yevropa liderlari ustidan nazorat (bu o‘rinda 35 ta davlat yetakchisi xaqida gap bormoqda) mashmashasi axborot va telekommunikatsion tizimlarga noqonuniy ega bo‘lishning oldini olish, himoya qilish, OAV sohasida fuqaro va shaxsning konstitusion huquq va erkinliklarini

himoya qilish, O‘zbekiston axborot agentliklari, ommaviy axborot vositalarini ichki axborot bozoridan chiqib ketishning oldini olish, ma’naviy qadriyatlarimizni himoya qilish, aholining ijodiy, ma’naviy, ruhiy salohiyatini avaylab asrash, axborotdan dezinformatsiya va axborotni soxtalashtirish maqsadida foydalanishlarning oldini olish doirasidagi ilmiy-nazariy konsepsiyalarga zaruriyatni kuchayishini bildiradi.

Ayni paytda axborot asri shiddati ilmiy –nazariy qarashlarimizda davlat axborot siyosatini amalga oshirishga yo‘naltirilgan normativhuquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, axborot xavfsizligini ta’minalash doirasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qaror va ko‘rsatmalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlarning mohiyati, shuningdek axborot sohasidagi o‘zgarish va jarayonlarni davlat boshqaruvi orqali amalga oshirish muammolarini asosiy yo‘nalishlarga aylantirishni talab etmoqda.

Jumladan tahlillar axborot xuruji sharoitida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari, axborot-psixologik tahdid sharoitida davlat, jamiyat va shaxs xavfsizligiga tahdidlarning turlari, axborot tahdidi sharoitida davlat axborot siyosatini olib boruvchi tarmoqlar,davlat axborot xavfsizligi bo‘yicha olib boriladigan kuchli davlat yordami va xorij tajribasi- axborot xavfsizligining o‘ziga hosligi, uning an’anaviy xavfsizlikni ta’minalash usullaridan farq qilishini ko‘rsatib berishi kerak. Shu tariqa davlat axborot xavfsizligini ta’minalashning asosiy tamoyillari qatoriga ilmiylik, umumiylilik, tizimiylik, yaxlitlilik, huquqiylik, moddiytexnikaviy ta’minlanganlik, ahloqiylik prinsiplarining jadal tusda kirib borishi ilmiy nazariy qarashlarimizni uslubiy jihatdan oydinlashtirishga yordam beradi.

Axborot-psixologik tahdidning dastlabki bosqichida qarshilik ko‘rsatish, bunday tajovuzkor tadbirlar aniqlanganda tezkorlik bilan munosabat bildirish sharti axborot-psixologik qarama-qarshilikning siyosiy shakl, vosita va metodlari naqadar murakkab va rang barang ekanligini his qilishni taqozo qiladi.

Biz kelajak avlod tafakkurida jahon axborot makonida qator geosiyosiy kuch markazlari tomonidan O‘zbekistonning manfaatlarini kamsitishga bo‘lgan urinishlar, xalqaro terroristik tashkilotlar faoliyati, davlat axborot xavfsizligi yo‘nalishlarining xarakteristikasi, mamlakat iqtisodiy tuzilmalarining axborot xavfsizligini ta’minlovchi dasturiga talablar, inson huquqlari va erkinligi qadriyati kabi mavzular - yangi axboriy barqaror jamiyatni qurish mafkurasida aks etishi zaruratini anglatib borishimiz darkor.

Shu bilan bir qatorda axborot texnologiyalar va resurslarni qo‘lga kiritish uchun xalqaro raqobatning kuchayishi yoshlar bilan bog‘liq jarayonlarga ta’sirini o‘tkazib bormoqda. Xalqaro terroristik, diniy, missionerlik tashkilotlarining faoliyati hali xamon to‘xtashi qiyin. Tahlillarda ba’zi bir davlatlar tomonidan “axborot xuruji” konsepsialarining ishlab chiqilishi esa O‘zbekistonning siyosiy mavqeい bo‘yicha xorijda dezinformatsiyani tarqatishga, ayni paytda boshqa

yangi mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tgan mamlakatlarda xorijiy davlat va tijorat korxonalarini mahkamalarining sanoat ayg‘oqchiligi sohasida faoliyatining faollashuviga sabab bo‘lganligi berilmogda.

Bugungi geosiyosiy jarayonlarning globallashuvi hamda mintaqalarda geosiyosiy raqobatning kuchayishi axborot omili tahdidlarining o‘ziga hosligi yaqqol ko‘zga tashlanayotir. Har holda tashqi siyosatning axborot ta’minoti – davlatning strategik maqsadi aylanib ulgurdi. Ayniqsa geosiyosiy raqobatni aniq ilmiy anglash - “soxta demokratiya” tarafdarlarining maqsadi, ular faoliyatining axborot makonidagi o‘rnini, manbalarning haqqoniyligi masalasini jiddiylashtirmoqda.

Bundan buyon axboriy qarama-qarshilikning obekt-subektlari to‘g‘risida jadal talqinlarni kuchaytirish muhimligicha qolaveradi. Davlatlar, ittifoqchilar va koalitsiyalar, halqaro tashkilotlar, nodavlat noqonuniy harbiy birlashmalar, terroristik, ekstremistik, diniy radikal, siyosiy radikal yo‘nalishdagi tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar, virtual ijtimoiy jamiyatlar raqobat asridagi yoshlar tafakkuriga ta’sir o‘tkzishga asosiy bel bog‘lagan institutlardir.

Ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalari orqali elektron razvedka davri kuchaymoqda. Virtual koalitsiyalar esa axborot-psixologik jarayonlarni tashqaridan boshqarishda asosiy kuchga aylanib ulgurdi.

Tig‘iz axborotlashgan jamiyatda axborot bilan ishslash - OAV strukturaviy bo‘linmalari samaradorligini oshirishning yangi tamoyillari talab etadi. Mudofaa, hujumga o‘tish, son jihatidan ko‘p bo‘lgan axborotdan foydalanish, sifat tamoyili va axborot menejmentga asoslanish, juda katta hajmdagi informatsiyani singdirish, axborot makoniga sinergetik pozitsiyada yondoshishni kuchaytirish, kibermakondagi axborotga ta’sir qiluvchi an’anaviy ishtirokchilarni aniqlash, tarmoqli infrastruktura va informatsion oqimlarni nazorat qilish, o‘z tashqi siyosiy strategiyasida milliy manfaatlarni himoya qilish tamoyillari shular jumlasiga kiradi.

*Raqobat asri sifatli va ishonchli axborot tanlash muammosini yuzaga keltirdi.*

Bu esa axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash ,maxfiy-konfedensial axborot,axborotni himoya etishning tashkiliy usullari, ma’naviy, ahloqiy, qonuniy vositalariga e’tiborini kuchaytirmoqda. Aloqa kanallarida axborotni himoyalash, butunjahon “o‘rgimchak to‘ri” va kiberterrorizmning vujudga kelishi O‘zbekiston jurnalistikasining axborot xavfsizligini ta’minalashdagi o‘rnini belgilab bermoqda .

Axborot xavfsizligini ta’minalashda axborot manbalaridan foydalanish, OAV faoliyatida axborot xurujining ijtimoiy siyosiy ifodasini yoritish, tahlil va talqinlarda jurnalistikaning asosiy tamoyillariga amal qilish, OAVning axboriy-mafkuraviy ta’sir qilish texnologiyalarini takomillashtirish muammolarini tahlil etish bugungi kunning dolzarb mavzusidir.

Xususan yoshlar tafakkuriga OAV orqali ta’sir qilishda xaqqoniyligi axborotni manipulyatsiya qilish texnologiyasi yuzaga kelganligini aytmoqchi edik. Manba va mavzularning tarafkashlik bilan tanlanishi, efir vaqtini haqiqiy axborot

fragmentlarga noprroporsional taqsim etish, taqdim etilayotgan axborotning fragmentalligi yosh auditoriya e'tiborini haqqoniylidkan chalg'itishga olib kelmoqda.

Aholining axborot qabul qilish jarayonlarida manfaatli vaqtini tanlash (ayniqsa, kompromat materiallarni taqdim etishda), sharhlashda hissiyotga berilish, sharhlarda jamiyat tomonidan hurmat qilinadigan shaxslar fikridan foydalanish, teleboshlovchi sifatida ko'rakam, kelishgan qomat bilan odamlarni jalb qilish, muayyan maqsadni ko'zlagan holda axborotni taqdim etish, axborotni maxsus montaj qilish, axborotni muayyan guruhga yo'naltirilgan holda yetkazib berish, aholining hududiy, milliy, diniy va ijtimoiy belgilarga qarab axborotni yo'naltirish, video lavhalarni uzatishda kompyuter grafikasi, davlat va jamiyat arboblari nutqlarini sun'iy sintezlashtirish taassufki bugun kun raqobatining salbiy ko'rinishidir.

Natijada ijtimoiy ongga beqarorlik (ishonchsizlik, qo'rquv elementlarini olib kirish), OAVning ijtimoiy fikr so'rovnomalalarini manipulyatsiya qilish vositalari, muayyan shaxs va jamiyatga tazyiq, qo'rquituv, ultimatum va tahdidlarni yetkazish uchun OAVdan instrument sifatida foydalanish, yetakchi davlatlar tomonidan o'z madaniyatini tashviqot bilan

OAV orqali ko'z-ko'z qilish tendensiyalari - axborot xurujlari davrida jurnalistlarning manbalar bilan ishslash uchun metodologik yo'nalish bermog'i to'g'risida aytilmoqda .

Shu tariqa axborotga egalik qilish dunyoda ahamiyati jihatidan birinchi o'rindagi vositaga aylanmoqda.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Raqobat asrida axborot fenomeni deganda nimalarni tushundingiz?
2. Jurnalist faoliyatida axborotlarni filtrlash qobiliyatini shakllantirishning ilmiy mezonlarini sharhlab bering.
3. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasining asosiy yo'nalishlarini gapirib bering.

**5-MAVZU: O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashidagi faoliyati. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining huquqiy asoslari.**

**Reja:**

1. Geosiyosat va jurnalistika: tashqi siyosat mohiyatini tahlil etishning zamonaviy tendensiyalari

**Tayanch so‘zlar:** *Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi, xalqaro tashkilotlar faoliyati. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining huquqiy asoslari*

Zamonaviy ilmiy siyosiy tahlillarda geosiyosat va jurnalistika tushunchasi tobora ko‘p ishlatilishi yuz bermoqda. Ammo bizlarda geosiyosiy muammolar atrofidagi ilmiy muammolarni tadqiq etishning rivojlanish bosqichlari, uning o‘zbek milliy siyosiy-falsafiy maktabida tutgan o‘rni, rivojlanishga xos belgilari, xususiyatlari va qonuniyatatlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Geosiyosiy munosabatlarning OAVda aks etish jarayoni, uning mukammal texnologiyasi borasidagi masalalar Respublikamizning ilmiy jamoatchiligidagi o‘ta ilmiy muhim muammolar bilan bog‘liq holda hali o‘z yechimini to‘liq topmagan. Bu jarayon boshlang‘ich pallada turibdi.

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda geosiyosiy xaritalar va jadvallar, turli davrlarda yaratilgan geosiyosiy nazariyalar hali jiddiy o‘rganiganicha yo‘q. Shuningdek geosiyosat va jurnalistika muammolariga daxldor darslarning samaradorligini oshirish bo‘yicha O‘zbekistonlik mutaxassislar xorijiy maktablarning tajribasiga muhtoj.

Holbuki geosiyosatning fan sifatida umum gumanitar fanlarning tamoyillariga uyg‘unlikda namoyon bo‘lishi va jurnalistikada uning bevosita siyosat mahsuli tariqasida yoritilishi tashqi siyosatning o‘ziga xos xususiy tomonlarini o‘rganishni taqozo qilmoqda.

Xorijdagi yetakchi jurnalistlarni tayyorlovchi maktablarning bevosita geosiyosatni o‘qitish texnologiyasi bo‘yicha qator muammoviy ilmiy tadqiqotlar bilan tanishib chiqishimiz muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Ayni paytda geosiyosatning mafkuraviy mohiyati to‘g‘risida fikrlaydigan bo‘lsak, u holatda boshqa davlatlardagi ishlab chiqilgan nazariy mafkuraviy konsepsiylar jiddiy tanqidiy ruhda ko‘zdan kechirilishi nazarda tutiladi. Chunki O‘zbekiston Respublikasining ko‘p yillar mobaynida xalqaro huquq subekti sifatida faoliyat yuritishga yo‘l qo‘yilmaganligi bizda o‘z-o‘zidan mazkur soha bo‘yicha kuchli an’analarga ega bo‘lgan ilmiy-nazariy maktabning yaratilishiga g‘ov bo‘lgan edi. Masalaning aynan shu jihatni bu boradagi har qanday sayharakatlar qo‘llab-quvvatlanishi, qolaversa uning mafkuraviy, g‘oyaviy konsepsiysi o‘z vaqtida ilmiy jamoatchilikka ilmiy asoslangan holda to‘g‘ri va tez belgilab berilishini taqozo qiladi. Zotan O‘zbekiston manbashunoslik, huquqshunoslik,

tarixnavislik, arxeologiya, falsafa, mantiq, siyosat falsafasi, badiiyat va shunga o‘xshash juda ko‘plab gumanitar fanlarning beshigi hisoblanadi. Geosiyosiy qarashlar esa mustaqillik davrida bizlarning siyosiy tafakkurimiz uchun mutlaqo yangi bir siyosiy ilm tariqasida kirib keldi. Xususan Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan tashqi siyosat mustaqilligiga doir mustahkam ilmiy-siyosiy, nazariy poydevor yaratilishi bilan mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga imkoniyat yaratildi. Bugungi kunda geosiyosat fani muayyan mintqa va davlatlarning geografik joylashuvi, ularning chegaralari, tabiiy resurslari, jahon siyosiy sahnasida tutgan mavqeい, shuningdek, ularning geosiyosiy imkoniyatlari va istiqbollari bilan bog‘liq siyosiy jarayonlarni o‘rganmoqda. O‘z navbatida har qanday mustaqil davlat o‘z rivojlanish strategiyasida geosiyosatni jiddiy tadqiq etish yo‘liga o‘tib bormoqda.

*Bugun O‘zbekistonda deyarli har bir vazirlik yoki mahkama, muassasa va idoralar, u yoki bu darajada xalqaro tashkilotlar orqali, ikki tomonlama yoki ko‘ptomonlama shartnomalar, kelishuvlar doirasida tashqi siyosatni amalga oshiradilar. Ammo, tashqi siyosatning asosiy yo‘nalishlari O‘zbekiston Tashqi ishlar Vazirligiga to‘g‘ri keladi. U tashqi siyosat va diplomatiyamizning xarakterini belgilaydi. Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi - tashqi iqtisodiy aloqalarni asosiy yo‘nalishini amalga oshiradi.*

Bunda ayni jurnalistika sohasida tashqi siyosatni yoki tashqi iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish jarayonida, nafaqat tor doiradagi muassasa manfaatlari, balki davlat manfaatlaridan ham bohabar qilish tamoyili muhim xususiyatga ega.

Ma’lumki O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik konsepsiyasida shaxsning, jamiyatning, davlatning hayotiy muhim manfaatlari va milliy xavfsizligiga tahdidlar, har bir soha doirasida aniqlashtirilib, belgilab berilgan. Bunday sharoitda qaysi manfaat davlat xavfsizligini ta’minlashda asosiy manfaat hisoblanadi? - degan savolga javob topish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

*Albatta, asosiy va bahsni talab etmaydigan manfaat - O‘zbekiston Respublikasining suverenitetini va hududiy birligini saqlab qolishdan iboratdir. Bu manfaat doimiy va o‘zgarmasdir, u barcha manfaatlardan ustun turadi.*

Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy, mafkuraviy, geosiyosiy manfaatlar o‘zgaruvchan bo‘lib, doimiy ravishda mukammallashib boradi. Bu borada asosiy manfaatlarni ta’minlash birinchi navbatda davlatning harbiy salohiyatiga bog‘liq bo‘lsa, qolgan mukammallashib boruvchi manfaatlar turli xil shartsharoitlarga, omillarga va davlatning turli siyosiy institutlari faoliyatiga bog‘liq degan qarashlar mavjud.

*Bizlarga esa davlatning iqtisodiy manfaatlarini tashqi siyosiy vositalar bilan amalga oshirish (ma’lum masalada xalqaro darajada muzokara olib borish, bitimga kelishish va ittifoq tuzish, o‘zining yoki raqobatchisiga harbiy yoki siyosiy tazyiq o‘tkazish va nihoyat harbiy harakatlar olib borish, hududni bosib olish, anneksiya va kontribusiya) kabi chora tadbirlari azaldan ma’lum.*

Hozir bunday yondoshuvlar yetakchi davlatlar tashqi siyosatida yaqqolroq namoyon bo‘lmoqda, chunki ko‘p hollarda tashqi siyosatda iqtisodiy manfaatlar, ko‘pgina boshqa davlatlarning tashqi siyosatiga nisbatan birinchi darajaga chiqmoqda..

Mamlakat tashqi siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi va bu borada alohida mas’ul bo‘lgan davlat organlari tizimida Tashqi ishlar vazirligi markaziy bo‘g‘in vazifasini bajarishi va bu borada umumiyoq faoliyatni muvofiqlashtiruvchi sifatida alohida o‘rin tutib kelmoqda. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy strategiyasini amalga oshirish tegishli davlat organlari zimmasiga yuklatilgan va ular mamlakat milliy manfaatlarini xalqaro maydonda himoya qilish va ilgari surish, o‘z oldilariga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni izchil amalga oshirish uchun o‘zaro kelishilgan, muvofiqlashtirilgan faoliyat olib boradi. Mamlakat tashqi siyosati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligi ostida amalga oshiriladi. Prezident davlatning xalqaro va mintaqaviy masalalar buyicha strategik maksad va vazifalarini belgilab beradi hamda davlat rahbari sifatida xalqaro maydonda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi.

Hozir O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Konunchilik palatasi va Senatining davlat tashqi siyosat strategiyasini amalga oshirishdagi o‘rni va roli ortib bormoqda. Parlamentning tashqi siyosiy maqsad va vazifalarni amalga oshirishda, tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatning qonunchilik bazasini takomillashtirishda, mustahkamlashda, yetuk xorijiy mamlakatlar bilan parlamentlararo aloqalarni rivojlantirishda tutgan o‘rni beqiyosdir .

*Tashqi tadbirlarni muvofiqlashtirish quyidagi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi:*

*-Tashqi ishlar vazirligi yoki aynan shu ishni bajaradigan mahkama; -Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi.*

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati -davlatimiz tashqi siyosatining fundamental prinsiplari va strategik ustuvor yo‘nalishlarini, xalqaro maydondagi maqsad va vazifalarini, o‘rtta va uzoq istiqbolda O‘zbekiston milliy manfaatlarini ilgari surish mexanizmlarini belgilab berdi. Uning faoliyati xalqaro huquqning umume’tirof etilgan norma va prinsiplariga, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizomi, Inson huquqlari umumjahon deklaratasiysi, Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiyaga, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining Xelsinki yakuniy aktiga va boshqa tegishli hujjatlarga mos keladi.<sup>4</sup>

Ayni qonun doirasida qabul qilingan Konsepsiyaning O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari to‘g‘risidagi bayonida quyidagilar belgilab qo‘yildi:

*- dunyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlashga hamda umume’tirof etilgan xalqaro norma va prinsiplarga rioya etishga sodiqlik;*

<sup>4</sup> Каранг. Қадр –қимматим, таянчим , ва ифтихоримсан Мустақил Ўзбекистон. Т. “Маънавият.2013.

- *mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik; - teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlatlarning suvereniteti, hududiy yaxlitligi, chegaralar daxlsizligi, ichki ishlarga aralashmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid solmaslik tamoyillari.*

Tashqi siyosatning qolgan subektlari, zaruratdan kelib chiqqan holda, yuqorida ko'rsatilgan mahkamalarning nazoratida O'zbekiston tashqi siyosatini shakllantirishda qatnashishi mumkin. Chunki mazkur mahkamalarning faoliyati, tashqi siyosatni muhim muammolaridan iborat bo'lgan barcha kompleks masalalarni o'z ichiga oladi. Yuqorida ko'rsatilgan siyosiy institutlar, shuningdek xalqaro va iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishida vaziyatga to'g'ri baho bergen holda, davlat manfaatlaridan kelib chiqib unga ta'sir o'tkazish mumkinligi aniqlashadi.

Shunday qilib, geosiyosat asrining bugungi tahlili global tig'iz axborotlashgan jamiyat sharoitida turganligimizni tasdiqlayotir. Jahon hamjamiyatidagi shiddatli o'zgarishlar insonlarning ijtimoiy va shaxsiy xayotida ulkan evrilishlarni nazarda tutmokda. Albatta bularning barchasi axborotlashgan jamiyatning shakllanish sharoitida aniq bir o'lchamga ega bo'lgan davlat axborot siyosatiga e'tiborni kuchaytiradi. Ayniqsa, uning ahamiyati axborot kurashi kuchaygan paytda yanada seziladi.

O'zbekiston Respublikasi axborot sohasidagi davlat siyosati axborot xurujlari kuchaygan bir davrda qator tashqi davlatlar tomonidan axborot tahdidi konsepsiyanining ishlab chiqilishini tashqi tahdid darajasida ko'rib chiqishni taqozo qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston davlat axborot siyosatini amalga oshirishning asoslari bo'yicha davlat dasturining ishlab chiqilishi- davlat axborot siyosatining axborot xurujlari davrida axborot xavfsizligini ta'minlash tizimining asosiy komponenti tariqasida ko'rishni belgilab beradi.

Shu bilan bir qatorda tahlillar bugungi tashqi siyosiy targ'ibotning umumiyligi tamoyillardan foydalanishning samarasi past ekanligini ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda davlat axborot siyosati hamda axborot xavfsizligini ta'minlashning xususiyatlarini, asosiy omillarini, ayniqsa, axborot xavfsizligini ta'minlashning axboriy-mafkuraviy jihatlaridan yetarli foydalanish bo'yicha tajriba va malakaga ega bo'lish hamda OAV institutlarini boshqaruvida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun O'zbekiston turli axborot xurujiga qarshi tura oladigan davlatning samarali tizimini yanada takomillashtirish- milliy jurnalistikaning mafkuraviy asoslarini ilmiy jihatdan boyitish ehtiyojini qondiradi.

Chunki ayni geosiyosiy tahlillar tufayli axborot xavfsizligini ta'minlash tushunchasi ma'lum bir xalq, millat, mamlakat hayotida jiddiy ijtimoiy xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan zamonaviy-ruhiy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan tinchlik va barqaror taraqqiyot yo'lida unumli foydalanish, uni boshqarish usullaridan foydalanishni taqozo etadi.

Geosiyosiy jarayonlarning globallashuvida axborot omili muhimdir. Bunda mintaqalarda geosiyosiy raqobatning kuchayishi hamda axborot tahdidlарining o‘ziga hosligi, tashqi siyosatning axborot ta’mnoti – davlatning strategik maqsadi hisoblanishi kerak. Hozir mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida axborot omili geosiyosiy raqobat mualliflari bo‘lmish “soxta demokratiya” tarafdarlarining maqsadiga aylanganligi ko‘p ta’kidlayapmiz.

Ular faoliyatining axborot makonidagi o‘rnini anglash, geosiyosiy axborot almashinuvida muhim pozitsiya hisoblanadi. Shu tariqa axborot xurujlari davrida manbalarning haqqoniyligi masalasi jiddiylashadi.

Geosiyosiy da’volar OAV fenomeniga kuchli ta’sir o’tkazmoqda. OAV orqali geomafkuraviy maqsadlarni oldinga surish jahon tajribasida axboriy makonlarning geosiyosiy raqobatini yaqqol nomoyon qiladi. Axboriy qaramaqarshilik, axborot assimmetriyasi, axboriy ustunlik, axboriy qaramaqarshlikning obektlari, subektlari degan yangi tushunchalarni amaliyotga joriy qilinmoqda. Davlatlar, ittifoqchilar va koalitsiyalar, halqaro tashkilotlar, nodavlat noqonuniy harbiy birlashmalar, terroristik, ekstremistik, diniy radikal, siyosiy radikal yo‘nalishdagi tashkilotlar, Transmilliy korporatsiyalarning manfaatlarini ifodalaydigan- virtual ijtimoiy jamiyatlar yuzaga keldi.

Ayni ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalari, virtual koalitsiyalar tomonidan axborot-psixologik jarayonlarni tashqaridan boshqarish amaliyoti ham taassufki bugungi kunning yangiligi emas. Shu tufayli tashqi siyosiy - axboriy tahdid geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirish vositasi, jumladan tashqi siyosatni amalga oshirishning o‘ziga xos zamonaviy shakli sifatida nomoyon bo‘lmoqda. Tashqi siyosat strategiyasini hayotga tatbiq etishda tizimli tarzda tegishli axborot-tahlil ishlarini tashkil kilish va intensiv rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demak xalqaro maydonda, mamlakatimiz tevarak-atrofida yuz berayotgan voqeahodisalar rivojini uzlusiz monitoring kilish, milliy xavfsizligimiz va manfaatlarimizga tahdid solayotgan yoki solishi mumkin bo‘lgan xavfxatarlarni aniqlash, oldindan ko‘ra bilish hamda chuqur tahlil etish tendensiyalarini aniqlab borish – o‘zbek xalqaro tizimi taxlit matabining dolzarb vazifasidir.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

4. Raqobat asrida axborot fenomeni deganda nimalarni tushundingiz?
5. Jurnalist faoliyatida axborotlarni filtrlash qobiliyatini shakllantirishning ilmiy mezonlarini sharhlab bering.
6. Tashqi siyosatni tahlil etishning zamonaviy tendensiyalari haqida gapirib bering.
7. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlarini gapirib bering.
8. Axborot asri geosiyosat va jurnalistika fanining predmet maydoniga qanday ta’sir o‘tqazdi?



## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

### **MASHG‘ULOT O‘TISH TEXNOLOGIYASI**

#### O‘quv texnologiya modeli

Mashg‘ulot soati – 90 daq.	O‘quvchilar soni: 9-10 kishi
O‘quv mashg‘ulot turi	Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish
Mashg‘ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none"><li>1. O‘quv mashg‘ulotni olib borish</li><li>2. Bilimlarni aktualigi</li><li>3. Kichik guruxlarda organayzerlar bilan ishslash</li><li>4. Natijalarni namoyish etish</li><li>5. Baxolashni eng yaxshi usullarini tanlash va muxokama qilish.</li><li>6. Yakunlash. Gurux va talabalarni mashg‘ulotdagi o‘zlashtirish darajasiga ko‘ra baxolash.</li></ol>
1. O‘quv mashg‘ulot maqsadi: Axborot sohasini isloh etish va yoshlar tarbiyasi turlarini ko‘nikmalarini chuqurlashtirish. Axborot sohasini isloh etish va yoshlar tarbiyasi umumiyl xolatini baxolash va taxlil qilish; Mafkuraviy pedagogik tashxis qo‘yish uchun xarakat algoritmini to‘g‘ri tanlash; Axborot sohasini isloh etish va yoshlar tarbiyasi mustaqil analiz bera olish;	
O‘qtuvchining vazifalari: Axborot sohasii isloh etish sabablarini chuquroq va kengroq o‘rganish. Yoshlarda mafkuraviy immunitet sindromi bilan kelgan	Mashg‘ulot jarayoni natijasi: Organayzerlar bilan ishslash natijasida talaba quyidagi ko‘nikmalarni egallaydilar: Axborot sohasii isloh etish

<p>yoshlar xolatini baholash va jarayoni taxlil qilishni shakllantirish, befarqliq, loqayd fukorolarni birlamchi bosqich darajasida qiyosiy tashxislash, shoshilinch tarbiyaviy yordam ko‘rsatish o‘z vaqtida mafkuraviy profilaktika ishlarini tashkillashtirishni olib borish.</p> <p>Rejalashtirilgan o‘quv jarayonini natijasi – organayzerlar bilan ishslash natijasida talaba quyidagi ko‘nikmalarni egallahsga yordam berish:</p>	<p>sabablarini chuquroq va kengroq o‘rganadi. Yoshlarda mafkuraviy immunitet sindromi bilan kelgan yoshlar xolatini baholash va jarayoni taxlil qila oladi, qiyosiy tashxislash, shoshilinch tarbiyaviy yordam ko‘rsatish o‘z vaqtida mafkuraviy profilaktika ishlarini tashkillashtira oladi.</p>
O‘qitish usullari	Organayzerlar, amaliy usul
O‘qitish jixozlari	Organayzerlar, metodik qo‘llanmalar
O‘qitish turi	Mustaqil, gurux bilan
O‘qitish sharoiti	Kichik guruxlar bilan ishslashga moslashtirilgan texnik jixozlangan auditoriya
Monitoring va baxolash	Kuzatish, blits so‘rov, prezentatsiya, baxolash.

Ta’lim texnologiyasi asosan ushbu fan bo‘yicha tahsil beradigan pedagogo‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan.

## **FANNING VAZIFALARI**

Dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasi, unda kechayotgan g‘oyaviy kurashlardan ko‘zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish;

- Yoshlarda siyosiy jarayonlarni tahlil etish doirasida tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini mustahkamlagan holda ularda o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib yashash hissini shakllantirish;

- Yoshlarda tashqi siyosiy tahdidlarga, “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi turli xil xatti-harakatlarga nisbatan doimo ogoh, sezgir va xushyor bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- Global siyosiy jarayonlarning mazmun-mohiyatini yoritgan holda bu jarayonlarning ham ijobiy, ham salbiy tomonlarini tahlil qilish;

- Davlatimizning vijdon erkinligi sohasida olib borayotgan siyosatini hamda uning amaliy natijasi bo‘lmish, qaror topgan diniy bag‘rikenglik muhitini yoshlar orasida keng yoyishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligini oshirish;

- Turli davlatlarining milliy siyosatidagi totuvlikni mustahkamlash tomon qaratilgan tadbirlarning mohiyatiga e’tiborni kuchaytirish;

- Sog‘lom fikr va dunyoqarashga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash, ularning salohiyatini vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo‘lida safarbar qilishga, navqiron avlodda vatanparvarlik tuyg‘usi, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yana ham katta e’tibor berish;

- Yoshlar ongida ozod shaxs va erkin fuqaroning asosiy jihatlarini shakllantirgan holda ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish orqali ularda Vatan taqdiriga ma’sullik tuyg‘ularini shakllantirish;

- G‘oyaviy kurashchanlikning negizlari haqida bilim va tushunchalarga ega bo‘lish orqali yoshlarda tarixiy xotira, daxldorlik, ma’naviy jasorat, buyuk kelajak uchun ma’sullik, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini mustahkamlashdan iborat.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining to‘laqonli rivojlanishini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni

loyihalashtirish jarayonida ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarining o'zaro bog'liqligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Individning jarayonli sifatlarini shakllantirish, ta'lim oluvchining faoliyatini faollashtirish va tezlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari.

Tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondashuv o'quv jarayoni ishtirokchilarining psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini shakllantirish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyat kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida demokratik tenglik, hamkorlik kabi o'zaro subektiv munosabatlarga, faoliyat maqsadi va mazmunini birgalikda shakllantirish va erishilgan natijalarni baholashga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish asosida ta'lim oluvchilarning o'zaro faoliyatini tashkil etish usullaridan biridir. Bu jarayon ilmiy bilimlarning obektiv qarama-qarshiligi va ularni hal etish usullarini aniqlagan holat, dialektik tafakkurni hamda ushbu usullarni amaliy faoliyatda ijodiy qo'llashni shakllantirishni ta'minlaydi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vosita va usullarini qo'llash – bu yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashdir.

O'qitish uslublari va texnikalari. Ma'ruza (kirish, mavzuli, ma'lumotli, ko'rgazmali (vizuallashgan) tahlil, ilmiy anjuman, aniq vaziyatlarga yondashuv), munozara, muammoli uslub, pinbord, aqliy hujum, tezkor so'rov, savol-javob, amaliy ishslash usullarini o'z ichiga oladi.

O‘qitishni tashkil etish shakllari: dialog, pollog, muloqot, hamkorlik va o‘zaro o‘qitishga asoslangan frontal, jamoaviy va guruhlarda o‘qitish.

O‘qitish vositalari: o‘qitishning an’anaviy vositalari (o‘quv qo‘llanma, ma’ruza matni, tarqatma materiallar) bilan bir qatorda – chizmali organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: talabalar bilan tezkor va faol muloqotga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlari.

Tezkor va faol aloqalarning (ma’lumotning) usul va vositalari: tezkor so‘rov, o‘qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beradigan texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining bирgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.


Monitoring va baholash: o‘quv mashg‘ulotlari davomida mavzu yuzasidan nazorat savollarini berib borish orqali o‘qitishning natijalari rejali tarzda kuzatib boriladi. Mashg‘ulotlarning oxirida test topshiriqlari yordamida talabalarning bilimlari baxolanadi

## **MASALALAR VA MASHQLAR TO‘PLAMI AMALIY (SEMINAR) MASHFULOTLAR UCHUN O‘QUV TOPSHIRIQLAR**

**Mavzu:** Axborot sohasini isloh etish va yoshlar tarbiyasi .

**1-o‘quv topshiriq**


**“Axborot sohasi ” so‘ziga klaster tuzing**



## 2-o‘quv topshiriq

**Jadvalni to‘ldiring**

**«Nima uchun» organayzerni to‘ldiring**



Nima uchun?

## 3-o‘quv topshiriq

**«T-sxema» jadvalini to‘ldiring**

Axborot xuruji va unga xos bo‘lgan	“Ommaviy madaniyat” va uning
------------------------------------	------------------------------

xususiyatlar	ko‘rinishlari

#### 4-o‘quv topshiriq

FSMU jadvalini to‘ldiring

Savol	“Internet –mafkuraviy xuruj obekti”
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

#### 5-o‘quv topshiriq

«T-sxema» jadvalini to‘ldiring

<p>“To‘rt qadamli” universal model omillarini sanab bering (har bir qadam)</p>	<p>Auditoriyani segmentlashtirishning asosiy omilarini sanab bering</p>
--	---

#### **6- o‘quv topshiriq: “ Yelpig‘ich” jadvalni to‘ldiring**

**Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda OA Vning yutuq va kamchiliklarini to‘ldiring.**

1 guruh uchun

<b>TVning</b>	<b>Yutuqlari</b>	<b>Kamchiliklari</b>

2 guruh uchun

<b>Matbuotning</b>	<b>Yutuqlari</b>	<b>Kamchiliklari</b>

3 guruh uchun

<b>Radioning</b>	<b>Yutuqlari</b>	<b>Kamchiliklari</b>

7-o‘quv topshiriq

«Blits-so‘rov» savollariga javob bering

Nº	Savollar	Javoblar
1.	Mafkuraviy poligon tushunchasi	
2.	Mafkuraviy profilaktika tushunchasi	
3.	Mafkuraviy immunitet tushunchasi	
4.	Siyosiy madaniyat tushunchasi	
5	Yoshlar tarbiyasi tushunchasi	
5.	Mafkuraviy xavfsizlik tushunchasi	
6.	Ijtimoiy- ciyosiy institutlarga nimalar kiradi	


2-o‘quv topshiriq

FSMU jadvalini to‘ldiring


Savol	“Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning omili nimada?”
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

8-o‘quv topshiriq

“Nima uchun?” jadvalini to‘ldiring



“Nima uchun ?” texnikasidan foydalanib “Nima uchun axborot makonimizga ximoya kerak?” savoliga javob bering.



Mustaqil ishslash uchun nazorat savollar:

- 1.Fuqarolik jamiyatining sifatlarini tasniflang
- 2.O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlari xakida gapiring

- 3.Fuqarolik jamiyati asosini nima tashkil etadi?
- 4.Fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartlari nimalardan iborat?
  - a. OAV tushunchasini ta’riflang.
  - b. OAV qanday siyosiy vazifalarni bajaradi?
- 5.Hozirgi sharoitda OAV siyosiy rolining oshib borishi qanday tushuntiriladi?

## GLOSSARIY

**Axborotni soxtalashtirish** (dezinformatsiya) (*fran, des - “salbiy” va information - “axborot”*) - muayyan guruh va doiralarning g‘arazli maqsadlariga erishish yo‘lida soxta ma’lumotlardan foydalanish asosida ijtimoiy fikrni chalg‘itish maqsadida matbuot, radio va TVda qo‘llanadigan usul, vosita. Masalan, Ikkinchı jahon urushi davrida u tashviqotda keng qo‘llangan. *Dezinformatsiya* turlari: a) soxta axborot, ovoza va shov-shuvlar tarqatish; b) konfidensial ma’lumotlar “oqib ketishi”ni tashkil qilish; v) muayyan faktlarni bo‘rttirib yoritish, ziddiyatlari xabarlarni tarqatish. *Dezinformatsiyaning tarixi*, avvalo, OAVning paydo bo‘lishi va shakllanishi bilan uzviy bog‘liq, uning mazmun-mohiyati asosan siyosiyligi, g‘arazli maqsadlarni ko‘zlagan intilishlarda namoyon bo‘ladi.

**Axborot quroli** bu — axborot massivlarini yo‘q qilish, buzish yoki o‘g‘irlash vositasi, tarmoq tizimini buzib kirish orqali kerakli ma’lumotlarni bilib olish, ularga qonuniy foydalanuvchilarining kirishini ta’qiqlash yoki cheklash, texnik vositalarining ishlarini buzish, telekommunikatsion tarmoqlarni ishdan chiqarish, kompyuter tizimlarini, jamiyatning texnologik extiyojlarini qondirishdagi jarayon va davlat faoliyatining barcha bo‘g‘inlarini ishdan chiqarishdir.

**Axborot xavfsizligi-** *nafaqat davlatniig axboriy resurslarini, balki fuqarolarining huquqlari va jamiyatning barcha strukturalarini axborot makonidagi himoyasini ifodalaydi. O‘zbekiston Respublikasiniig axborot xavfsizligi - shaxs, jamiyat va davlatning o‘zaro muvozanatlashgan umummiliy manfaatlarni axborot xavfsizligining himoyalanishi.* **Davlat axborot xavfsizligi-** barcha axborotlar tizimlarining himoyalanganlik darajasiga bog‘liq jarayon. Bunda asosiy va zaruriy iqtisodiy, siyosiyligi, ijtimoiy, fantexnika, ta’lim-tarbiya, harbiy hamda mamlakatning milliy manfaatlariiga zid keladigan axboriy tahdidlarning oldini olish, axborotlarni noqonuniy yo‘llar bilan olishni barataraf etishning qat’iy chora va tadbirlar ko‘rilishi maqsad qilib belgilanadi. Axborot xavfsizligi ayni axboriy tahdidlarning oldini olish va bartaraf qilishga yordam berish davlat tadbiralarining yaxlit tizimi. Hozir axboriy xavfsizlik xarbiy xavfsizlikning komponenti sifatida ham ishlatilib, harbiy sohadagi axboriy resurslar, kanallar, bilimlar va ma’lumotlar bazasining mavjudligi, ularning asosida axborotlarni qayta ishlanishi, saqlanishi va qo‘llanilishidagi xavfsizlikni anglatmoqda.

**Axborot urushi** - dushmanning axborot tizimlariga ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan amalga oshiriladigan ayni paytda o‘zining axborotlarini himoya qilish harakatlari. O‘zga davlat tinch aholisi yoxud harbiylariga muayyan axborot tarqatish yo‘li bilan ta’sir o‘tkazish.

**Agressor-** ko‘proq harbiy sohaga tegishli tushuncha bo‘lib, BMT Nizomlariga zid ravishda davlat suvereniteti, hududiylar daxlsizligi va siyosiyligi mustaqilligiga biron bir davlatning harbiy kuch ishlatishiga aytildi. Hozir axborot inqilobi asrida agresorning

axboriy xujum, axboriy tajovuz tushunchasi bilan ifodalanishi geosiyosiy tahlillarda qayd qilinmoqda.

**Axboriy xuruj-** axboriy xuruj bu haqiqiy qurolli urushga qo‘yilgan birinchi qadamdir. Axborot xavfsizligini ta’minlashning bugungi kundagi dolzarbligi shu holat bilan belgilanadi. Insoniyat “axboriy jamiyat” deb atalmish yangi bir davrga qadam qo‘yayotgan ekan, axborot xavfsizligini ta’minlash har doimgidan ham zarurdir. U muayyan kuchlar tomonidan inson ongi va qalbiga yot g‘oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e’tiqodi va tuyg‘ulariga ta’sir etishning mafkuraviy omillaridan, jamiyat turmush tarzi va mentalitetidagi o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun unga moddiy, ma’naviy, ruhiy ta’sir o‘tkazishning noan’anaviy va noxolis usullaridan foydalanish asnosida geosiyosiy maqsad va muddaolarni amalga oshirish majmuasini anglatadi.

**Aqidaparastlik** – muayyan sharoitda, biron-bir g‘oya yoki tamoyilga qat’iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko‘r-ko‘rona qo‘llashga urinish. Bu atama faqat salbiy ma’noda qo‘llanib, muayyan olim yoxud oqim tomonidan bayon etilgan qonun va qoidalar ta’sir doirasini sun’iy ravishda kengaytirishga urinishni anglatadi.

**An’ana** – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma’naviy faoliyat shakllarining, kishilar o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddanavlodga o‘tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi.

**Anarxizm-** har qanday hokimiyat va davlatni inkor etuvchi, harkim o‘ziga xo‘jayin degan qarashlarga asoslanuvchi ijtimoiy siyosiy oqim. Bu hoyda beboslik va tartibsizlikka olib boradi, taraqiyot yo‘lidan adashtiradi, vayronkor mohiyatga ega.

**Bir qutbli dunyo** - «sovnuq urush» da SSSRning mag‘lubiyatidan keyin vujudga kelgan geosiyosiy tartib.

**Blok** – bir necha davlatlarning birlashmasi hisoblanib, ularning strategik va geosiyosiy jihatdan e’tiborli harakatlari umumbashariy darajadagi o‘zgarishlarga olib keladi.

**Vatan ravnaqi** – har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg‘unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo‘lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g‘oyadir

**Vayronkor (buzg‘unchi) g‘oyalar** – 1) bunyodkor g‘oyalarga zid bo‘lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g‘oyalar majmuini ifodalaydigan tushuncha; 2) insonni va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g‘arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan g‘oyalardir.

**Global geosiyosat-** umumbashariy xavfsizlik bilan bog‘liq geosiyosiy jarayonlar majmuasi. Turli mintaqalar va mamlakatlar o‘rtasida ananaviy to‘siqlarning geosiyosiy darajada buzilib ketish jarayonlari. Uchinchi mingyillikda xalqaro xavfsizlikning barcha parametrlari o‘zgarmoqda. Agar xavfsizlik ilgari harbiy kuchlar muvozanati, konfliktlar darajasi va jahon urushi tahdidiga, jumladan qurallanish poygasini to‘xtatish kabi geosiyosiy omillarga bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi paytda axborot

quroli bilan bog‘liq yangi global geosiyosat yuzaga keldi. “Globallashuv”, “global axboriy makon” kabi atamalarning muomalaga kirishi esa zamonaviy dunyoning siyosiy jarayonlari, ularning rivojlanish tendensiyalarini muhim masalaga aylantirdi.

**Geosiyosatning obekti-** dunyoning geosiyosiy tuzilish va xalqaro dunyoviy tartibot tizimidagi geosiyosiy jarayon va hodisalardir. Geosiyosat obektida jahoning geosiyosiy xaritasi turishi birinchi navbatda, dunyoning ko‘p qutbli dunyoga aylanishi bilan xalqaro munosabatlarning yangi bir transformatsiya - davlatlarning o‘z ta’sir doiralari uchun kurashning yangi bosqichiga ko‘tarilishi bilan bog‘liqligini tasdiqlaydi. U jamiyat tafakkurida ko‘p qirrali dunyoviy siyosat tushunchasining shakllanishidan kelib chiqadi. Mazkur masalalar geosiyosat obektida yaxlit holatda turishi mumkin, biroq geosiyosat ularni tahliliy jihatdan o‘rganishni bir qator bosqichlarda ko‘radi. Masalan, zamonaviy geosiyosat dunyoning siyosiy xaritasida kechayotgan jarayonlarni umumbashariy, mintaqaviy va ma’lum bir davlatning dahldorligidan kelib chiqib, tahlil etadi va tegishli xulosalarni chiqaradi.

**Geosiyosat predmeti**— umumbashariy va mintaqaviy muammolarni hal qilishda geosiyosat subektlari munosabatlari, jamiyatda kechayotgan har xil darajadagi axboriy-mafkuraviy jarayonlar, ularning yuzaga kelishi, harakatlanishi va o‘zgarib borishini o‘zida aks ettiruvchi voqealar rivoji.

**Geosiyosiy mintaqqa** — bu siyosiy, iqtisodiy, madaniy, savdo va boshqa aloqalar uchun qulay imkoniyatlarga va istiqbollarga ega bo‘lgan geografik maydon hisoblanadi.

**Geosiyosat** - ("Geopolitika") so‘zi yunon tilidagi "geo" (yer) va "politicos" (davlatni boshqarish san’ati) jumlalaridan olingan. Davlat va xalqlarning o‘zlarini joylashgan hududning geografik, tabiiy - iqlim sharoitlariga mos ravishda shakllanishini ifodalovchi mafkuraviy fan. Geosiyosatning vazifasi siyosiy jarayonlarning geografik makondagi o‘zaro aloqalarni, zaminga va madaniy omillarga ta’sirini o‘rganish, sayyoraviy makonni nazorat etishdir. Bu jihatdan geosiyosatni amaliy siyosatni boshqarish haqidagi fan deyish mumkin.

**Geostrategiya** – geosiyosiy tahlilning harbiy jihat.

**Demokratiya eksporti** - inqilobiylar tarqatuvchilarda inson hukuqlarining umumiyligi deklaratsiyasidan iqtiboslar, ularda "nodebekratik" rejimlar sayyoramizdagi - qashshoqliqdan boshlab, atrof-muhitning ifloslanishiga, xotin-kizlar kamsitilishidan tortib, etnik tozalov va genotsidgacha bo‘lgan barcha kulfatlar sababchisi sifatida tilga olinadi. Bunday paytda, shuningdek, "xalkaro siyosat - umumiyligi demokratiyaning yoyish va olg‘a surishdan iboratdir" degan qarashlar avjiga chiqadi. Shu tariqa axborot makonlarida "demokratiyaning dunyoga yoyish" siyosatining bayoni berila boshlanadi.

**Diniy bag‘rikenglik** – xilma-xil diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashi.

**Suverenitet**- davlatning ichki va tashqi siyosatidagi to‘la mustaqilligi. Davlat suvereniteti mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borish, o‘z hududining daxlsizligini ta’minalash; qonunlarni qabul qilish; urush va tinchlik masalasini hal qilish; sud

hokimiyatini amalga oshirish; mansabdar shaxslarni tayinlash; mustaqil valyutaga ega bo‘lishni taqozo qiladi. Davlat suvereniteti g‘oyasi BMT hujjatlarida, turli davlatlarning konstitusiyalarida o‘z aksini topgan. Respublikamizning mustaqilligi davlat mustaqilligining asosidir. O‘zbekiston Konstitusiyasi 1–moddasida “O‘zbekiston –suveren demokratik respublika” ekanligi belgilab qo‘yilgan. Bizning siyosiy mentalitetimiz suverenitetning mazmun mohiyatini mustaqillik tushunchasi orqali ifodalaydi.

**Milliy istiqlol g‘oyasi** – Milliy istiqlol g‘oyasi O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-ideallarini, olijanob maqsad-muddaolarini o‘zida mujassam etadi.

**Mafkuraviy immunitet** – lotincha Immunitatis so‘zidan olingan bo‘lib – biror narsadan ozod etish ma’nosini anglatadi. Shaxs, ijtimoiy gurux, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta’sirlardan ximoyalashga xizmat qiluvchi tizim

**Manipulyatsiya** - (*lot, manipulus – “qo‘l harakati”*) - 1) qo‘l mashqi, qo‘l harakati, shu jumladan, qo‘l mahoratiga tayangan fokus namoyish qilish; 2) maxinatsiya, aldov, tovlamachilik, qalloblik orqali g‘arazli maqsadga erishish; 3) odamda ma’lum motivatsion holatlarning (hissiyotlar, attityudlar, stereotiplar) faollashuviga olib keladigan kommunikatsion ta’sir. Bu ta’sir odamni har qanday xatti-harakatga undashi mumkin. Ayrim mutaxassislarning ta’kidlashicha, *manipulyatsiya* - psixologik ta’sir turlaridan biri hisoblanib, kishini ma’lum xatti-harakatlarni amalga oshirishga bilvosita undash orqali bir tomonlama yutuqqa erishish maqsadida foydalaniladi. Axborot asrida boshqa kishilarning ongi va qalbiga yashirin, g‘araz maqsad bilan ta’sir ko‘rsatishni ifodalashda manipulyatsiya so‘zi «obekt ustidan biror maqsadda ish olib borish» ma’nosida ishlatilmoqda. Bunda chaqqonlik, mahorat talab qilinishi ko‘zda tutiladi. Shu sababli, "manipulyatsiya"ni ko‘chma ma’noda "odamlar bilan obekt sifatida munosabatga kirishish" deb ham tushunish mumkin. Sotsiologik tadqiqotlarda bu haqda «boshqalarga bildirmasdan, asl maqsadni yashirin tutgan holda boshqalar ustidan hukmronlik qilib, o‘zi istagan hulq-atvorni shakllantirish» deyiladi.

**Makon** - geosiyosatning asosiy tushunchasi bo‘lib, u miqdor va sifat ko‘rsatkichiga ega bo‘lmagan kategoriya hisoblanadi. Makonning tarkibiy tuzilishi tarixning tarkibiy tuzilishini oldindan belgilaydi - geosiyosatning fan sifatidagi asosiy tezisi ana shundan iborat.

**Ommaviy madaniyat** – jamiyatda aholining keng qatlamlari orasida yoyilib, ustuvor bo‘lgan madaniyat. U o‘z ichiga maishiy hayot, qiziqishlar (sport, popmusiqa), ommaviy axborot vositalari kabilarni oladi. «Ommaviy madaniyat» mohiyatiga ko‘ra aholi aksariyat qismining hayotini tashkil etgan voqeahodisalar, intilishlar va ehtiyojlar bilan to‘lib toshgan. «Ommaviy madaniyat» o‘z nomi bilan omma, ya’ni ko‘pchilik ehtiyojiga mo‘ljallangan bo‘lib, bu shakl va mazmun standartlashganligi, shuningdek tijorat nuqtai nazaridan muvaffaqiyatga qaratilganlikni taqozo etadi.

**Ommaviy axborot vositalari** – fuqarolik jamiyatining muhim instituti. OAV demokratiyani chuqurlashtirish aholining demokratik faolligini oshirishda, fuqarolik mamlakat siyosiy va ijtimoiy, madaniy hayotdagi voqealikka nisbatan daxldorlik hissini shakllantirishda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati, shuningdek

jamiyatda yuz berayotgan barcha o‘zgarishlar, amalga oshayotgan barcha o‘zgarishlar, amalga oshayotgan jarayonlar xususida keng jamoatchilikka yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilikka ko‘ra ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byullitenlar va b.) va elektron tarzda (tele, radio, video, kinoxronikal dasturlar, telekommunikatsiya tarmog‘laridagi veb-saytlar) olti oyda kamida beriladigan shakllari OAV sifatida beriladigan shakllari OAV sifatida e’tirof etiladi. XXI asrga kelib OAV davlatning hayotida muhim o‘rin tuta boshladi. Texnika va texnologiyaning taraqqiyoti OAVning xalqaro munosabatlardagi mavqeini o‘zgartirdi. U geosiyosiy nazorat o‘rnatishning kuchli quroliga aylandi.

**Pragmatik** – o‘z amaliy faoliyatida ko‘proq foyda olishni o‘ylaydigan va shunga ko‘proq foyda olishni o‘ylaydigan va shunga ko‘proq ahamiyat berish zarur deb bilguvchi shaxs.

**Periferiya (markazdan chetdagi, uzoqdagi joylar)**— strategik poytaxtdan, geosiyosiy nuqtai-nazardan asosiy qarorlarni qabul qiluvchi shaxsdan uzoqda joylashgan, o‘zining mustaqil geosiyosiy yo‘nalishiga ega bo‘lmagan makon va yerni ifodalovchi tushuncha.

**Tashviqotda “aqlni yuvish”- Miyani “yuvish”** - miyani “yuvish” (*ingl, brainwashing; brain - “miya”; wash - “yuvmoq”, “tozalamoq”*). Bu insonning avvalgi fikrlari, qarashlarini rad etib, unga o‘zgacha yoki butunlay teskari fikrlarni qabul qildirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Ba’zi mutaxassislar buni nazorat ostidagi individuumlarga zo‘rlik bilan o‘tkaziladigan, o‘z fikr-e’tiqodini o‘zgalar fikrlari, qarashlari, hulqi va qarorlarida ustuvorlik qilishini ta’minlashga qaratilgan ruhiy taktika deb hisoblaydilar. Bunda qo‘rqitish, ongga ta’sir qilish, doimiy savol berish kabi usullardan foydalilanadi.

**Hududiy yaxlitlik** - chegaralar daxlsizligi va hududiy yaxlitligi birgina armiyaning harbiy salohiyatini kuchaytirish bilan cheklanmaydi. Davlat hududiy yaxlitligi, uning barqarorligi, xavfsizligi, chegaralari daxlsizligini ta’minalash - uning tashqi siyosiy diplomatiyasi salohiyatiga bog‘liq geosiyosiy jarayondir. Amaliyot *davlat chegaralari* rolining geosiyosat vositasi sifatida keskin o‘sayotganligini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda insoniyat xarakteriga ko‘ra misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarni boshidan kechirishga majbur bo‘lmoqda. Bu hol ayniqsa geosiyosiy koordinatlar tizimidagi o‘zgarishlarda namoyon bo‘lmoqda. Odatda, mazkur o‘zgarishlar davlat chegaralarida boshlanadi va kuchli aks etadi. Rasmiy belgilangan chegara bilan konkret davlat yoxud mamlakatlar guruhi ta’sir doirasi o‘rtasidagi beqiyos hajmda geosiyosiy ziddiyatlarning o‘tkirlashuvi-umumbashariy, mintaqaviy kelishmovchiliklarning kuchayib ketishiga va davlat hududiy yaxlitligiga tahdidiga olib kelishi mumkin.

**Kosmopolitizm**- “jahon davlati” va “jahon fuqoroligini “ targ‘ib qiluvchi talimot. U jaxon miqyosida axborot imkoniyatlari oshib borayotgan axborot asri davrida “Vatan” tushunchasi nisbiy xarakterda ekanligini ro‘kach qilib, bugungi kunda ayrim insonlarning Vatanga bog‘lanib qolishi shaxs erkinliklarining cheklanib qolishiga olib kelmoqda deb ta’kidlashadi.

**Kiberterrorizm** (lot, cyber terrorism; cyber - “kiber”, terror – “qo‘rquv”, “dahshat”) – zamonaviy, ilg‘or texnologiyalar, kompyuter va boshqa imkoniyatlardan foydalangan holda yovuz kishilarning o‘zining g‘araz niyatlariga erishishdan iborat. Kiberterrorizm (kompyuter terrorizmi) ostida g‘arazli niyatda, siyosiy maqsadlarda amalga oshirilgan kompyuter tizimi va tarmog‘idagi axborotga qilingan hujum tushunilib, u odamlar hayoti va sog‘lig‘iga xavf paydo qilib, jamoatchilik tinchligini buzadi, aholini qo‘rqtib, harbiy nizo keltirib chiqarishga intiladi. Kiberterrorizm insoniyat uchun jiddiy xavf bo‘lib, uni yadro, bakteriologik va kimyoviy quroqla tenglashtirish mumkin. Hatto u o‘z yangiligi tufayli to‘la-to‘kis o‘rganib ulgurilmagan quroldir.

**Kuchlar muvozanati** - turli davlat va guruhlarning qudratiga bog‘liq o‘zaro aloqadorlikdan kelib chiqadagan hamkorlikning natijasida paydo bo‘ladi. Kuchlar muvozanati – teng vaznlilik emas, balki dinamik ravishda turli o‘yin elementlaridan kelib chiquvchi kuchlar munosabatidir. “Darvoza mamlakat” tushunchasi orqali qulay sharoitga ega bo‘lgan o‘rta miqyosdagi davlatning turli geosiyosiy bloklar mahoratlaridan unumli foydalanishi, mintaqadagi kuchlar nisbati muammosi – hozirgi xalqaro jurnalistik tahlillarning asosiy mavzusi.

**Ko‘p qutbli dunyo** - bu bir qancha ulkan makonlarning birgalikda mavjud bo‘lishini nazarda tutuvchi zamonaviy sof nazariy majmua. Bu holat faqat bir qutbli dunyo bartaraf etgilgandan keyingina bo‘lishi mumkin.

**Siyosiy borliq** — bu geosiyosatning asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Siyosiy jurnalistikada davlat (kuch) geosiyosatning markaziy tushunchalaridan biri hisoblansa, siyosiy borliq davlatning siyosiy holati va hayotiy mazmunini ko‘rsatib beruvchi muhim omil tariqasida aks etadi. Siyosiy borliqda davlatning turmush tarzi namoyon bo‘ladi. O‘z navbatida jurnalistikada borliq tushunchasi geosiyosat nazariyasining asosi, uning har qanday davlatda chegaralanganligi bilan aks etib bormoqda.

**Siyosiy geografiya** – F. Ratsel tomonidan ilgari surilgan atama hisoblanib, Chellen tomonidan nomlangandan keyin ochig‘i «geosiyosat» deb nomlanadigan bo‘ldi.

**Separatizm** - chekka hududlarning muxtoriyatiga moyillik, uning iqtisodiy, madaniy, siyosiy va strategik singari bir qancha shakllari mavjud.

**Tashqi taxdidlar** – tashqi tahdidlar asosan g‘oyaviy bo‘shliq tufayli sodir bo‘ladi

**Targ‘ibot** (arab. qiziqtirish, tarqatish) – 1) keng ma’noda, ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo‘lib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy g‘oya va qadriyatlarni targ‘ib etishdir. Targ‘ibot jarayonida fan, san’at, siyosiy va mafkura yutuqlari keng ommalashtiriladi, boyitiladi va yanada rivojlantiriladi. 2) tor ma’noda, mafkura va siyosatni targ‘ib etishga qaratilgan faoliyat. Targ‘ibot ilmiylik, konkretlilik, obe’ktivlik, ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog‘liqlik tamoyillariga asoslanishi, tashkiliy jihatdan uyushgan bo‘lishi lozim. Muayyan zamin va makonda ma’lum bir strategik-nazariy masalalarni aholi ongiga izchil singdirishni maqsad qilgan faktor targ‘ibotdir. Targ‘ibot – biror g‘oya, ta’limot, fikr va qarashni aholi o‘rtasida keng yoyish, kishilar ongiga singdirishga

qaratilgan, aniq maqsadni ko‘zlab olib boriladigan tushuntirish va da’vatni, odamlarni muayyan bir vazifani hal qilish, ma’lum bir tartib-qoidalar asosida yashash, mehnat qilishga ma’naviy-ruhiy tayyorlash, g‘oyaviy ruhlantirish, safarbar qilishni anglatadi.

**Umuminsoniy qadriyat** – barcha xalqlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, moddiy va ma’naviy manfaat, mezonlar majmui.

**Umumbashariy** – butun dune, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo‘lmagan muammolarga aytildi.

**Imperiya** – diniy, axloqiy ,siyosiy- mafkuraviy xarakterdagi universal g‘oya ostida bir necha davlat yoki xalqlarni birlashtiruvchi umumdavlat tuzilmasi.

**Integratsiya** – geosiyosatda bir nechta hududiy bo‘laklarni birlashishni ifoda etuvchi ko‘pqirrali shakl. Integratsiya harbiy bosqinchilik yo‘li bilan ham, tinch yo‘l bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Geosiyosiy integratsiyaning bir qancha – iqtisodiy, siyosiy, madaniy, til, strategik, diniy va hakozo yo‘llari mavjud. Ularning barchasi yagona mazmundagi yakuniy natijaga – blokning strategik jihatdan yuksalishiga va hududiy jihatdan kengayishiga olib keladi.

**Feminstlar-ayollarni** kamsitishlardan xalos etuvni targ‘ib qiluvchi, ularning mavqeini jamiyatdagi ijtimoiy voqealar hosilasi sifatida targ‘ib qiluvchi oqim.

**G‘arb individualizmi-** inson shaxsiy hayotining alohidaligini, shaxs xuquqlarining mutlaqligini ifodalovchi axloqiy xususiyat. Individualizm alohida shaxs manfaatlarini jamoa manfaatlairidan utun ko‘radi, oila manfaatini jamiyat manfaatidan alohidalikda olib qaraydi. Bugungi kunda jamiyatda ayrim kishilar faqat o‘zini o‘yplashlik ruhiyati bilan bog‘liq sotsial ma’naviy holatlar g‘arbona individualizmdan ozuqa olmoqda. Bunda o‘zgalardan ustun qo‘yish, boshqalarni mensimaslik, shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yish illatlari yetakchi o‘ringa chiqadi.

**G‘oyaviy tarbiya** – jamiyatdagi mavjud g‘oyalarga faol munosabat, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishdir. G‘oyaviy tarbiya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

**G‘oyaning turli ko‘rinishlari** – Mazmuni va namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra – ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy va umuminsoniy g‘oyalarga bo‘linadi.

**Shovinizm** – millatchilikning o‘ziga xos shakli, boshqa millatlarni mensimaslik va o‘z millatining ularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan g‘oyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyoti

**Fundamentalizm** – ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari surish

**Yurt tinchligi** – mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiy sharti. Tinchlik – insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omilidir

**Ijtimoiy xamkorlik** – turli millat, irq va dinga mansub kishilar va guruxlarning umumiyl maqsad yo‘lidagi hamjihatligi

**Ekstremizm** – O‘z maqsadi yo‘lida har qanday keskin tadbir-choralar ko‘rishga tarafdarlik.

**E’tiqod** – Dunyoqarash. Biror dinga e’tiqod qilish – uni haq deb bilib, uni ta’limotini tan olish.

**Qadriyat** – umumbashariy, umuminsoniy, milliy, mintaqaviy, shaxsiy, diniy turlarga bo‘linadi.

**Fuqarolik jamiyat** – iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayot sohasiga to‘g‘ri keladigan tushunchadir. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiysiyoziy sohasi ko‘lamiga ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar, fuqarolarning turli shakldagi faoliyati, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari ham mansubdir.

**Ehtiyoj** – inson talablari asosida paydo bo‘ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga bog‘liq ekanligini ifoda etuvchi holat.

**Sharqona demokratiya** - urf-odat, qadriyatlarga asoslangan o‘ziga xos demokratiY.

**Irqchilik** – odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo‘ravonlik va urushlarni kishilarning turli irqlariga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g‘ayrimilliy ta’limot. Irqchilar insonlarning ijtimoiy mohiyatini ularning biologik – irqiy (ko‘zi, sochi va terisining rangi, bosh va yuz tuzilishi kabi tashqi, ikkinchi darajali jismoniy) belgilar bilan bog‘lab, ularni oliy va quyi, bekamu-ko‘st va noraso irqlarga ajratadilar.

**Fanatizm** – Biron g‘oyaga, shaxsga uning mazmunini, mohiyatini chuqr anglamasdan johillarga ishonish va unga ergashishdir va u hayotda turli sohalarda uchraydi.

**Hushyorlik** - inson, ijtimoiy guruhi va tabaqalarning jamiyat, millat, davlatning tinchligi, barqarorligi, farovon hayoti va mustaqilligini mustahkamlash hamda saqlab qolishga qaratilgan ijtimoiy-ma’naviy tuyg‘usini ifoda etuvchi atama.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-JILD / SH.M. Mirziyoyev. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 592 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng olyi bahodir. 2-JILD / SH.M. Mirziyoyev. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-JILD / SH.M. Mirziyoyev. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 592 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 592 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi

PF-5847-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797sonli Qarori.

### **SH. Maxsus adabiyotlar**

19. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
20. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010. 204.
21. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
22. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
23. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
24. Muhammadsiddiqov M.M. Musulmon mamlakatlari va zamonaviy xalqaro munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Qaqnus media, 2019. – 226 b.
25. Muhammadsidiqov M.M. Xorijiy Sharq va G‘arb mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. Darslik. – T.: Qaqnus media, 2019. – 216 b.
26. Muhammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. Darslik. – T.: Qaqnus media, 2019. – 207 b.
27. Muhammadsidiqov M.M., Azimov H.Y. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Qaqnus media, 2019. – 207 b.
28. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
29. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiY. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
30. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: MonografiY. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
31. Bito‘rayev O‘.B. Siyosatshunoslikka kirish. – T.: ToshdSHI, 2017.
32. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An‘anaviy va noan‘anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
33. Yovqochev SH.A. Jahon siyosatida islom omili. –Toshkent.: ToshdSHI, 2016.
34. Jumayev R. Z. KonfliktologiY. –Toshkent.: ToshdSHI, 2018.
35. Jumayev R.Z., Yovqochev SH.A. Siyosiy texnologiyalar. –Toshkent.: ToshdSHI, 2019.

36. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

37. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiY. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.

[http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0\\_2017.pdf](http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf)

38. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

39. Madaminova D.I. Jahon siyosati. – Toshkent, 2019. – 228 b.

40. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quvmetodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

41. Mustapova H. I., Bito‘rayev O‘.B. Xalqaro munosabatlar nazariysi. . – Toshkent.: ToshdSHI, 2017.

42. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida.

[https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3.\\_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf](https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf)

43. Sayfullayev D.B. Mustaqillik davrida O‘zbekiston diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent, 2016.

44. Sayfullayev D.B. O‘zbekiston diplomatiyasining shakllanish tarixi (1991-2016). – Toshkent.: ToshdSHI, 2018.

45. Sayfullayev D.B. Xorijiy davlatlar diplomatik xizmati. – Toshkent.: 2018.

46. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

#### **IV. Internet saytlar**

47. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz).

48. Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)

49. [www.Ziyonet.Uz](http://www.Ziyonet.Uz)

50. Otkritoye obrazovaniye. <https://openedu.ru/>

51. [www.ut.uz](http://www.ut.uz)

52. [www.to.uz](http://www.to.uz)

53. [www.mtrk.uz](http://www.mtrk.uz)

54. [www.uzbekiston.uz](http://www.uzbekiston.uz)

55. [www.jb.uz](http://www.jb.uz)

56. [www.tafakkur.uz](http://www.tafakkur.uz)

57. [www.ppch-uzbekiston.uz](http://www.ppch-uzbekiston.uz)

58. [www.yoshlar.uz](http://www.yoshlar.uz)

59. [www.ijtimoiyfikr.uz](http://www.ijtimoiyfikr.uz)

60. [www.informanalytic\\_ru](http://www.informanalytic_ru)

61. <http://daily.sec.ru/dailypblshow.cfm>

62. [www.ase.md](http://www.ase.md)

63. <http://www.phreaking.ru/showpage.php>